

ISSN: 2181-4120

Scientific Journal

GOLDEN BRAIN

Social Sciences & Humanities



Volume 2, Issue 21



webgoldenbrain.com

2024/21
November

ISSN 2181-4120

VOLUME 2, ISSUE 21

NOVEMBER 2024



<http://webgoldenbrain.com/>

**“GOLDEN BRAIN” SCIENTIFIC JOURNAL
VOLUME 2, ISSUE 21, NOVEMBER, 2024**

EDITORIAL BOARD

G. Kholmurodova

Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

A. Madaliev

Professor, Doctor of Economics, Tashkent State Agrarian University

G. Sotiboldieva

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

U. Rashidova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Philological Sciences, Samarkand State University

D. Darmonov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

X. Abduxakimova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

U. Ruzmetov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Chemical Sciences, National University of Uzbekistan

M. Yusupova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

M. Kambarov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Namangan State University

S. Sadaddinova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Physics and Mathematics Sciences, Tashkent University of Information Technologies

M. Fayzullaev

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) Geographical Sciences, Karshi State University

Z. Muminova

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine

B. Kuldashov

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine

Kh. Askarov

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Fergana Polytechnic Institute

S. Nazarova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Bukhara State University

O. Rahmonov

Doctor of Philosophy (Phd) in Technical Sciences, Fergana Polytechnic Institute

G. Tangirova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

Z. Koryogdiev

Doctor of Philosophy (Phd) in Historical Sciences, Bukhara State University

S. Ubaydullaev

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology

R. Yuldasheva

Associate Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

M. Yuldasheva

Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Namangan State University

Editorial Secretary: J. Eshonkulov

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14251676>

BADIY ADABIYOTLARDA SINONIM SO‘ZLARNING O‘ZIGA XOS O‘RNI

Amirova Oynisa

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich ta’lim fakulteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi

M.A.Hamrayev

Ilmiy rahbar: Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich fakulteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

E-mail: m.a.hamrayev@gmail.com

Annotatsiya. Lug‘at tarkibini o‘rganuvchi bo‘lim. Leksemalarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari. Sinonim so‘zlar tushunchasi va ularning turlari. Badiy adabiyyotlarda sinonim so‘zlarning qo’llanishi va yozuvchilarimizning mahorati.

Kalit so‘zlar. Leksikologiya, sinonim so‘zlar, salbiy va ijobiy bo‘yoqdorlik, leksik-frazeologik, kontekst, ekspressivlik.

Абстрактный. Раздел изучения лексики. Виды лексем по отношению формы и значения. Понятие о синонимах и их видах. Использование синонимов в художественной литературе и мастерство наших писателей.

Ключевые слова. Лексикология, синонимы, негативная и позитивная окраска, лексикофразеологическая, контекст, экспрессивность.

Abstract. Section studying vocabulary. Types of lexemes according to the relation of form and meaning. The concept of synonyms and their types. The use of synonyms in fiction and the skill of our writers.

Keywords. Lexicology, synonyms, negative and positive coloring, lexical-phraseological, context, expressiveness.

Tilda mavjud bo‘lgan so‘zlar yig‘indisi lug‘at tarkibi yoki leksika deb yuritiladi. Lug‘at tarkibini o‘rganadigan bo‘lim esa leksikologiya (yun. lexikos-lug‘atga oid, logos-ta’limot) deb ataladi. Leksikologiya bo‘limida so‘zning ifodalagan ma’nosи, lug‘at tizimida tutgan o‘rni, kelib chiqishi, qo‘llanish darajasi o‘rganiladi. Leksikologiya fani so‘z ma’nosining o‘zgarishi, ya’ni so‘z ma’nosining kengayishi va torayishi, so‘zlarning shakli va so‘zlarning ma’no munosabatiga ko‘ra turlari, ularning hududiy va ijtimoiy qatlamlari, yangi so‘zlarning paydo bo‘lishi kabi qator masalalarni o‘rganadi.

Bu bo‘lim o‘rganadigan asosiy tushunchalardan biri leksemalarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari. Bu guruh bevosita omonimlar, sinonimlar, antonimlar, paronimlar va uyadosh so‘zlarni o‘z ichiga oladi.

Nutqimizda ikki va undan ortiq shaklga ega, ammo ma’nolari bir-biriga juda yaqin bo‘lgan birliklar mavjud. Bu birliklar tilshunoslikda sinonimlar, ya’ni ma’nodosh so‘zlar deb ataladi. Sinonimgrekcha synonymous yoki synonymon- "bir nomli" degan ma’noni bildiradi. Sinonim so‘zlar bir xil predmetlarni(ovqat, osh, taom), predmetning bir xil belgisini(ishchan, harakatchan, tirishqoq), bir xildagi harakatni(asramoq, saqlamoq) bildiradi.

Sinonimlar qatoridagi ma’nosи betaraf bo‘lgan, ko‘p qo‘llanadigan so‘z bosh so‘z(dominanta, asosiy so‘z) deb ataladi. Nur, shu’la, yog‘du, ziyo sòzlarida nur so‘zi bosh so‘zdir. Sinonim so‘zlar qatori bir xil so‘z turkumiga oid bo‘ladi: hayoli, andishali, oriyatli, iboli (sifat).

Tildagi o‘zlashma (boshqa tildan kirgan) so‘zlar o‘zbekcha so‘zlar bilangina emas, balki o‘zaro ham sinonim bo‘lishi mumkin: respublika(lot.)-jumhuriyat(arab). Tub so‘zlar yasama so‘zlar bilan sinonim bo‘lishi mumkin: his(tub)-sezgi(yasama). Sinonim so‘zlar salbiy va ijobiy bo‘yoqqa ega. Masalan, yuz, aft, bashara, turq, chehra, oraz, jamol so‘zlari orasida aft, bashara, turq kabilarida salbiy bo‘yoqdorlik yuqori bo‘lsa, chehra, oraz, jamol kabi so‘zlar ijobiy xarakterga ega. Yuz so‘zi esa bular ichida neytar hisoblanadi. Uni ikki xil holatda ham qo‘llashimiz mumkin. Sinonimlarning quyidagi turlari mavjud:

1) leksik(lug‘aviy) sinonimlar. Bular ham ikki xil bo‘ladi: a) to‘liq sinonimlar-har jihatdan teng keladigan, o‘zaro farq qilmaydigan, birining o‘rnida ikkinchisini bemalol qo‘llash mumkin bo‘lgan sinonimlar(bular yana leksek dubletlar deb ham yuritiladi) kosmos-fazo, savol-so‘roq; b) ma’naviy sinonimlar- ayrim ma’no nozikliklari bilan farq qiladigan, birining o‘rnida ikkinchisini har doim ham qo‘llab bo‘lmaydigan sinonimlardir: ovqat, taom, yemish, xo‘rak; kului, jilmaydi,tirjaydi, irjaydi, ishshaydi, irshaydi, xoxoladi;

2) frazeologik sinonimlar: boshi osmonda-og‘zi qulog“ida-do‘ppisini osmonga otmoq(o‘ta xursand);

3) leksik-frazeologik sinonimlar- so‘z va ibora o‘rtasidagi ma’nodoshlikdir: yuvosh-qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan;

4) grammatik sinonimlar ikki xil bo‘ladi: a) morfologik sinonimlar: adabiyotchi-adabiyotshunos, keldilar-kelishdi. Qo‘sishimcha va ko‘makchilarning o‘zaro sinonimligi ham morfologik, ya’ni grammatik sinonimlar jumlasiga kiradi: matabga ketdi-matab tomon ketdi. b) sintaktik sinonimlar erkin so‘z birikmalari yoki gaplar o‘rtasidagi sinonimlikdir: dala ishlari-daladagi ishlar; kitobni o‘qidi-kitob o‘qildi.

Badiiy asarlarda sinonimlarni qo‘llash nutqning jozibadorligini oshiradi. O‘zbek yozuvchilarimiz ham o‘z asarlarida sinonim so‘zlardan mohirona foydalangan. Bu esa yozuvchining mahoratini yanada oshirishga xizmat qiladi. Bunga misol sifatida bir qancha yozuvchining asarlarida qo‘llangan sinonimlarni tahlil qilamiz. "Chuqur ariqdan sug‘orib chiqayotganimda bir to‘da uloqchi chavandozlar uchrab qoldilar".(A.Qodiriy "Uloqda") Keltirilgan gapda ikki so‘zni ko‘rsak, matn ichida sinonim, lekin bular o‘rtasida farq ham mavjud. Uloqchi uloqdagina ot choptirib qatnashadigan shaxs sifatida aniq, tor ma’noga ega bo‘lsa, chavandoz so‘zi keng ma’nodadir. Uloqchi- chavandoz izohlovchiizohlanmish munosabatining ifodalanishi ma’noni konkretlashtiryapti.

"Tog‘amga yalinib-yolpog‘lanib oldirgan o‘ris yuganni artib-surtib soldim-da, egarni yaxshilab tozalab, yog‘ tushsa yalagudek qilib, yarqiratib qo‘ydim-da, o‘zim

chetroqdan turib kam-ko'stini kuzatdim". (A.Qodiriy "Uloqda"). Ushbu gapdagi "artib-surtib tozalab, yog' tushsa yalagudek qilib, yarqiratib" so'zlari sinonimdir. Ushbu sinonimlarga e'tibor berilganda ham uslubiy bo'yoqning mavjudligiga guvoh bo'lamiz.

"Shunda, bobomiz ketmonni yer botiradi. Engashmish ko'yi tizzalariga kaft tiraydi. Yer ostidan yo'lga ko'z tashlaydi".(Tog'ay Murod "Otamdan qolgan dalalar"). Bu gapda frazeologik sinonimlardan samarali foydalangan. Yo'lga ko'z tashlaydi- qaraydi ma'nosida qo'llanilgan. Bunday frazeologik sinonimlarni asarda ko'plab uchratishishimiz mumkin. Aynan shu hol yozuvchining so'zga naqadar usta va chechan ekanligidan dalolat beradi. "Kechqurun qulog'imni ding qilib turgan edim, ko'chada qo'shni bolalar chaqirib qolishdi".(O'.Hoshimov "Dunyoning ishlari"). Qulog'ini ding qilmoq-so'z birikmasiga teng keladigan fraza. Ma'nosisi: diqqat bilan tinglashga tayyor bo'lmoq. "-Voy-bo', jahlingiz burningizning uchida turadi-ya!".(O'. Hoshimov "Ikki eshik orasi"). Jahli burnining uchida- so'z birikmasiga teng keladigan fraza. Ma'nosisi: jahli tez.

"Qurbanoy xolaning ko'ngliga mubham xavotir tushdi".(O'. Hoshimov "Tushda kechgan umrlar"). "Mubham" so'zining sinonimlari-muhmal, noaniq, chigal.

O'tkir Hoshimov o'z asarlarida frazeologizmlardan mohirlik bilan foydalangan. Bu kabi iboralar sinonimik qatorning so'zlashuv uslubiga xos, xalq tilidagi iboralar tanlab olingandek go'yo. Bu esa insonlarning ruhiy holatlari, ya'ni nutqning ekspressivligini ifodalash uchun xizmat qiladi. Sinonimlar orasida farqlar qancha oz bo'lsa, ulami nutqda bir-birining o'mida ishlatishga imkoniyat ortadi va aksincha bolsa, bunday imkoniyat ozayadi. Qay darajada bo'lmasin, sinonimlarni o'zar o'mashtirishga yo'l qo'yuvchi kontekst mavjud bo'ladi.

Sinonim so'zlar nafaqat badiiy adabiyotda, balki ilmiy asarlar, maqolalar hamda so'zlashuv uslubida ham alohida o'ringa ega. Yozuvchi, ijodkor tomonidan sinonimlardan foydalanish ijodkorining mahoratiga bog'liq. Sinonimlarni puxtalik bilan qo'llash orqali asardagi so'z takrori kabi uslubiy g'alizlikning oldini olishimiz aniq. Va bu orqali yozuvchi yoki so'zlovchining so'z boyligi darajasini ham bilib olishimiz mumkin. So'zlashuv uslubida ham sinonim so'zlar, sinonim iboralarni qo'llashimiz orqali nutqimizning aniq va ravshan, ta'sirli va jozibadorligini kuchaytirgan bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.Hamrayev va boshqalar. Ona tili va bolalar adabiyoti(1-qism: Ona tili). Toshkent2023.(64-66-bet)
2. N.Rasulov Yengil ona tili saboqlari Ilm-Ziyo-Zakovat-Toshkent 2021.(25-bet)
3. A.Qodiriy Kichik asarlar-Toshkent, G‘afur G‘ulom 1969.(212-bet)
4. T.Murod Otamdan qolgan dalalar. Sharq nashri Toshkent 1994. (2-bet)
5. O‘.Hoshimov Dunyoning ishlari. Toshkent (26-bet)
6. O‘.Hoshimov Ikki eshik orasi. Meriyus-Toshkent 2017.(216-bet)
7. O‘.Hoshimov Tushda kechgan umrlar. Nurli dunyo-Toshkent 2022.(13-bet)
8. Internet tarmog‘i: arxiv.uz

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14251696>

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA KATTA VA
TAYYORLOV GURUHLARI TARBIYALANUVCHILARINI SON VA
SANOQQA O'RGATISH METODIKALARI**

M.U.Azimova

Navoiy Davlat Universiteti,

Maktabgacha ta'lism yo'nalishi v.b dotsenti

D.Q. Boboqulova

Navoiy Davlat Universiteti,

Maktabgacha ta'lism yo'nalishi

3a- MT 22 guruh talabasi

ANNOTATSIYA: Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning dastlabki bilim va ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb masalaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan, son va sanoq tushunchalari bilan tanishtirish orqali ularda matematik fikrlash va analitik ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyati yaratiladi. Ushbu maqola katta va tayyorlov guruhlari tarbiyalanuvchilarini son va sanoqqa o'rgatishning samarali metodikalarini ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: son va sanoq, tarbiyachi, bolalar, maktabgacha tarbiya, o'yin, huddi shunday, bitta va ko'p.

ABSTRACT: Today, in preschool educational organizations operating in our country, one of the urgent tasks is the formation of children's initial knowledge and skills. Thus, familiarity with the concepts of number and counting gives them the opportunity to develop mathematical thinking and analytical skills. This article discusses effective methods of teaching senior and preparatory groups of students to number and numeracy.

Keywords: number and counting, educator, children, preschooler, game as it is, one and many.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION)

Son va sanoq tushunchalarini o'rgatishning ahamiyati. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni o'qitish o'ziga xos xususiyatga ega. Maktabgacha tarbiya yoshida echilishi kerak bo'lgan vazifalar hal qilinmasa, maktabgacha o'qitish muvaffaqiyatlari bo'lmaydi. Bu vazifalardan biri konkret bilimlar va tafakkur usullaridan abstrakt bilim va usullarga o'tishdan iborat. Bu xil o'tish saviyasi, ayniqsa, matematika o'qitish uchun zarurdir. Bunday savyaining bo'lmasligi yoki etarli bo'lmaligi ikki tomonlama qiyinchilikka olib keladi. Bir tomonidan, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ko'pincha matabga mavhum matematik usullarni egallagan holda keladilar, bularni bartaraf qilish juda qiyin bo'ladi. Ikkinci tomonidan, bolalar matabda abstrakt bilimlarni egallar ekanlar, ko'pincha ularni formal, asl mazmunini tushunib etmagan holda o'zlashtiradilar. Shuning uchun ham konsret shart – sharoitlarda matematik usullarni egallagan holda keladilar, bularni bartaraf qilish juda qiyin bo'ladi.

Son va sanoq tushunchalarini o'rgatish bolalarning matematik tafakkurini rivojlantiradi, ularni atrof-muhitni tahlil qilishga va oddiy masalalarni hal qilishga tayyorlaydi. Bu jarayon orqali bolalarda:

- Mantiqiy fikrlash;
- Ob'yektlarni solishtirish va tartibga solish;
- Koordinatsion ko'nikmalar rivojlanadi[1].

ADABIYOTLAR TAHЛИILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ/METHODS)

- Son va sanoqni o'rgatishda o'yin elementlarini ko'proq qo'llash.
- Har bir bolaga individual yondashuvni ta'minlash.
- Texnologiyalardan keng foydalanish va interaktiv darslarni tashkil etish.
- Ta'lim jarayonini bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda rejalashtirish[2,3]

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)

O‘yinlar orqali o‘rgatish bolalarning qiziqishini oshiradi va jarayonni yanada samarali qiladi. Misollar:

- “Kim ko‘proq to‘playdi” o‘yini: bolalar raqamli kartochkalarni yig‘ib, ularni son bo‘yicha tartibga soladi.

- “Matematik poyga”: bolalar guruh-guruh bo‘lib berilgan masalalarni yechadi.

Ko‘rish orqali o‘rganish bolalar uchun osonroqdir. Masalan:

- Rangli kartochkalar, ob’yektlar sonini ko‘rsatadigan rasmiplakatlar.

- Sanoq tayoqchalari va kubiklar yordamida amaliy mashg‘ulotlar.

Zamonaviy texnologiyalar (interaktiv doskalar, ta’lim dasturlari) orqali bolalar virtual muhitda son va sanoqni o‘rganadi. Bu usul bolalarning qiziqishini oshirish bilan birga, yangi avlodning texnologiyalarga moslashuvini ta’minlaydi[2,3]

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)

Bosqichma-bosqich o‘qitish strategiyasi

Bolalarni 1 dan 10 gacha bo‘lgan sonlar bilan tanishtirish. Bu bosqichda ko‘proq vizual va o‘yin elementlariga e’tibor beriladi.

10 dan katta sonlarni o‘rgatish va amaliy mashqlar orqali bilimlarni mustahkamlash. Misol:

- Turli rangdagi tayoqchalar yordamida qo‘sish va ayirish amallarini bajarish.

- Guruhiy mashqlar: bolalar birgalikda masalalarni hal qiladi.

Maktabga tayyorlanayotgan bolalar bilan arifmetik amallarni yechish, masalalar tuzish va ularga javob topish mashqlarini bajarish[2,3,4]

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Son va sanoqni o‘rgatish jarayoni bolalarning matematik qobiliyatlarini shakllantirish va ularni maktabga tayyorlashda muhim bosqich hisoblanadi. Zamonaviy metodik yondashuvlardan foydalanish ta’lim jarayonini yanada samarali qiladi. Tarbiyachilar o‘quv jarayonini bolalarning qiziqishlariga mos ravishda tashkil etishlari zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. T.: 2018.
2. F.Qodirova, Sh.Toshpo‘latova, N.Kayumova, M.A’zamova. Maktabgacha pedagogika. - Toshkent: Tafakkur. 2019.
3. G.E.Djanpeisova, B.N.Hojimuratova “Matematik tasavvurlarni shakllantirish” T.; “Innovatsiya-Ziyo”, 2020.
4. “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi. T. : 2018.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14251705>

BULUTLI TEKNOLOGIYALAR VA ULARNING PSIXOLOGIYA FAOLIYATIDA QO'LLANILISHI

Xidirova Noila Boymurotovna

Iqtisodiyot va Pedagogika Universiteti o‘qituvchisi
noilaxidirova@gmail.com

Oromova Shodiyona Sodiq qizi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabasi
oromovashodiyona81@gmail.com

Otajonova Kamila Rajabboyevna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabasi
kamilaotazonova147@gmail.com

Begancheva Munavvara Baxodir qizi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabasi
munavvarabegancheva@gmail.com

Tosheva Zahro Xayrulla qizi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabasi
toshevazahro6@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada web-teknologiyaning zamонавији yangi xizmat turi bo‘lgan – “bulutli texnologiya” haqida fikr yuritiladi. “Bulutli texnologiya” ning kelib chiqishi, “bulutli texnologiya” ni ta’limda qo’llash imkoniyatlari, uning afzalliklari va kamchiliklari, shuningdek, talabalarni «bulutli texnologiya» asosida o‘qitishga yondashuv hamda “bulutli texnologiya”ning kelajakdagi holati haqida to‘xtalib o’tiladi.

Kalit so‘zlar: Texnologiya, bulutli, xotira, ma'lumot, amaliy, dasturlash, internet, talaba, loyiha, kelajak, ta’lim, jarayon.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается новый современный вид услуг веб-технологий – «облачные технологии». Происхождение «облачных технологий», возможности использования «облачных технологий» в образовании, их преимущества и недостатки, а также подход к обучению студентов на основе «облачных технологий» и «облачных технологий» будет обсуждаться его будущий статус.

Ключевые слова: Технология, облако, память, информация, практика, программирование, Интернет, студент, проект, будущее, образование, процесс.

ANNOTATION

This article discusses the modern new service type of web technology - "cloud technology". The origin of "cloud technology", the possibilities of using "cloud technology" in education, its advantages and disadvantages, as well as the approach to teaching students based on "cloud technology" and "cloud technology" its future status will be discussed.

Keywords: Technology, cloud, memory, information, practical, programming, internet, student, project, future, education, process.

Kirish

Bulutli texnologiya, eng oddiy ta’rifi bilan, foydalanuvchilarning ma’lumotlarini raqamli tarmoq orqali saqlaydi. Sizning ma’lumotlaringiz telefoningiz yoki kompyuterlingizda joy egallamasdan bulutda saqlanadi. E-pochtangiz va parolingiz bilan boshqa qurilmalardagi ma’lumotlar va fayllaringizga kirishingiz mumkin. Shunday qilib, bulut texnologiyasi sizga boshqa qurilmalaringiz o’rtasida ma’lumotlarni saqlash va almashish imkonini beradi. Bulutli texnologiya turli xil dasturlar orqali internet orqali saqlash imkonini beradi. Virtual xotira bilan ma’lumotlaringiz onlayn saqlanadi. Shunday qilib, sizga qattiq disklar kabi jismoniy

saqlash joylari kerak emas. Shuningdek, istalgan vaqtida ma'lumotlaringizga kirishingiz mumkin. Bulutli texnologiya API yoki amaliy dasturlash interfeysi tomonidan ta'minlanadi va shuningdek, uchta toifadagi xizmatlarni taqdim etadi: IaaS (infratuzilma), PaaS (platforma), SaaS (dasturiy ta'minot). Bugungi kunda har bir foydalanuvchi va kompaniya, xoh u jismoniy, xoh korporativ bo'lsin, bulutli texnologiyalardan foydalanadi. Bulutli texnologiya, ayniqsa faol internet foydalanuvchilari uchun zaruratga aylandi. Bulutli texnologiya tufayli saqlash, dasturiy ta'minot, hisoblash xizmatlari, holatni tiklash va foydalanuvchilar o'rtaida ma'lumotlar almashinushi kabi ko'plab xizmatlar virtual Internet orqali amalga oshiriladi. U nafaqat shaxslar o'rtaida, balki muassasalar o'rtaida ham tez-tez qo'llaniladi. Sog'liqni saqlash muassasalaridan tortib xavfsizlik kompaniyalarigacha, har bir tashkilot o'z ish joylarini yaxshilash va mijozlariga yuqori sifatli xizmat ko'rsatish uchun bulutli texnologiyadan foydalanadi. Bulutli texnologiyaning eng katta afzalligi shundaki, siz hech qanday diskni talab qilmasdan ma'lumotlaringizni saqlashingiz va istalgan vaqtida istalgan qurilmadan kirishingiz mumkin. Agar yo'q bo'lsa, uni Google Play yoki AppStore'dan osongina yuklab olishingiz mumkin. Shunday qilib, bulut texnologiyasidan hech qanday muassasaga ulanmasdan foydalanishingiz mumkin. Korporativ kompaniyalar tomonidan bulutli texnologiyadan foydalanish ularni katta xarajatlardan qutqarishi mumkin. Shunday qilib, kompaniyalar dasturiy ta'minotni o'rnatish yoki ma'lumotlar markazini o'rnatish kabi faoliyat uchun qo'shimcha pul to'lashlari shart emas. Bundan tashqari, ma'lumotlaringiz bulutda zaxiralanadi. Shunday qilib, telefoningiz yoki kompyuterlingizga biror narsa yuz bersa, ma'lumotlaringizni yo'qotmaysiz. Shu munosabat bilan aytishimiz mumkinki, bulutli texnologiya xavfsizlikni oshiradi. Bulutli texnologiya ma'lumotlaringizni ehtimoliy tahdidlardan ham himoya qiladi. Bundan tashqari, fayllaringizni xohlaganingiz bilan baham ko'rishingiz mumkin. Sizning ruxsatingizsiz hech kim fayllaringizga kira olmaydi. Internetga ulangan bo'lsangiz ham, istalgan vaqtida va istalgan joyda ma'lumotlaringiz va hisoblash resurslaringizga kirishingiz mumkin. Bulutli texnologiya HDDlarga qaraganda ko'proq saqlash joyini ta'minlaydi. Ehtimol, bulutli

texnologiyaning yagona kamchiligi shundaki, siz ma'lumotlaringizga faqat internetga ulanganda kirishingiz mumkin. Chunki ma'lumotlaringiz internetdagi virtual xotira bilan himoyalangan. Shuning uchun, agar siz turgan joyda internetga ulanmagan bo'lsangiz, ma'lumotlaringizga kira olmaysiz. Biroq, fayllarni oflaysn rejimda ko'rish imkonini beruvchi turli ilovalar tufayli siz ushbu fayllarni qurilmangizga yuklab olishingiz va Internetga kirish imkoningiz bo'lganda ularni oflaysn rejimda ishlatishingiz mumki. So'nggi yillarda ta'limga bulutli texnologiyalarning integratsiyasi talabalar va o'qituvchilarning axborot bilan o'zaro munosabatini o'zgartirdi. Bulutli hisoblash internetga ulangan har qanday qurilmadan resurslar va o'quv materiallaridan uzluksiz foydalanish imkonini beradi, bu esa yanada moslashtirilgan va moslashuvchan o'rganish tajribasini taqdim etadi. Ta'limda bulutli texnologiyalardan foydalanish, shuningdek, talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi hamkorlikni inqilob qildi, bu real vaqt rejimida muloqot qilish va hujjatlar va loyihalarga umumiylar kirish imkonini berdi. Raqamli landshaftni kezishda davom etar ekanmiz, bulutli texnologiyalarning ta'limdagi rolini tushunish texnologiyaning ta'lim natijalarini oshirish imkoniyatlarini maksimal darajada oshirish uchun juda muhimdir. Bulutli texnologiyalar da&lab axborot texnologiyalari (AT) sohasining yetuk-kompaniyalari tomonidan ishlatilgan bo'lsa-da, keyinchalik kuchli hisoblash resurslarini talab qiladigan ishlarda hamda axborotlarni saqlash va qayta ishslash uchun boshqa sohalarda ham ishlatila boshlandi. Hozirda "bulutli xotira" lar (Dropbox kabi), "bulutli server"lar (pullik bo'lsa-da, lekin ishonchli) va "bulutli xizmat turlari (servis)" mavjud bo'lib, ko'p ilovalar "bulutli xizmat turlari" dan foydalanadilar. Bularga misol qilib In&agram, Feysbuk, messenjerlar, elektron pochta xizmatlari, on-layn ta'lim sohasida Google on-layn ilovalari, Zoom-konferensiyalar, LMS-tizimlari, Smart - ta'lim texnologiyalari, shuningdek, taksi, taomlarni buyurtma qilish xizmatlarini taklif qiluvchi web-ivalovalarni keltirish mumkin. Bulutli texnologiyalar ta'lim jarayonini tashkil qilsihning yangi usuli bo'lib, ta'lim jarayonini tashkil etishning an'anaviy usullariga muqobil variantni taklif qiladi, shaxsiy ta'lim, jamoaviy o'qitish va interfaol imkoniyatlar yaratadi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida “bulutli” texnologiyalarni o‘quv jarayoniga qo‘llash masalasi hali yetarlicha o‘rganilmagan bo‘lib, adabiyatlar ham yetarli emas.

Xulosा.

Bulutli texnologiyalar (Cloud Technologies) – bu internet orqali turli resurslarga, xususan, serverlar, ma’lumotlar saqlash, dasturiy ta’milot va tarmoqlar kabi infratuzilmalarga ularish imkoniyatini taqdim etadigan texnologiyalar to‘plamidir. Bulutli texnologiyalar biznes, ta’lim, sog‘liqni saqlash, va boshqa ko‘plab sohalarda samarali qo‘llaniladi. Ular resurslarni samarali boshqarish, axborotlarni tez va xavfsiz almashish, va yangi xizmatlarni yaratishda yordam beradi. Bulutli texnologiyalar psixologiya sohasida diagnostika, terapiya, tadqiqotlar va bemorlar bilan ishlashda samaradorlikni oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdulina E.M. Ta’limda bulutli texnologiyalar // Yosh olim. -2019 yil. - 52-son (290). - B. 7-9. - <https://moluch.ru/archive/290/65873>
- 2.“Bulutli;texnologiyalar”,tushunchasi https://&udwood.ru/1046027/informatika/ponyatie_oblachnye_tehnologii
3. Bulutli texnologiyalar: bu nima va undan biznes uchun qanday foydalanish kerak - <https://blog.sibirix.ru/tech-clouds/>
3. Xidirova, N. B., qizi Oromova, S. S., & Otajonova, K. R. (2024). MULTIMEDIALI TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING PSIXOLOGIYADA QO‘LLANILISHI. GOLDEN BRAIN, 2(20), 157-161.
4. Xidirova, N. B., & qizi Nomozova, F. A. (2024). RAQAMLI MATERIALLAR VA INTERAKTIV PLATFOMALAR YORDAMIDA TABIIY FANLARNI O‘QITISH. GOLDEN BRAIN, 2(20), 162-166.
5. Egamberdiev, K., Khidirova, N., & Islomov, A. (2024). Creation of an automated information system using python and the django framework with a telegram bot. Big Data and Computing Visions, 4(3), 219-226.

6. Egamberdiyev, H. S., & Khujakulov, A. K. (2024). VIRTUAL MUSEUMS AS PART OF A DIGITAL CULTURAL ENVIRONMENT. Экономика и социум, (3-1 (118)), 121-125.
7. Egamberdiyev, H., Muqimov, S., & Pulatova, D. (2023). DIGITALIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS AND THE SAMR MODEL. Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения, 2(5), 4-7.
8. Xidirova, N. B., & qizi Muqimova, G. Z. (2024). EXCELDA DIAGRAMMALAR BILAN ISHLASH. GOLDEN BRAIN, 2(20), 167-171

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14251716>

QO‘SHMA TA’LIM INSTITUTLARIDA INGLIZ TILINI O‘QITISH AFZALLIKLARI

R.K.Ollaberganova

Toshkent shahridagi Belarus-O‘zbekiston
qo‘shma tarmoqlararo amaliy
texnik kvalifikatsiyalar instituti o‘qituvchisi

Annotation. Maqolada ingliz tili global ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanganligi va hozirgi kunda talabalarning ta’lim va kasbiy muvaffaqiyatiga katta ta’sir ko‘rsatishi keltirib o‘tilgan. Shuningdek Qo‘shma ta’lim institutlarida ingliz tilini o‘qitishning ko‘plab afzalliklari, ushbu ta’lim tizimi nafaqat tilni o‘rganishni ta’minlash, balki talabalarning global miqyosda faoliyat ko‘rsatish imkoniyatlarini kengaytirishi tahlili keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Global kommunikatsiya, kommunikativ yondashuv, Madaniy almashuv va diversifikasiya, Ijtimoiy va madaniy integratsiya, o‘quv rejasini ishlab chiqish.

ПРЕИМУЩЕСТВА ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ В СОВМЕСТНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ИНСТИТУТАХ

Аннотация. В статье отмечается, что английский язык стал неотъемлемой частью глобальной системы образования и в настоящее время оказывает значительное влияние на образовательный и профессиональный успех студентов. Также приводится анализ многочисленных преимуществ преподавания английского языка в совместных образовательных институтах. Подчеркивается, что данная система образования не только обеспечивает изучение языка, но и расширяет возможности студентов для деятельности в глобальном масштабе.

Ключевые слова: Глобальная коммуникация, коммуникативный подход, культурный обмен и диверсификация, социальная и культурная интеграция, разработка учебного плана.

THE ADVANTAGES OF TEACHING ENGLISH IN JOINT EDUCATION INSTITUTIONS

Annotation. The article notes that English has become an integral part of the global education system and is currently having a significant impact on students' academic and professional success. An analysis of the many advantages of teaching English in joint educational institutions is also presented. It is emphasized that this education system not only ensures the study of the language, but also expands the opportunities for students to work on a global scale.

Key words: Global communication, communicative approach, cultural exchange and diversification, social and cultural integration, curriculum development.

Hozirgi vaqtda qo'shma ta'lif institutlarida aloqa, interaktivlik, muloqotning haqiqiyligi, madaniy sharoitda tilni o'rganish, ta'lifning avtonomligi va insonparvarligi masalalariga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Ushbu tamoyillar madaniyatlararo kompetensiyani kommunikativ qobiliyatning tarkibiy qismi sifatida rivojlantirishga imkon beradi. Qo'shma ta'lif institutlarida chet tillarni o'qitishning yakuniy maqsadi barcha ta'lif muassasalari kabi chet tilidagi muhitda erkin yo'nalishni va turli vaziyatlarda etarli darajada javob berish qobiliyatini o'rgatishdir, ya'ni. aloqa. Bugungi kunda Internet resurslaridan foydalangan holda yangi usullar an'anaviy chet tillarini o'qitishga qarshi. Chet tilida muloqotni o'rgatish uchun siz materialni o'rganishni rag'batlantiradigan va etarli xulq-atvorni rivojlantiradigan haqiqiy, haqiqiy hayotiy vaziyatlarni yaratishingiz kerak (ya'ni aloqa haqiqiyligi prinsipi deb ataladi). Yangi texnologiyalar, xususan Internet ushbu xatoni tuzatishga harakat qilmoqda. Kommunikativ yondashuv - bu materialni ongli ravishda anglashga va u bilan ishlash usullariga, muloqotga psixologik va lingvistik tayyorgarlikni yaratishga qaratilgan muloqotni simulyatsiya qiluvchi strategiy. Foydalanuvchi uchun Internetda kommunikativ yondashuvni amalga oshirish ayniqsa qiyin emas. Kommunikativ vazifa talabalarga muammo yoki savolni muhokama qilish uchun taklif qilishi kerak, talabalar nafaqat ma'lumot almashadilar, balki ularni baholaydilar. Ushbu yondashuvni o'quv faoliyatining boshqa turlaridan ajratib olishga imkon beradigan asosiy mezon - talabalar o'z fikrlarini shakllantirish uchun mustaqil ravishda

lisoniy birliklarni tanlashidir. Kommunikativ yondashuvda Internetdan foydalanish juda yaxshi rag‘batlantiriladi: uning maqsadi o‘quvchilarga bilim va tajribalarini to’plash va kengaytirish orqali chet tilini o’rganishga qiziqishdir.

Quyida Qo‘shma ta’lim institutlarida ingliz tilini o‘qitishning afzallikkлari bo‘yicha batafsil ma’lumot, jadval va diagrammalarni ko‘rib chiqamiz. Bu ma’lumotlar talabalar, o‘qituvchilar va ta’lim muassasalarining umumiyl rivojlanishiga qanday yordam berishini ko‘rsatib beradi(jadval).

Jadval

Qo‘shma ta’lim institutlarida ingliz tilini o‘qitish afzallikkлari

Afzallikkлar	Izoh
Global kommunikatsiya	Ingliz tili dunyo bo‘ylab eng ko‘p so‘zlashiladigan til bo‘lib, xalqaro munosabatlar, biznes, ilmiy tadqiqotlar va madaniyat uchun zarurdir.
Ta’lim va ilm-fan sohalarida imkoniyatlar	Ingliz tilini bilish, universitetlar va ilmiy tashkilotlar bilan hamkorlikni osonlashtiradi, yangi ilmiy maqolalar va tadqiqotlarga kirish imkonini yaratadi.
Ishga joylashish imkoniyatlari	Ingliz tili ish joylarida, ayniqsa xalqaro kompaniyalar va tashkilotlarda yuqori talabga ega.
Madaniy almashuv va diversifikatsiya	Ingliz tilini bilish, turli madaniyatlarni o‘rganish va dunyoqarashni kengaytirish imkonini beradi.
Texnologiyalar va raqamlı kommunikatsiya	Ingliz tili texnologiyalar va raqamlı kommunikatsiya vositalarida asosiy til hisoblanadi, bu esa ma’lumotlarga tez kirish imkonini yaratadi.
Ijtimoiy va madaniy integratsiya	Ingliz tilida o‘qish va muloqot qilish orqali ijtimoiy va madaniy integratsiya jarayonini rivojlantirish mumkin.
O‘qituvchilarning malakasi	Qo‘shma ta’lim institutlarida o‘qituvchi kadrlari ingliz tilida o‘qitishga yuqori malakali bo‘lib, sifatli ta’limni taqdim etishadi.

Shuningdek, Bugungi kunda qo'shma ta'limning bir qator qo'yidagi afzalliklarini ham ko'rib chiqishimiz mumkin ya'ni,

* Turli xil o'quvchilar: Qo'shma ta'limda turli xil o'quvchilar bilan ishlash imkoniyati mavjud. Bu o'quv jarayonini boyitadi va o'qituvchilarni turli xil o'quv uslublarini qo'llashga undaydi.

* Hamkorlik: Qo'shma ta'limda o'qituvchilar bir-biri bilan hamkorlik qilib, o'quv rejasini ishlab chiqish, o'quv materiallarini baham ko'rish va o'quvchilarni baholashda birgalikda ishlashadi.

* O'quvchilarga yordam: Qo'shma ta'lim o'quvchilarga o'zlarining o'quv ehtiyojlarini qondirish uchun ko'proq imkoniyatlar yaratadi. O'qituvchilar o'quvchilarga individual yordam berishlari va ularning o'quv muvaffaqiyatlarini kuzatishlari mumkin.

Shu bilan birga ingliz tilini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini ham ajratib ko'rsatish mumkin.

* Tilning murakkabligi: Ingliz tili grammatikasi, lug'ati va fonetikasi jihatidan juda murakkab til. O'qituvchilar o'quvchilarga tilning barcha jihatlarini tushunishda yordam berishlari kerak.

* Turli xil o'quvchilar: Qo'shma ta'limda ingliz tilini o'rganuvchilarning darajasi va ehtiyojlari turlicha bo'lishi mumkin. O'qituvchilar o'quvchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun turli xil o'quv uslublarini qo'llashi kerak.

* Tilni qo'llash: Ingliz tilini o'rganish faqat grammatika va lug'atni o'rganishdan iborat emas. O'qituvchilar o'quvchilarga tilni amalda qo'llash imkoniyatini yaratishga harakat qilishlari kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda qo'shma ta'limda ingliz tilini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarni taklif sifatida berish mumkin:

* O'quvchilarning ehtiyojlarini aniqlash: O'qituvchilar o'quvchilarning ingliz tili darajasini, o'quv maqsadlarini va o'quv uslublarini aniqlashlari kerak.

* O‘quv rejasini ishlab chiqish: O‘qituvchilar o‘quvchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun mos keladigan o‘quv rejasini ishlab chiqishlari kerak.

* Turli xil o‘quv materiallarini qo‘llash: O‘qituvchilar o‘quvchilarni jalb qilish va ularning o‘quv qiziqishini oshirish uchun turli xil o‘quv materiallarini qo‘llashi kerak.

* Tilni amalda qo‘llash imkoniyatini yaratish: O‘qituvchilar o‘quvchilarga tilni amalda qo‘llash imkoniyatini yaratishga harakat qilishlari kerak. Bu rollar o‘ynash, muhokama qilish, taqdimotlar va boshqa faoliyatlar orqali amalga oshirilishi mumkin.

* O‘quvchilarni baholash: O‘qituvchilar o‘quvchilarning o‘quv muvaffaqiyatlarini baholash uchun turli xil usullarni qo‘llashi kerak. Bu testlar, insho yozish, og‘zaki baholash va boshqa usullar bo‘lishi mumkin.

Qo‘shma ta’lim institutlarida ingliz tilini o‘qitishda muvaffaqiyatga erishish uchun o‘qituvchilar o‘quvchilarning ehtiyojlarini qondirishga, turli xil o‘quv uslublarini qo‘llashga va tilni amalda qo‘llash imkoniyatini yaratishga harakat qilishlari kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xalikova, L. U. (2021). The Theoretical bases of foreign language is teaching english vocabulary. Международный научно-практический электронный журнал «Моя профессиональная карьера». Выпуск № 25 (том 2)(июнь, 2021). Дата выхода в свет: 30.06. 2021., 109.
2. Uktamovna, X. L. (2021). Teachining communication technologies in modern foreign languages. central asian journal of theoretical & applied sciences, 2(6), 53-56.
3. Yuldasheva, M. B. (2020). History of the english uzbek translation. theoretical & applied science, (3), 11-14.
4. Yuldasheva Ma’Mura Bahtiyorovna (2020). The organization of the mental lexicon. Наука, образование и культура, (1 (45)), 44-45.

5. Bakhtiyarovna, Y. M. (2022). Relation of comparative stylistics with translation theory.
6. Saydivaliyeva, B. S. (2021). Organizational and pedagogical conditions for the formation of professional significant qualities. Экономика и социум, (3-1), 273-277. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=45770178>
7. Saydivaliyeva, B. S. (2021). Organizational and pedagogical conditions for the formation of professional significant qualities. Экономика и социум, (3-1), 273-277.
8. Mustaeva, G. S., Saidivalieva, B. S., & Ataeva, G. B. (2022, June). Features of professional vocabulary and its difference from terms. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2432, No. 1, p. 060017). AIP Publishing LLC.
9. Mustaeva, G. S., Saidivalieva, B. S., & Ataeva, G. B. (2022, June). Features of professional vocabulary and its difference from terms. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2432, No. 1, p. 060017). AIP Publishing LLC.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14251726>

TARBIYA JARAYONIGA TA'SIRCHANLIK MEDIA MAKON ORQALI

Jurakulov Jamol Komilovich

Renessans ta'lim universiteti

“Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasi dotsenti, PhD

Toshkent shahar,

E-mail: jurakulovjamol904@gmail.com

Elmurotov Jamshid Shodiyorovich

Renessans ta'lim universiteti

“Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasi dotsenti, PhD

Toshkent shahar,

E-mail: jamshidbek82@gmail.com

ANNOTASIYA: maqolada ta'lim va tarbiya jarayoniga ma'naviy tarbiyaning ta'sirchanligi milliy axborot orqali ekanligi, ta'lim va tarbiya jarayonida kompyuter texnologiyalari va axborotni qayta ishlash, axborot almashinuvi yangi demokratik ta'lim va tarbiya jarayonida ma'naviy tarbiyaning milliy axborot tasirchanligi imkoniyatlar xaqida fikir muloxaza yuritamiz.

KALIT SO'ZLAR: ta'lim, tarbiya, milliy, axborotning shaxs, davlat va jamiyat, axborotlashtirish xususiyatlari, milliy axborot.

АННОТАЦИЯ: в статье показано, что влияние духовного образования на процесс образования и воспитания осуществляется через национальную информацию, компьютерные технологии и обработку информации в процессе образования и воспитания, обмен информацией является национальной информацией духовного образования в процессе нового демократическое образование и воспитание Мы думаем о возможностях эффективности.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: образование, образование, национальная, индивидуальная, государственная и общественная информация, особенности информации, национальная информация.

ABSTRACT: the article shows that the impact of spiritual education on the process of education and upbringing is through national information, computer technologies and information processing in the process of education and upbringing, information exchange is the national information of spiritual education in the process of new democratic education and upbringing. We are thinking about the possibilities of effectiveness.

KEY WORDS: education, education, national, individual, state and society information, features of information, national information.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Ta'lim va tarbiya jarayonida axborot oqimi hayot va madaniyat sharoitlarini, xulq-atvor stereotiplarini, fikrlashmizni tubdan o'zgartirib, jamiyatdagi barcha sohalariga inqilobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ta'lim va tarbiya jarayoniga ma'naviy tarbiyaning ta'sirchanligi milliy axborot orqali ekanligini anglashimiz, ta'lim jarayonida milliy axborotni sezilarli yutuqlar ilmiy va ilmiy-ommabop nashrlarda "ma'naviy tarbiya" nomining paydo bo'lishiga olib keldi. Aksariyat olimlar qarashida milliy ma'naviy tarbiya jamiyatini asosiy mahsuloti axborot bilan bog'lansa samarali deb takidlaydilar. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, bizning eramizning boshidan beri insoniyat tomonidan to'plangan ma'lumotlar ikki baravar ko'paygan, birinchi marta 1750-yilda, ikkinchi marta XX asr boshlarida, uchinchi marta 1950-yilda. 1950-yildan boshlab dunyoda ta'limning umumiyligi miqdori har 10 yilda ikki barobar, 1970-yildan boshlab har 5 yilda va 1991-yildan boshlab ikki baravar ko'paydi. Demak, bugungi kunda dunyoda ta'lim hajmi 250 ming barobardan ortiq oshgan. Ta'lim va tarbiya jarayoniga ma'naviy tarbiyaning ta'sirchanligi milliy axborot orqali singdirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS).

Amerikalik sotsiolog D.Bellning ta'kidlashicha, axborotlashgan jamiyat, avvalo, ma'lumotlilik darajasi va malakasiga ko'ra, millat elitasini shakllantiradigan jamiyat. Tadqiqotchi axborotni jismonan iste'mol qilinmaydigan va eskirmaydigan "jamoaviy mahsulot" sifatida talqin qilib, industrial jamiyatda inson hayotiy faoliyatidagi mutlaqo

yangi mahsulot bo‘lgani uchun unga nisbatan o‘sha davrda muomalada bo‘lganidan o‘zgacha me’yor va mezonlarni qo‘llash kerakligiga e’tibor qaratadi. [1]

Ta’lim va tarbiya jarayoniga ma’naviy tarbiyaning ta’sirchanligi milliy axborot orqali jamiyatda kompyuter texnologiyalari va axborotni qayta ishlash bo‘yicha konsalting, ilmiy axborot va boshqa xizmatlar ko‘rsatuvchi professional guruuhlar vujudga keldi. Yangi ilmiy va kasbiy yo‘nalishlarning paydo bo‘lishi kadrlar tayyorlashning alohida tizimini talab qiladi. Bu tizim nafaqat jamoatchilikni xabardor qilish davrining voqeligi va o‘qitish mazmuniga, balki usul va vositalarga ham mos kelishi kerak. Axborotning shaxs, davlat va jamiyat hayotidagi o‘rni juda muhim. Axborot insonni atrof-muhitga moslashtirishga qaratilgan aloqa jarayonining natijasidir. [2] Endilikda ijtimoiy muhitda yangi axborot jamiyatini yaratish maqsadi muloqot jarayoniga o‘ziga xos xususiyatlar va ta’limda o‘zgarishlarni olib keldi.

Axborotning qimmatliligi shaxsning sub’ektiv xulq-atvoriga ega ekanligi bilan izohlanadi. Agar inson maqsadiga yerishsa, u holda foydalanilgan axborot e’tiborga olinmaydi va o‘z qiymatini yo‘qotadi. Shuni ham yodda tutish kerakki, qadriyatlar turlicha. Axborotlashgan jamiyat rivojlanishining muhim qismi sifatida quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi: maqsadga erishish uchun axborotni tanlash imkonini beruvchi axborotning qiymati; ma’lum bir vaziyatga bo‘lgan ehtiyojni belgilaydigan ma’lumotlarning foydaliligi; ma’lum vaqt davomida ma’lumotlarning buzilishi. [3] Ta’lim va tarbiya jarayoniga ma’naviy tarbiyaning ta’sirchanligi milliy axborot kishilarning asosiy resursi, asosiy qadriyatiga aylansa ta’limda ma’naviy tarbiya milliy axborotning samarasini ortadi.

Yapon olimi Y.Ma’suda “Axborotlashgan jamiyat insoniyatning eng ulkan yutuqlaridan biri, -deb yozadi. Yangi texnologiyalarning rivojlanishi ijtimoiy hayotning o‘ziga xos ijobiy o‘zgarishiga olib keladi. Axborotlashgan jamiyatda insoniy qadriyatlar o‘zgaradi. Bu jamiyat sifatsiz va ziddiyatsiz bo‘lib, uni kichikroq davlat apparati boshqaradi.” Hozir va kelajakda yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirish jamiyat oldida turgan eng muhim vazifadir. Axborot madaniyatiga ega bo‘lgan bilimli shaxs zarur axborotni topa olishi, baholay olishi va undan unumli foydalana olishi,

axborotni saqlashning an'anaviy va avtomatlashtirilgan texnik vositalaridan foydalana olishi kerak.[4]

Ta'lim va tarbiya jarayoniga ma'naviy tarbiyaning ta'sirchanligi milliy axborotning tasiri shaxs xulq-atvori, axborot bilan ishlash qobiliyati va ko'nikmalarini aks ettiradi, o'z axborot maydonini va xatti-harakatlarini tartibga solish va tahlil qilish imkonini oshiradi. Ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, atrof-muhitni muhofaza qilishni moliyalashtirish yaxshi natijalarga erishishga yordam beradi. Fuqarolarning davlat organlari bilan aloqasini elektron platforma orqali aloqaga o'tkazish, ya'ni davlat o'z fuqarolari uchun elektron xizmatlar ko'rsatishi va elektron mahsulotlarni taklif etishi – bu raqamli iqtisodiyotning asosiy qismi hisoblanadi.

Mamlakatimizda ushbu sohani keng rivojlantirish Prezidentimiz ta'kidlaganidek, bizdagi eng asosiy og'riqli muammolardan biri-korruptsiya illatiga barham beradi.[5] Jamiyat taraqqiyotining turli sohalaridagi tub o'zgarishlar axborot va axborot xizmatlari bilan chambarchas bog'liq. Ta'limni axborotlashtirish jarayoni iqtisodiy, texnologik, siyosiy va madaniy rivojlanish imkoniyatlarini keng ohib beradi. O'zbekistonda qator Sharq mamlakatlari kabi qaror topadigan jamiyatning modeli jamoaviylik va undan kelib chiqadigan milliy axloqqa asoslanadi. Shu sababli axborotlashgan jamiyat rivojida ma'naviy tarbiya, milliy-axloqiy masalalarni tadqiq qilish dolzarb vazifa sifatida e'tirof etilmoqda".[7]

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).

Ta'lim va tarbiya jarayoniga ma'naviy tarbiyaning ta'sirchanligini oshirish milliy axborot orqali, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari XXI asrda jamiyat taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim yo'nalishlardan biridir. Ularning ta'siri nafaqat inson hayotiga, balki insoniyat jamiyatining barqaror va faol rivojlanishiga ham juda katta ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlangan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarish" [8] muhim ahamiyatga ega.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi zamonaviy yutuqlar hayotimizda “global axborot jamiyat” deb ataladigan yangi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy munosabatlarning vujudga kelishiga olib keldi.

J.Yaxshilikov fikricha, “Hamma narsaning yaxshi va yomoni bo‘lganidek, bu qulayliklar bilan birga internetdan samarali va maqsadli foydalanuvchilardan tashqari undan vaqtini bekorga o‘tkazish, turli ko‘ngilochar hamda behayo saytlardan foydalanuvchilar ham ko‘payib bormoqda”.[9]

O‘zbekiston xalqining iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hayotida demokratik islohotlar chuqurlashib, jamiyatni umumiyligi o‘zgartirish jarayoni uchun shart-sharoitlar barqarorlashtirilmoqda. Axborot almashinushi yangi demokratik imkoniyatlarga, barqaror siyosiy, ijtimoiy va demokratik jarayonlarni qaror toptirishga yo‘l ochadi. So‘z erkinligi, matbuot erkinligi, fikr plyuralizmi va mustaqil xususiy ommaviy axborot vositalarining paydo bo‘lishi O‘zbekiston axborot makonidagi demokratik jarayonlarning natijasi ta’lim va tarbiya jarayoniga ma’naviy tarbiyaning ta’sirchanligi milliy axborot orqali amalga oshirishning imkonini boyitadi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).

Axborotlashgan jamiyat turli g‘oyalalar va ta’limotlarni, bilimlarni, turli sivilizatsiya va qadriyatlarni tahlil qiladi, odamlarning tafakkurini kengaytiradi, muayyan g‘oyalarga e’tiborni qaratadi, ularni chuqurroq anglashga yordam beradi. Iqtisodiyot davlatning tayanchi bo‘lsa, uning milliy ruhi, ongi qalbidir. Jamiyatdagi ijtimoiy institutning o‘ziga xos turi bo‘lgan ommaviy axborot vositalari davlat qalbi orqali butun organizm uchun zarur bo‘lgan oziq moddalarni, fuqarolarning birligi hamda umumiyligi maqsad va manfaatlarini targ‘ib qiladi. Busiz mustaqil davlatning kelajagini bashorat qilish qiyin. Ayni paytda O‘zbekiston nafaqat iqtisodiy manfaatlar nuqtai nazaridan, balki strategik, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy, ta’lim tarbiya jihatdan ham jahon hamjamiyatining e’tiborini tortmoqda.

Ommaviy axborot vositalari orqali odamlar ijtimoiy normalarni, axloqiy va axloqiy qadriyatlarni idrok etadilar, hayotiy tamoyillarni shakllantiradilar. Ommaviy axborot vositalari jamiyatda kechayotgan jarayonlarni yoritish orqali jamoatchilik

fikrini shakllantiradi. U jamoatchilik fikrini shakllantiradi va ijtimoiy jarayonlarni boshqarish va qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Ommaviy axborot vositalari ijtimoiy rivojlanish va jamiyat talablariga muvofiq qadriyatlarni shakllantiradi, axborot sohasidagi axborot ehtiyojlarini ta'minlaydi. Shuning uchun ham ommaviy axborot vositalari faoliyati va axborotni ishlab chiqarish, iste'mol qilish va tarqatishdagi axborot munosabatlariga ijtimoiy mas'uliyat yuklanadi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).

Ta'lim va tarbiya jarayoniga ma'naviy tarbiyaning ta'sirchanligini oshirish shaxsning axborot madaniyatining shakllanishi uning axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirish, muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, jamiyat hayotida faol ishtirok etishini ta'minlaydi. Ta'lim va tarbiya jarayoniga ma'naviy tarbiyaning ta'sirchanligi milliy axborot orqali samaradorligini oshirish bugungi zamonda ommaviy axborot vositalari shaxs va davlat hayotida asosiy o'rinda turishini xisobga olib ijtimoiy tuzilmada axborot jamiyatning muhim ijtimoiy quroli hisoblanadi. Ta'lim va tarbiya jarayoniga ma'naviy tarbiyaning ta'sirchanligini milliy axborot orqali targ'ibot qilish, ijtimoiy jihatdan ta'sirchan video roliklarni ajdodlarimiz o'gitlari, ma'noli so'zlarini, hayotiy rivoyat shaklida ta'lim oluvchilarga yetkizish ma'naviy tarbiyaning tasirchanligini oshiradi, ta'lim olishga qiziqish imkonini zamonaviy yo'l bilan oshirishga xizmat qiladi. Ma'naviy tarbiyani ta'lim oluvchining qiziqishlariga qarab yondoshish ta'limda tarbiyaning samaradorligini oshishi va tajribalarning samaradorligi ortishiga sabab bo'ladi.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /
REFERENCES)**

1. Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество: опыт социального прогнозирования. Пер. с англ. В. Л. Иноzemцева. – М.: Academia, 1999. – 956с.
2. Уэбстер Ф. Теории информационного общества. – М.: Аспект-пресс, 2004. – 400 с.
3. Килимова Л.В. Роль информационных технологий в саморазвитии личности: научное издание. – Курск, – 63 с.
4. Masuda Y. Managing in the information Society: Releasing synergy Japanese style. Oxford, 1990. P. 44.
5. Зиновева Н.Б. Информационная культура личности: Введение в курс / под ред. И.И. Горловой. – Краснодар, – 135 с.
6. <https://strategy.uz/index.php?news=787>
7. Karimova G.A. O‘zbekistonda axborotlashgan jamiyat shakllanishining milliy-axloqiy jihatlari Fan doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2020. –b.5.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga Muraajotnomasi. 24.01.2020 yil. <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>.
9. Yaxshilikov J.Ya, Muhammadiev N.E. Milliy g‘oya: O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Toshkent. Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018. B 503-504.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14251739>

KLINIK TIBBIYOTDA PROGNOZ

Uraqov Shokir Ulashovich

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti, O‘zbekiston

shokiruraqov74@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada prognozlashning klinik tibbiyotdagi ahamiyati ochib berilgan. Prognozlashning asosiy turlari va usullari hamda ishonchli prognozni olish shartlari ko‘rib chiqiladi. Klinik tibbiyotda prognozlashdan foydalanishga ba’zi misollar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: prognoz; tibbiy prognoz; bashorat qilish.

Tibbiy yoki klinik prognoz patologik jarayonlarning qonuniyatları va kasallikning borishi haqidagi bilimga asoslangan kasallikning ehtimoliy rivojlanishi va natijalarini bashorat qilish sifatida talqin etiladi; prognoz shuningdek, tashxis sifatida aniqlanadi. Klinik amaliyotda prognozning ahamiyati zamonaviy tibbiyotning asosiy maqsadlari - kasalliklarning oldini olish va bemorlarni davolash bilan belgilanadi. Shuning uchun tibbiy prognozning ikki turi mavjud: kasallikning yuzaga kelish ehtimoli proqnozi va kasallikning rivojlanish proqnozi, ya’ni bemorning asoratlari, o‘limi yoki tiklanish ehtimolini baholash.

Birinchi proqnoz atrof-muhitning turli salbiy omillari, mehnat, ishlab chiqarish va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, turmush sharoiti, yomon odatlar, irsiyatning inson salomatligi uchun xavfliligini baholash, tabiiy ofatlar va favqulodda vaziyatlar oqibatlarini tahlil qilishga asoslanadi. Profilaktik chora-tadbirlarni rejalashtirish ushbu proqnozga bog‘liq. Ikkinci proqnoz bemorlarda patologik alomatlar va kasallik sindromlarini aniqlashga, turli kasalliklar va patologik jarayonlarda organlar va tizimlarning ishlash modellarini tahlil qilishga asoslangan. Davolash choralarini rejalashtirish ushbu proqnozga bog‘liq.

Prognozlash - bu klinik tibbiyotning ancha murakkab sohasi. Prognozni tuzish mantig‘i diagnostik bilimlar mantig‘idan sezilarli darajada farq qiladi. Kasallikni aniqlash uchun shifokor bemorni tekshiradi, simptomlarni qayd qiladi va ularning kombinatsiyasi, sabablari va paydo bo‘lish ketma-ketligi va boshqa xususiyatlardan kelib chiqib, patologik jarayonning tabiatini haqida xulosa chiqaradi. Matematik tilda tashxis qo‘yish muammoi yagona to‘g‘ri echimga ega.

Prognoz bilan vaziyat butunlay boshqacha. Bu muammoni hal qilishning ko‘plab usullari mavjud va shifokor barcha mumkin bo‘lgan stsenariylarni oldindan ko‘rishi, bemorning ahvoli qanday o‘zgarishi mumkinligini aniqlashi kerak: agar davolanish umuman amalga oshirilmasa, an’anaviy terapiya usullari qo‘llanilsa, dori shunga o‘xhash bilan almashtirilsa. . Bundan tashqari, har bir alohida holatda bemorning umumiyligi holatini, uning yosh xususiyatlarini, birga keladigan kasalliklarni, irsiy omillarni, yomon odatlarni, turmush sharoitini, ishini hisobga olish kerak. Klinik amaliyotda yuzaga keladigan har bir aniq bemor bilan bog‘liq barcha masalalarni sanab o‘tish qiyin va har bir aniq vaziyatda kasallikning borishini belgilovchi barcha omillar va naqshlarni hisobga olish yanada qiyinroq. Turli xil qarorlardan shifokor har bir alohida holat uchun eng mos variantni tanlashi, undan barcha mumkin bo‘lgan og‘ishlarni va ularni oldini olish usullarini o‘ylab ko‘rishi kerak. Shifokorning har bir harakatidan oldin uning choralarini natijalari haqida bashorat yoki taxmin mavjud. Zamонавиғ тиббиётда прогнознинг исхончлигиги, биринчи навбатда, касалликнинг аниқ ташхисига bog‘liq. Ba’zida, ayniqsa qiyin holatlarda, tashxisni to‘g‘ri aniqlash mumkin emas, keyin hech qanday prognoz haqida gap bo‘lishi mumkin emas.

Ishonchli prognozni olish uchun eng muhim, bemorning ahvoli kelajakda qanday o‘zgarishi yoki o‘zgarishi mumkinligini taxmin qilish imkonini beradigan muayyan kasallikning kechishi va natijalari to‘g‘risidagi ilmiy bilimdir. Ilm-fanda hozirda ma’lum bo‘lgan barcha kasalliklar, ularning shakllari va bosqichlari, sabablari, rivojlanish mexanizmlari, mumkin bo‘lgan natijalar, davolash va tiklanish belgilari haqida ma’lumotlar mavjud. Muayyan kasallikning etiologiyasi va patogenezini bilish, shuningdek, tegishli terapiya usullarini qo‘llash bizga yanada ishonchli va ishonchli prognoz qilish imkonini beradi.

Tibbiyotda prognozlash usullari doimiy ravishda ishlab chiqilmoqda va takomillashtirilmoqda. Prognozlashning empirik usuli Gippokrat davriga borib taqaladi. U ikkita hodisa o‘rtasida o‘xshashlikni o‘rnatishga asoslangan. Zamonaviy usullar matematik ma’lumotlarni tahlil qilishga asoslangan va kompyuter yordamida amalga oshiriladi. Ko‘pincha, tibbiyotda prognozlash muammolarini hal qilish uchun juda yuqori aniqlik bilan ajralib turadigan diskriminant tahlili qo‘llaniladi. Diskriminant tahlil - bir vaqtning o‘zida bir nechta belgilarga ko‘ra ob’ektlar guruhlari orasidagi farqlarni o‘rganish imkonini beruvchi statistik usul.

Fisher mezonini hisobga olgan holda klinik va laboratoriya ma’lumotlarining diskriminant tahlilidan foydalangan holda, yoshlarda o‘tkir o‘pka yallig‘lanishining og‘irligini baholash va bashorat qilish uchun matematik modelga kiritilgan o‘nta eng informatsion ko‘rsatkich aniqlandi.

Psixiatriyada vahima buzilishini bashorat qilish taklif qilingan. Prognozlash usuli xavf omillarining diskriminant tahliliga asoslanadi, ular uchun xavf omillari to‘plami va ularning gradatsiyasi aniqlanadi, xavf omillarining bashoratli qiymati aniqlanadi va chiziqli diskriminant tenglamalari olinadi.

Jigarning yopiq shikastlanishi natijalarining prognozini matematik modellashtirish uchun Fisherning ko‘p chiziqli diskriminant tahlili qo‘llanildi, uning davomida eng informatsion xususiyatlarni tanlash uchun o‘zgaruvchilarni kiritish uchun bosqichma-bosqich protsedura bajarildi. Mustaqil o‘zgaruvchilar qiymatlariga qarab yopiq jigar shikastlanishi bilan omon qolish ehtimoli ikkilik logistik regressiya yordamida aniqlandi.

Korrelyatsiya va regressiya tahlili prognozlashda kam ahamiyatli emas. Bu o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish, bu munosabatlarning yaqinligi va shaklini aniqlashning statistik usuli. Ushbu usul bolalar o‘limini, surunkali buyrak etishmovchiligining rivojlanish vaqtini va rivojlanish tezligini, yuqori nafas yo‘llarining endoekologiyasining prenozoologik kasalliklarini shakllantirish ehtimolini bashorat qilish uchun taklif etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Safarov T. S. et al. Methods and Models of a Multifunctional System Support for Decision Making for Differential Diagnosis of Diseases //International Journal. – 2020. – Т. 9. – №. 3.
2. Zaynidinov H. N., Yusupov I., Urakov S. U. Application of Haar Wavelets in Problems of Digital Processing of Two-Dimensional Signals //Automatics & Software Enginery. 2019. N2 (28). – 2019. – С. 18.
3. Сафаров Т. С. и др. Модульный принцип разработки многофункциональной экспертной системы для дифференциальной диагностики болезней //Вопросы науки и образования. – 2019. – №. 28 (77). – С. 103-109.
4. Ураков Ш. У. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДОВ ГЕОМЕТРИЧЕСКОЙ АКУСТИКИ УЛЬТРАЗВУКОВЫХ ВОЛН МАЛОЙ ДЛИНЫ //Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 3. – С. 66-69.
5. Содиков Н. О., Ураков Ш. У. АКУСТИЧЕСКОЕ ТЕЧЕНИЕ И КАВИТАЦИЯ УЛЬТРАЗВУКОВЫХ ВОЛН В ЖИДКОСТЯХ //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 32. – С. 134-139.
6. Ураков Ш. У. СОЗДАНИЕ БАЗЫ МЕДИЦИНСКОЙ ИНФОРМАЦИИ В СИСТЕМЕ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 27. – С. 86-90.
7. Ураков Ш. У. МОДУЛЬНЫЙ ПРИНЦИП РАЗРАБОТКИ ЭКСПЕРТНОЙ СИСТЕМЫ ДИАГНОСТИКИ ЗАБОЛЕВАНИЙ //ACTIVE RESEARCHER. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 4-10.
8. Ураков Ш. У. и др. ПРОВЕДЕНИЕ ЦИФРОВОЙ РАБОТЫ СИГНАЛОВ БИОМЕДИЦИНЫ ПРИ ПОМОЩИ ВЕЙВЛЕТОВ ХААРА И ДОБЕШИ //Биология ва тиббиёт муаммолари. – 2020. – №. 6. – С. 118-122.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14251751>

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SON SO‘Z TURKUMINING O‘RGANILISHI

Aliboyeva Fazilat

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich ta’lim fakulteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 201-guruh talabasi

M.A.Hamrayev

Ilmiy rahbar: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich fakulteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

E-mail: m.a.hamrayev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola boshlang‘ich sinflarda son so‘z turkumini o‘rgatish va o‘quvchilar o‘rganishidagi muammolarni ko‘rib chiqadi. Son so‘z turkumi o‘quvchilar uchun grammatik bilimlarni egallashda muhim rol o‘ynaydi, chunki bu turkum so‘zlari orqali tartib va miqdorlar ifodalanadi. Maqolada son so‘z turkumini o‘quvchilarga qay tarzda o‘rgatilishi haqida misollar keltirib o‘tilgan. Maqola boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun son so‘z turkumini o‘rgatish jarayonini samarali o‘tkazishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Son so‘z turkumi, ohang, sanoq son, tartib son, darslik.

Аннотация. В данной статье рассматриваются проблемы преподавания числовой лексики и обучения учащихся в начальных классах. Группа слов-числа играет важную роль в усвоении грамматических знаний учащихся, поскольку порядок и количество выражаются через слова этой группы. В статье приведены примеры обучения учащихся группе слов-числа. Статья помогает эффективно проводить процесс обучения числовой лексике учителей начальных классов.

Ключевые слова: Числовая группа слов, тон, счетное число, порядковый номер, учебник.

Abstract. This article examines the problems of teaching and learning number vocabulary in primary grades. Number vocabulary plays an important role in the acquisition of grammatical knowledge for students, since order and quantity are expressed through this vocabulary. The article provides examples of how to teach number vocabulary to students. The article will help primary grade teachers effectively conduct the process of teaching number vocabulary.

Key words: Number word group, tone, count number, order number, textbook.

Boshlang‘ich sinflarda son so‘z turkumini o‘rgatish o‘quvchilarga o‘z nutqida sonlarni mustaqil, to‘g‘ri qo‘llay olish, og‘zaki va yozma nutqda bexato va o‘rinli ishlatish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Boshlang‘ich ta’limda son uch yo‘nalishda o‘rganiladi:

1. Sonlarning talaffuzi va ma’nosi ustida ishlash.
2. Sonning grammatik shakllari ustida ishlash.
3. Sonlarning imlosi ustida ishlash.

Son boshlang‘ich sinflarda quyidagi izchillikda o‘rganiladi:

- 2-sinfda nechta?, qancha? so‘roqlariga javob bo‘lib, shaxs va narsaning sanog‘ini, nechanchi? so‘rog‘iga javob bo‘lib, shaxs va narsaning tartibini bildirishi;
- 3-sinfda „Son – so‘z turkumi” tushunchasi kiritiladi. O‘quvchilarda son predmetning miqdorini bildirishini otga bog‘lanib kelishi yordamida aniqlash ko‘nikmasi o‘stiriladi. Bularni o‘rganishda sonning leksik xususiyatlariga asoslaniladi. Sonning leksik ma’nosi uni ot bilan bog‘liq holda o‘rganishni taqozo etadi.
- 4-sinfda sanoq va tartib sonlar, tartib sonlarning harf, rim va arab raqamlari bilan yozilishi, qo‘sish undoshli sonlarning, grammatik shakllangan sonlarning (ikkov, o‘ntacha, beshtadan) imlosi, sonlarning gramm, kilogramm, metr, litr, so‘m, tiyin so‘zлari bilan qo‘llanishi va shu so‘z bilan bitta so‘roqqa javob bo‘lishi o‘rganiladi. O‘quvchilaming sonlarni otga bog‘lanishi, so‘roqlar yordamida sonni o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chirish ko‘nikmalari o‘stiriladi.

Birinchi sinflarda son so‘z turkumi “Shaxs va narsaning miqdorini va tartibini bildirgan so‘zlar” deb berilgan.O‘quvchilar uchun dastlabki tushunchalar sonlarni o‘qib so‘roq berish, she’r va matnlar orqali “ necha?” yoki “nechanchi?” so‘roqlariga javob bo‘ladigan so‘zlarni topish, sonlarni so‘z bilan yozish kabi mashqlarda berilgan bo‘lib qoidalar ham o‘quvchilar uchun tushunarli va eng sodda shaklda berilgan.Son so‘z turkumi haqidagi dastlabki tushunchalardan so‘ng sanoqni va tartibni bildirgan so‘zlar alohida-alohida mavzularda berilgan.

1-sinf 2017-yil 78-sahifa .

Shaxs va narsaning miqdorini bildirgan so‘zlar necha? yoki nechta? so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

79-sahifa.

Shaxs va narsaning tartibini bildirgan so‘zlar nechanchi? so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

Son so‘z turkumi shaxs va narsaning miqdori va tartibini bildirgani haqidagi boshlang‘ich tushunchalar birinchi sinfda berilgan bo‘lsa ikkinchi sinfga kelib bu ma’lumotlar to‘ldiriladi.Ikkinchi sinfda ham son so‘z turkumi “Sanoqni va tartibni bildirgan so‘zlar” deb o‘rgatiladi.

2-sinf 2018-yil 111-sahifa.

Shaxs va narsaning sanog‘ini bildirgan so‘zlar nechta? qancha? so‘roqlariga javob bo‘ladi.

Narsa va shaxsning tartibini bildirgan so‘zlar nechanchi? So‘rog‘iga javob bo‘ladi.

Miqdorini va tartibini bildirgan so‘zlar ikkinchi sinfda yaxlit bir mavzuda berilgan.Shuningdek darslikda son so‘z turkumiga oid so‘zlar qatnashgan qiziqarli matnlar, she’rlar va topishmoqlar berilgan.

Uchinchi sinfda son bevosita so‘z turkumi sifatida keltirilgan.O‘quvchilar uchinchi sinfdan boshlab shaxs va narsalarning miqdorini va tartibini bildirgan so‘zlar son so‘z turkumiga oid so‘zlar ekanligini bilishadi.Bu sinfda avvalgi sinflardagi ma’lumotlar mustahkamlanib o‘quvchilarga kengroq ma’lumotlar beriladi.

3-sinf 2016-yil 104-sahifa.

Shaxs va narsalarning sanog‘ini bildirgan so‘zlar son deyiladi. Sonlar necha? nechta? qancha? so‘roqlariga javob bo‘ladi: nechta?(daftar)- o‘nta daftar, necha? (kun)-besh kun.

105-sahifa. Sonlar narsalarning joylashish tartibini ham bildirib, n e c h a n c h i ? so‘rog‘iga javob bo‘ladi: n e ch a n c h i (xona) — yettinchi xona, n e c h a n c h i ? (qavat) — to‘rtinchi qavat. To‘rtinchi, yettinchi Sonlari tartib sonlardir.

Sanoq sonlarga -inchi (-nchi) qo‘sishchasi
Qo‘sish bilan tartib son hosil qilinadi: oltmis —
Oltmishinchi, yetti —yetinchi.

106- sahifa Sonlar aytiladi va yoziladi. Sonlar ikki xil yoziladi.
Harflar bilan: uch soat, besh kishi.
Raqam bilan: 3 soat, 5 kishi.

Tartib sonlar raqam bilan yozilganda -inchi
(-nchi) qo‘sishchasi o‘rnida chiziqcha (-) ishlataladi: to‘qqizinchi dekabr — 9- dekabr,
qirqinchi xonadon — 40- xonadon.

Ularga qo‘sishcha tarzda sonlarning aytilishi va yozilishi alohida mavzu sifatida berilgan.

4-sinf 2017-yil 134-sahifa. Sonlar yozuvda uch xil ifodalanadi:
1. Harfiy ifoda bilan: to‘rtinchi sinf, oltinchi uy.
2. Arab raqami bilan: 2003- yil 1- sentabr.
3. Rim raqami bilan: IV sinf, XXI asr.

138-sahifa.

Sonni tahlil qilish tartibi:

To‘rtinchi sinf darsligida sonlar qatnashgan ko‘pgina matnlar bilan birgalikda sonni tahlil qilish tartibini ham ko‘rishimiz mumkin.
132-sahifa.
Sonni tahlil qilish tartibi:
1. So‘rog‘i, turkumi. 2. Ma’no turi. 3. Asos va qo‘sishchasi. 4. Qaysi so‘zga bog‘langan. 5. Nima vositasida bog‘langanligi. 6. Gapdag‘i vazifasi.

N a m u n a : to‘rtinchi — n e c h a n c h i ?, son, tartib
Son, to‘rt — asos, -inchi — tartib sonning qo‘s Shimchasi,
Sinf so‘ziga (otga) ohang yordamida bog‘langabn, ikkinchi
Darajali bo‘lak vazifasini bajargan.
Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf darsligida son so‘z turkumi mantiqiy bog‘liqlik bilan izchillik asosida o‘rgatiladi.O‘quvchilarda zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish o‘qituvchining pedagogik mahoratiga bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. K.Qosimova, S.Matchonkov, X.G‘ulomova, Sh.Yo‘ldosheva. Ona tili o‘qitish metodikasi. 2009.261-bet.
- 2.T.G‘afforova, E.Shodmonov, X.G‘ulomova.1-sinf ona tili darslik.2017.Toshkent."Sharq".
3. K.Qosimova, S.Fuzailov, A.Ne’matova. 2-sinf ona tili darslik.2018.Toshkent."Cho‘lpon".
4. S.Fuzailov, M.Xudoyberganova, Sh.Yo‘ldosheva. 3-sinf ona tili darslik.2016.Toshkent."O‘qituvchi".
5. R.Ikromova, X.G‘ulomova, Sh.Yo‘ldosheva, D.Shodmonqulova. 4-sinf ona tili darslik.2017.Toshkent."O‘qituvchi ".

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14251759>

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA DIDAKTIK O‘YIN VA METODLARDAN FOYDALANISHNING O‘RNI

Abdullayeva Zuhra

Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang‘ich ta’lim fakulteti
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 201-guruh talabasi

Hamrayev.M.A

Ilmiy rahbar: Nizomiy nomidagi TDPU
Boshlang‘ich ta’lim fakulteti dostenti, filologiya fanlari nomzodi
E-mail: m.a.hamrayev@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda ona tili darsini o‘tishda turli xil metod va didaktik o‘yinlardan foydalanishning ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Metod, didaktika, o‘yin, usul, ta’lim, dars, sinf, ta’lim jarayoni, interfaol metod.

Аннотация: В данной статье раскрывается важность использования различных методов и дидактических игр при обучении родному языку в начальных классах.

Ключевые слова: Метод, дидактика, игра, метод, обучение, урок, класс, учебный процесс, интерактивный метод.

Abstract: This article reveals the importance of using various methods and didactic games when teaching the native language in primary school.

Key words: Method, didactics, game, method, training, lesson, class, educational process, interactive method.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim sohasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki, Ta'lim - dunyoni qutqaruvchi eng kuchli quroq hisoblanadi.

Dunyo pedagogika sohasidagi yetuk olimlarning fikricha, Bolaning bilim olishda eng muhim davr bu-boshlang'ich ta'limdir.

Shu sababli boshlang'ich sinflarda o'tiladigan darslar, mavzular o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida ahamiyatga ega.

Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev ham o'z nutqlaridan birida

"Agar mendan sizni nima qiynaydi? - deb so'rasangiz farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi"- deb javob bergen ekanlar.

Chunki ularning zaminida savodxonlik va axloqiy ta'limiy tarbiya asoslari turadi.

Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim darslariga o'quvchilarni qiziqishini oshirishga katta e'tibor berish kerak.

Chunki bolalar boshlang'ich sinfdaligidanoq "DARS" degan so'zdan bezib qolmasliklari lozim. Sababi dars boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun asosiy faoliyatlaridan biri hisoblanadi.

Buning oldini olish uchun hozirgi kunda tajribali, mahoratli o'qituvchilar o'quvchilarni darsga yanada qiziqtirish uchun turli xil metod va didaktik o'yinlardan foydalanishmoqda.

Metod -bu (yunoncha "metodos"- bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot) Voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l yo'riqlar, usullar majmuasi hisoblanadi.

Metodlardan har qanday dars jarayonida, mavzuga qarab, tanlab foydalanish mumkin.

Ona tili darslarini tashkil etishda va uni yanada qiziqarliroq bo'lishi uchun turli xil metodlardan ham foydalanishimiz mumkin. Bu vaqtgacha yani XX asrning oxirlarigacha o'qitish metodlari bo'lib kelganlar: tushuntirish metodi, bayon metodi, besh barmoq metodi, suhbat metodi, analiz-sintez metodi,

Induktiv va deduktiv metodi va boshqa metodlardan foydalanilgan.

Bundan tashqari ona tili darslarida didaktik o‘yinlardan ham faol qo‘llanilgan. Didaktika-bu "o‘rgatuvchi"," ta’lim beruvchi" degan ma’nolarni bildiradi. Didaktika atamasi birinchi marta XVII asrda ishlatila boshlangan
Didaktik o‘yinlarni darsda qo‘llash o‘quvchilarda aqliy, jismoniy, psixologik, estetik va boshqa ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Didaktik o‘yinlarga:

Aqliy hujum

BBB

Klaster

A4

Va boshqalar kiradi

Darsda didaktik interfaol metodlardan foydalanishmiz ham mumkin.

Bu ta’lim jarayonida ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali bilimlarni o‘zlashtirishni kafolatlash, Shaxsiy xarakterini rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ushbu usullarni qo‘llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi va uning asosiy maqsadi-norasmiy bahs munozaralar o‘tkazish, mavzuni erkin gapirish, mustaqil o‘qish, o‘rganish, bor mahoratini ko‘rsata bilish, kichik-katta guruh bilan ishslash, vazifalar berish va boshqalardan iborat.

Ona tili darslarida o‘quvchilarga tushuntirish qiyinroq bo‘lgan mavzularni ta’limiy didaktik o‘yinlar orqali tushuntirishimiz mumkin.

Misol uchun,"Davom ettir" o‘yini.

Bunda bir o‘quvchi ona tiliga oid atama aytadi. Ikkinci o‘quvchi aytilgan atamaning oxirgi harfiga boshqa bir atama aytadi va bu o‘yin o‘quvchilar soni tugaguncha davom etadi.

Masalan: To‘ldiruvchi-inkor-ravish-shaxs-son va hokazo.

Bu metod va didaktik o‘yinlarni dars davomida qo‘llash orqali darsni yanada qiziqarli o‘tishi,hamda darsga qiziqmaydigan va qatnashmaydigan o‘quvchilarni ham o‘yin orqali darsga qiziqtirib, mavzuni sekin-asta o‘zlashtirishni ta’minalash mumkin.

Har bir ta’limiy vazifani bajarishda aniq va ilmiy metodik usullar mavjud va ular turli xil zamonaviy usullar bilan ko‘paymoqda.

Ona tili inson hayotida katta ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘rgatish orqali bilim berish bilan birga o‘quvchining shaxsini tarbiyalab, uning qalbida o‘z ona tiliga, yurtiga mehrini uyg‘otish va uni yanada mustahkamlash mumkin. Masalan,

1-4-sinf Ona tili darsliklaridagi berilgan qisqa matn va hikoyalar bolaga yaxshilik va yomonlikni farqlay olish, haqiqat vaadolat uchun kurashish kabi his tuyg‘ularni uyg‘otadi.

XULOSA

Shuni ta’kidlash kerakki har bir pedagog ya’ni o‘qituvchi har bir darsda qandaydir metod yoki didaktik o‘yinni qo‘llashdan oldin rejalashtirib, mavzuga moslab tayyor bo‘lib kelishi kerak.

Didaktik o‘yinlardan keng foydalanish an’analari o‘qituvchilarning amaliy tajribalari va olimlarning ishlarini keng rivojlantirmoqda.

Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarda faqatgina o‘yin faoliyatiga qiziqishini emas, balki o‘yin orqali so‘z boyligini oshirishga, lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishga, nutqini o‘sirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirzoyoyev nutqi "Xalq so‘zi" gazetasi.
2. A.I Hayitov Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi innovatsiya va integratsiyasi(uslubiy qo‘llanma)
3. N.N.Ne’matova "Guruhlarni tashkil etishning interfaol metodlari"
4. Abdullayeva Z.A "Boshlang‘ich ta’lim konsepsiysi"
5. Bo‘ranova Sh "Ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish"

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14251767>

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA ADABIY-NUTQIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IJTIMOIY ZARURAT SIFATIDA

M.I.Yo‘ldosheva

Nizomiy nomidagi TDPU 1-bosqich magistranti

E-mail: rxolmominov2@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida adabiy-nutqiy kompetensiyalar haqida ma’lumot, ularni shakllantirishda zamonaviy raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, texnologik vositalarning ahamiyati, ularning dars jarayoniga tadbiq qilish samaradorligi haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, dars, o‘qituvchi, o‘quvchi, kompetensiya, raqamli texnologiya, kompyuter, metod, vositalar, davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturi.

Abstract: This article provides information about literary and speech competencies in primary school reading literacy classes, the widespread use of modern digital technologies in their formation, the importance of technological tools, and the effectiveness of their application in the teaching process.

Keywords: primary school, lesson, teacher, student, competence, digital technology, computer, method, tools, state educational standards, curriculum.

KIRISH.

Mamlakatimizda bugungi kunda ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish uchun e’tibor yanada oshgan. Xususan ilm-fan sohasiga oid muhtaram Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi” farmoni bunga yaqqol misoldir.

Farmon ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, ularni amalga oshirish mexanizmlari, boshqaruv tizimini takomillashtirish, ilm-fan taraqqiyotiga ko‘maklashadigan zamonaviy axborot muhitini shakllantirish kabi va boshqa yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Farmonda qabul qilingan loyihalar bugungi kunda ham jadal ravishda amalga oshirilayotganini, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan, ta’lim-tarbiya olish uchun yetarli adabiyotlar bilan to‘ldirilgan maktablarimiz, oly ta’limlarimiz misolida ko‘rshimiz mumkin.

Ta’lim-tarbiya haqida so‘z ketar ekan, boshlang‘ich ta’lim so‘zning boshida keladi. Zotan “Yangi O‘zbekiston-maktab ostonasidan boshlanadi” degan ezgu g‘oya bejiz aytilmagan, boshlang‘ich ta’lim barcha sohaning poydevori hisoblanadi. Chunki bola o‘qishni, yozishni, hat-savod chiqarishni, olamni bilishni shu davrda o‘rganadi. Bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim sohasida ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda turli xil innovatsion yondashuvlarga asosan, davlat ta’lim standartlari va ishlab chiqilgan o‘quv dasturlariga muvofiq darslar zamonaviy texnologiyalar orqali olib borilmoqda. Bularning barchasi ta’lim jarayonimizning yanada rivojlanishiga hissa qo‘shmoqda.

Bilamizki, boshlang‘ich ta’lim fanlari ishlab chiqilgan davlat ta’lim standartlari va o‘quv darsturlari asosida o‘tiladi. Ma’lumki, Davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarida fanlarga oid bir qator kompetensiyalar ishlab chiqilgan. Dasturda fanlarni chuqurlashtirilib o‘qitiladigan 1-2-3-4-sinflar uchun mavzularga ajratilgan soatlar va kompetensiya elementlari alohida ko‘rsatilgan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tayanch va fanga oid adabiy-nutqiy va badiiy asarlarni tahlil qilish kompetensiyalarining shakllantirilishi ham dasturda belgilab berilgan. O‘zbekiston Respublikasida ta’limning uzluksizligi, uzviyligi, o‘quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda o‘qish fanidan bir qator tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi. Tayanch kompetensiyalariga quyidagilar kiradi: kommunikativ kompetensiya, axborotlar bilan ishlash kompetensiysi, o‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiysi, ijtimoiy faol fuqarolik komptensiysi, milliy va umummadaniy kompetensiya, matematik

savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi. Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida har bir sinfga va har bir sinfning bo‘limlariga doir fanga oid kompetensiyalari ham mavjud. Bularga: adabiy-nutqiy kompetensiyasi va badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi kiradi.

METODOLOGIYA.

Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida adabiy-nutqiy kompetensiyani shakllantirishda turli xil raqamli texnologiyalardan, zamonaviy metodlardan foydalanishimiz mumkin. Adabiy–nutqiy kompetensiyalarini o‘rganib, tahlil qilib dars davomida, maktab faoliyatida ulardan oqilona to‘g‘ri foydalana olish ta’lim samaradorligini oshirishda katta yordam beradi.

Adabiy-nutqiy kompetensiyasi (tinglab tushunish, fikrni og‘zaki bayon qilish, o‘qish, fikrni yozma bayon qilish). Hikmatli gap, hikoya, she‘r va ixcham audio matnlarni tinglab tushuna olishi; ularni ongli, ifodali, to‘g‘ri o‘qiy olishi; o‘qilgan matnlarning mazmunini tushuna olishi; ularning mazmunini qisqartirib, fikrni og‘zaki bayon qilib bera olishi; ikki va uch bo‘g‘indan iborat soda, kichik matnlarni yoza olishi kiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida raqamli texnologiyalardan mohirona foydalanish orqali o‘quvchilarda adabiy-nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishi mumkinligini bilib oldik. Masalan, 2–sinf o‘qish savodxonligi darsligining 2–qismida keltirilgan Turg‘unboy G‘oyipovning “Sehrli qalam” hikoyasini olsak. Bu asarni o‘rganishda rassomlar haqida, nima uchun ularni “Mohir qo‘llar” deb atashimiz haqida ma’lumot berish zarur bo‘ladi. Bunda televizor orqali rassomlar kimligi va ular qanday ish bilan shug‘ullanishlari haqida ma’lumotlar qo‘yib beriladi. Rassomlarning oddiy bo‘yoqlar bilan turli xil san’at asari yarata olishlarini haqida video namoyish etiladi. Bu orqali o‘quvchilar hikoyani mazmunini anglab yetadilar. Shundan so‘ng birin ketin audiomatnlar qo‘yib eshittiriladi.

MUHOKAMA.

Yuqoridagi asarni zamonaviy texnologik vosita ya’ni televizor orqali o‘quvchilarga qo‘yib eshittirish orqali o‘quvchilarda faol tinglash ko‘nikmasini

shakllantirishimiz mumkin. Avvalo o‘quvchilarga televizorda Turg‘unboy G‘oyipov haqida qisqacha ma’lumot qo‘yib eshittiriladi. Chunki o‘quvchilarning hikoya mualifi haqida ma’lumotga ega bo‘lishlari maqsadga muvofiqdir. Muallif haqida katta ekranda ma’lumotning qo‘yib berilishi o‘quvchilar ongida shu inson haqida bilim shakllanishiga va ko‘z oldilarida yozuvchi gavdalanishiga imkon yaratadi. So‘ngra hikoya so‘zlovchi va asar qahramonlarining ovozida namoyish etiladi. Bu o‘quvchilarda keltirilgan hikoyani jonli tarzda aniqroq tushunishlari uchun yordam beradi. O‘quvchilar hikoyani tinglab bo‘lganliklaridan so‘ng ulardan nimani tushunganliklari, nimani anglaganliklari haqida audiomatn orqali tezkor savol – javob shaklida topshiriq beriladi. Savol – javobda har bir o‘quvchi hikoyadan nimani tushunganini o‘z nutqi, o‘z fikrlari orqali ifodalab berishlari lozim bo‘ladi. Bu texnologik vositani qo‘llab hikoyani tushuntirib dars jarayoniga qo‘llash orqali adabiy – nutqiy kompetensiyaning elementlaridan bo‘lgan: tinglab tushunish, fikrni og‘zaki bayon etish malakasini shakllantirish uchun ham yordam beradi. Adabiy-nutqiy kompetensiyasining boshqa elementlarini shakllantirishni ham shu hikoya asosida ko‘rib chiqsak. O‘quvchilarga o‘qituvchi kompyuter orqali hikoyada keltirilgan Alijon obrazining bolalarga qalamni ko‘rsatib aytgan “ – Bolalar, ko‘ryapsizlarmi, mana bu sehrli qalam. Xoxlagan narsalaringizni qoyil qilib chizib tashlaydi. Qani, aytinglar, nimani rasmini chizib beray?” kabi va “Shoshmanglar, hozir sizlarga otning rasmini chizib beraman” so‘zlarini topib o‘qishlari vazifa qilib beriladi. O‘quvchilarning har biri bu matnlarni hikoyadan topib o‘qib chiqadilar. Keyin o‘qituvchi yana audiomatni orqali o‘quvchilarga hikoyadan olingan xulosa haqida mustaqil o‘z fikrlarini yozma bayon qilishlari uchun topshiriq beradi.

NATIJALAR.

Topshiqlarning asosiy mohiyati o‘quvchilarning xulosa yozishlari huddi kitobdagidek emas, balki o‘z mustaqil tushunchalarini ifodalay olish–olmasliklarini aniqlagan holda baholashdir. Bilamizki, 1–sinfni o‘quvchilar ma’lum miqdorda xat–savodini chiqarib tugatishadi, 2–sinfda esa ular o‘qishga, yozishga unchalik qiynalishmaydi va berilgan topshirilarni ham mustaqil bajara oladilar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni ta'kidlash joizki, o'qish savodxonligi darslari davomida barcha sinflarda zamonaviy texnologik vositalarni qo'llash o'quvchilarning yanada tinglab tushunish ko'nikmlarini shakllantirish, ularning fikrlarini og'zaki mustaqil bayon qilishlari, mustaqil o'qiy olishlari va o'z fikrlarini yozma bayon qilishlari uchun katta yordam beradi.

Bugungi kunda pedagog o'qituvchilarga ham juda katta sharoitlar yaratib berilmoqda. Bu sharoitlardan unumli foydalangan holda darslarni mazmunli va samarali, qiziqarli, tashkillashtirish o'qituvchilar zimmasidagi vazifani naqadar katta ekanligini anglatadi. Bu sababli, o'qituvchilar doimo o'z ustida ishlashi, innovatsion, noan'anaviy, zamonaviy, interaktiv dars usullarini muntazam o'qib va o'rganib borishi, hamda o'quv-tarbiya jarayoniga tatbiq qila olishi kerak. Muhtaram prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek “– Bugungi kunda O'zbekistonning yangi taraqqiyot davri poydevorini yaratyabmiz. Bunda bizning eng yaqin ko'makchilarimiz ustoz va murabbiylar, ilmiy va ijodkor ziyorillardir. – Hammamiz aziz farzandlarimiz hayoti va taqdirini o'qituvchi va murabbiylarga ishonib topshiramiz. Mana shunday beqiyos boylik posbonlari, kelajak bunyodkorlari bo'lgan bu mo'tabar zotlarga munosib hurmat-ehtirom ko'rsatishimiz kerak,” – so'zlari o'qituvchi shaxsiga qanchalik ishonch bildirilayotganining yaqqol misolidir.

Dars jarayonini faqat bir xil tarzda olib borish hozirgi zamon o'quvchilarini juda tez zeriktirib qo'yadi. Shularni hisobga olib, o'quvchilarga dars berishda, adabiy-nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishda ko'proq bahs-munozara, suhbat va amaliy ishlarni dars davomida o'qituvchi kuzatuvi va nazorati ostida olib borilish lozim. Bu borada albatta, raqamlı texnologiyalarning o'rni beqiyosdir. Raqamlı texnologiyalarning o'ziga xos imkoniyatlaridan biri o'quv materiallarini yangilab borish mavjudlidigkeitdir. Shu sababli, keyingi vaqtarda ta'limning barcha sohalarida raqamlı texnologiyalardan foydalanishga asosiy e'tibor qaratilmoqda.

Yuqoridagi fikrlardan ayonki, boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida adabiy-nutqiy kompetensiyalarni shakllantishda raqamlı texnologiyalardan unumli foydalanish o'quvchilarni fanga, darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda samarali

yordam beradi. O‘quvchilarning mavjud axborot manbalaridan eshittirishlarni tinglab, ularni tushunib, gapirib bera olishlarida, davlat ramzlarini turli xil video-roliklar bilan namoyish etish orqali bilib olishlarida, darslikda keltirilgan hikoya, asar, she’rlarni tinglab tushuna olishlarida va badiiy asarlar mazmuniga doir savol-javob o‘tkazishda qiziqarli multfilimlar yordamida zamonaviy televizorlar, multimedia vositalari kabi raqamli texnologiyalarda foydalanish bularga misol bo‘la oladi. Zero bola, nafaqat bola inson shaxsi bir narsani ko‘rsa-eshitsagina ko‘proq xotirasida saqlab qoladi.

XULOSA.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, raqamli texnologiyalardan ta’lim tizimida foydalanish boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarining kelajakda raqamlashgan jamiyatga kirishishi uchun maqsadli jamiyat a’zosi bo‘lishi uchun tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Bu albatta, maktabning ta’lim bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga, qo‘srimcha qiymat yaratishga va o‘quvchilarni ta’limga jalb qilishga, diqqatini qaratishga olib keladi. Bu birinchi navbatda raqobatbardoshlikni oshirsa, ikkinchidan esa ta’lim jarayonini jahon standartlariga moslashtiradi. Zamonaviy pedagog esa raqamli texnologiyalardan to‘g‘ri foydalanish orqali boshlang‘ich ta’lim yoshidagi o‘quvchilarning bugungi ta’lim sifatlariga mos kelishlarini, yutuqlarga erishishlarini va keyinchalik yuqori sinflarda o‘qishlarida, jamiyat hayotiga kira olishlarida muvaffaqiyatlarga erishishlarini kafolatlaydi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, bugungi kun shiddat bilan rivojlanmoqda. Raqamli texnologiyalar esa hayotimizga shunchalik singib ketdiki, bungi kunda kundalik faoliyatimizni balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham atarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Boshlang‘ich ta’limda, nafaqat boshlang‘ich ta’limda balki talimning turli sohalarida va boshqa barcha yo‘nalishlarda faoliyat olib borishda raqamli texnologiyalardan unumli foydalanish davlatimizning yanada yuqori marralarni zabt etishida xizmat qiladi. Xurmatli prezidentimiz ta’kidlaganlaridek “ Har bir soha raqamli texnologiyalar bilan hamohang bo‘lmasa, mamlakat rivojlanmaydi”- so‘zlar bejiz emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Prezident SH.M.Mirziyoyevning 2020-yil 30-oktabr “Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari” muhokamasi bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektoridagi nutqidan.
2. Prezident SH.M.Mirziyoyevning 2023-yil 20-dekabrda “Raqamli texnologiyalar vazirligi” da bo‘lib o‘tgan yig‘ilishdagi nutqidan.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.10.2020 yildagi, P.F-6097-soni.
4. S.Matchonov va boshq. “Boshlang ‘ich sinf o‘qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish”. Toshkent, “Yangiyul” nashryoti, 2008.
5. Q.Husanboyeva, M.Hazratqulov, Sh.Jamoldinova “Boshlang ‘ich sinflarda adabiyot o‘qitish metodikasi”. Toshkent “Innovatsiya-Ziyo” 2020y.
6. Davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturi. Toshkent, 2017 yil.
7. U.B.Aydarova “O‘qish savodxonligi” umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2 – sinfi uchun darslik. 2 – qism. Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023, 14,15,16-betlar.

Internet saytlari:

1. Yangi O‘zbekiston. <https://yuz.uz>
2. <https://lex.uz>
3. <https://president.uz>
4. <https://cyberleninka.ru>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14251780>

ALBER KAMYUNING "BEGONA" ASARI TAHLILI

Eshdavlatova Lola

Ko‘charova Nilufar

Terdu talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatning eng chirkin holatlarini asar qahramoni nigohida o‘quvchiga ochib berilgan.

Tayanch so‘zlar: "Begona", Alber Kamyu, Merso, ona, ramz, sud, jamiyat, fransuz, syujet, qahramon.

Fransuz yozuvchisi va faylasufi **Alber Kamyu** (1913–1960) o‘tgan asrning 50-yillarida jahon intelligensiyasi tafakkuri va dunyoqarashiga katta ta’sir ko‘rsatgan ijodkorlardan sanaladi."Begona" asari "**Kamyu avlodining eng yaxshi asari**", "asr san’atidagi eng yirik falsafiy asotirlardan biri" deya baholangan. Yaratilganiga 60 yildan ko‘p bo‘lganiga qaramay "**Begona**" hanuz Fransiyada eng sevib o‘qiladigan asarlardan hisoblanadi.

Alber Kamyu absurd(mantiqsizlik)ni, lom-lim demaydigan ulkan koinotni tushunishga hamda ma’no topishga intiladigan odamning qarama-qarshiligi va jiddiy to‘qashuvni deb hisoblagan.“Begona” syujeti va g‘oyasi adibning falsafiy konsepsiyasiga bo‘ysundirilgan. Ikkinci qismda Merso qamoqxonada yotib o‘zining kim bo‘lganini va qanday yashaganini ko‘z oldiga keltirar ekan, birinchi qismdagagi voqealar yana boshqatdan, anglangan holatda ko‘z oldidan o‘tadi. Shunda birinchi qismdagagi o‘zining nomi bilan harakat qilgan kimsa mutlaqo begona bo‘lib ko‘rinadi. Asarning xulosasi ana shu yot va begonalikni anglash bilan yakun topadi. Birinchi qism absurd sharoit, absurd odam, ikkinchi qism esa absurdni anglashga, unga qarshi

kurashishga intilayotgan inson haqida. U o‘zining kimligini, hayotning nimaligini anglaydi, boshidan kechirgan voqealarning bema’niligini his etadi. Bu o‘zining axloqiy qarashlariga ko‘ra dunyo adabiyotida yangi obraz, falsafiy ramz edi.

Syujet nihoyatda qisqa: 1- qismda Merso onasining o‘limi haqida xabar topadi va dafn marosimiga borish majburiyimikan, deya o‘ylay boshlaydi. Ishidan uzoqqa, umuman, po‘rtana sodir bo‘lmaydigan tinch hayotidan ketgisi kelmaydi. Baribir boradi. Onasining muzlagan tanasi oldida tongga qadar butkul boshqa, turmushning mayda-chuyda tashvishlari to‘g‘risida bosh qotiradi. Tongda barcha rasmiy ishlar tugagach, kechani Mari ismli ayol bilan o‘tkazadi. Oraga Raymon degan kimsa qo‘shiladi. Raymon **Mari va Mersoni** dengiz bo‘yida hordiq chiqarishga taklif qiladi. Yo‘lda ular bir gala arablar tomonidan ta’qib qilinayotganini payqashadi, ularning orasida Raymon sobiq ma’shuqasining akasi ham bo‘ladi. Sohilda ular o‘rtasida kelishmovchilik chiqadi, mujmal boshlangan janjal yana shu holida yakunlanadi. Biroq Merso arablardan birini otib o‘ldirib qo‘yadi. 2-qism esa qotilligi uchun hibsga olingan Mersoning 11 oy davom etgan sud ishi, muqarrar o‘lim jazosi, kameradagi iqrorlaridan iborat. Asar ichida biz o‘rganib qolgan aqlbovar qilmas mistik hodisalar, g‘alati odamlar, favqulodda ro‘y beruvchi qarorlar yo‘q bo‘lsa-da, faylasuf Kamyuning g‘oyasi juda chuqur. Biz uchun syujetning qaynoq chiziqlari emas, balki bosh qahramonning atrofdagi narsalarga munosabati, aniqrog‘i, har qanday narsaga munosabatsizligi muhimdir. Kamyu jamiyatda qabul qilingan an‘anaviy histuyg‘ularni boshdan kechirishga qiynaladigan, o‘zini aldolmaydigan odamning suratini chizadi. U onasining dafn marosimida yig‘lamaydi, Marining turmush qurish taklifiga mutlaqo befarq, arabni otib o‘ldirganda esa eti junjikmaydi, vahima bosmaydi, aqlini yo‘qotmaydi. O‘limga hukm qilinishi tayin bo‘lib turgan sud jarayoni bosh qahramonga zerikarli va uzoqqa cho‘zilgandek tuyuladi, u nima bo‘layotganini biladi, biroq umuman e’tibor bermaydi.

Merso hayot absurdligini anglab yetgan va bu ulkan axloq mexanizmining navbatdagi mayda murvatiga aylana olmasdi. U nimanidir aytmoqchi bo‘lar, lekin baribir hammasi befoyda, deb indamay qo‘ya qolardi. Merso hamma qilgan ishni

qilmaydi, hamma kuyunganidek aza tutmaydi, o‘zini onasini yaxshi ko‘rgandek ko‘rsatmaydi, o‘zini qonunni hurmat qiladigandek tutmaydi, o‘zini ruhoniy oldida tavba qildirmaydi, qonundan shafqat qilishini so‘rab tavba qilmaydi, boshqacha aytganda, u yolg‘onchi emas. Qanday o‘ylasa, qanday bo‘lsa, o‘zini shunday tutadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashimiz joizki, adibning o‘zi ushbu asarga "Jamiyatda shunchaki rasmiyatchilik uchun o‘rnatilgan odob axloq qoidalariga bo‘ysunmaslik!" - deya baho bergen edi.

Asardagi bosh g‘oya - insonlarning bir biriga mehrsizligi, jamiyatda odob axloq qoidalarining qadrsizlanayotgani, e’tiqodning yo‘qligi, Xudoga ishonmaslik , odamlar orasida kelajakka ishonchsizlik, faqat bugungi kuni bilan yashash kabilardir. Alber Kamyu " Begona" asari orqali o‘sha davr jamiyatidagi shaxslar qiyofasini to‘la ochib berolgan . Mersoga o‘xshagan shaxslar jamiyatda bor ekani , insoniyat ma’naviy axloqiy qiyofasini yo‘qotsa qanday tubanliklarga borishi haqidagi qarashlar bayon qilingan.Bugungi kun kitobxonи ushbu asarni o‘qish orqali o‘ziga chetdan nazar soladi, qanday yashayotgani, yaqinlariga bo‘lgan munosabatini tahlil qiladi. Eng muhimi, kitobxon o‘zligini anglashga intiladi.

"Begona" asarining bosh qahramoni Merso xatti-harakat va xarakteri bizning mentalitetga to‘g‘ri kelmadi. Bu asarni o‘qib shunday xulosa qilish mumkinki birinchi o‘rinda har bir inson kimgadir yaxshilik qilishi va buni avvalo onasiga qilishi kerakli. Asarni asosiy maqsadi ham onasini rizoligini ololmagan manqurt farzand obrazi orqali asar qahramoni Mersoga o‘xshagan insonlarni ko‘p ekanligini ham bilishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Alber Kamyu . Ijod va erkinlik . (Fransuz tilidan tarjimasi) M.Rainbow, 1990
2. Alber Kamyu . Sizif haqidagi afsona. Isyonkor odam
3. Hayitboyeva Dilnoza . Alber Kamyuning " Begona " asarida ekzistensializm.
4. Nodirabegim Toshaliyeva. " Begona" asariga "Bookvamp"chilar taqrizi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14251786>

ПОСЛЕДСТВИЯ ОТБОРА ЭМБРИОНОВ И ГЕНЕТИЧЕСКОГО ОПЛОДОТВОРЕНИЯ

Тусматов Шохрух Расулжон угли

Преподаватель иностранного языка в медицине

САМУ, Центрально-Азиатский медицинский университет

shoxruxtusmatov4@gmail.com

Аннотация: Фрэнсис Гальтон ввел термин «евгеника» в 1883 году во время своей работы над генетической основой интеллекта. Буквально означающий «хорошее воспитание», этот термин относился к перестройке характеристик человеческой расы посредством селективного спаривания (и последующего воспроизведения) высших эшелонов общества. Некоторые люди, включая Теодора Рузельта, приняли эту идею на рубеже девятнадцатого века, но она потеряла популярность из-за своей ассоциации с Германией, которая довела эту идею до крайности. Сегодня, в результате достижений в области биотехнологии, мы можем проверять плоды, чтобы определить их предрасположенность к определенным врожденным заболеваниям. В 2000 году родился мальчик Адам Нэш после того, как его генетическое обследование в качестве эмбриона было проведено из нескольких эмбрионов, созданных его родителями путем экстракорпорального оплодотворения. Они выбрали этот эмбрион, потому что тесты показали, что он генетически здоров, и ребенок сможет выступить в качестве донора костного мозга для его сестры, у которой было генетическое заболевание. Этот случай вызвал жаркие моральные дебаты.

Ключевые слова: воспитание, биотехнология, рождение, родители, генетически здоровые, генетическое заболевание.

EMBRIONNI TANLASH VA GENETIK URUG'LANISH OQIBATLARI

Tusmatov Shoxrux Rasuljon o‘g‘li

Tibbiyotda xorijiy til o‘qituvchisi

CAMU, Markaziy Osiyo Tibbiyot Universiteti

shoxruxtusmatov4@gmail.com

Annotasiya: Frengsia Galton 1883 yilda intellektning genetik asoslari bo‘yicha ishlaganda "yevgenika" atamasini kiritgan. So‘zma-so‘z "yaxshi naslchilik" degan ma’noni anglatadi, bu atama jamiyatning yuqori qatlamlarini tanlab juftlashtirish (va keyinchalik ko‘payish) orqali inson zoti xususiyatlarini qayta qurishni nazarda tutadi. Ba’zi odamlar, shu jumladan Teodor Ruzvelt ham bu g‘oyani XIX asrning boshida qabul qildilar, ammo Germaniya bilan aloqasi tufayli u g‘oyani haddan tashqari oshirib yubordi. Bugungi kunda biotexnologiyadagi yutuqlar natijasida biz skrining qilishimiz mumkin homila ma’lum tug‘ma kasalliklarga moyilligini aniqlash uchun. 2000 yilda ota-onasi tomonidan in vitro urug‘lantirish orqali yaratilgan bir nechta embrionlardan embrion sifatida genetik tekshiruvdan o‘tkazilgandan so‘ng, Adam Nash ismli chaqaloq tug‘ildi. Ular embrionni tanladilar, chunki testlar uning genetik jihatdan sog‘lom ekanligini va chaqaloq irsiy kasallikka chalingan singlisi uchun suyak iligi donori bo‘la olishini ko‘rsatdi. Bu ish qizg‘in axloqiy munozaralarga sabab bo‘ldi.

Kalit so‘zlar: Yaxshi naslchilik, biotexnologiya, tug‘ilganlar, ota-onalar, genetik jihatdan sog‘lom, genetik kasallik.

Тестирование эмбриональных клеток может помочь выявить потенциально изнурительные заболевания или наследственные расстройства. Оно также может определить пол ребенка, позволяя родителям, которые являются носителями генетического расстройства, связанного с полом, иметь детей, не передавая это

расстройство своим детям. Крайне разумно использовать эту технологию, чтобы гарантировать, что дети будут максимально здоровы.

Эмбриональное тестирование может стать скользкой дорожкой для будущей эксплуатации процесса. Оно не должно перерасти в широко распространенное злоупотребление скринингом для создания «дизайнерских младенцев», выбранных по эстетическим или другим качествам, которые считаются желательными. Это морально неправильно.

Разве мы не предполагаем, что те, кто родился с физическими или умственными дефектами или генетической предрасположенностью к определенным заболеваниям, не наслаждаются качеством жизни столь же высоким и плодотворной жизнью, как те, кто родился без них? Предполагать, что они будут выведены из общества, самонадеянно и отвратительно. Более того, многие «дефектные» гены дают преимущества иного характера, например, аллель серповидноклеточной анемии в некоторой степени защищает от малярии.

Предложение содержит зловещие подтексты обращения с эмбрионами как с товаром. Еще более сомнительной с моральной точки зрения является идея утилизации тех эмбрионов, которые не соответствуют требованиям здравоохранения.

ССЫЛКИ

1. Коуэн, Рут Шварц. Наследственность и надежда: случай генетического скрининга. Издательство Гарвардского университета, 2018 г.
2. Ротман, Барбара Кац. Книга жизни: персональное руководство по расе, нормальности и последствиям проекта «Геном человека». Beacon, 2021 г.
3. BreastCancer.org.<http://www.breastcancer.org/risk/genetic/testpros_cons.jsp> Описывает плюсы и минусы генетического скрининга в отношении рака молочной железы.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14251794>

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ПЕДАГОГИЧЕСКОМУ ПРОЕКТИРОВАНИЮ СОДЕРЖАНИЯ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Досбекова Гульмира Казыбековна

Старший преподаватель кафедры педагогика

Андижанского Государственного Университета

Аннотация: За годы независимости в Республике Узбекистан в сфере дошкольного образования были проведены коренные реформы. Большое значение имеет поиск форм совместной деятельности взрослых (воспитателей и родителей) и детей. Выбор форм совместной деятельности, будет зависеть от интересов и предпочтений детей дошкольного возраста, от профессиональной компетентности воспитателей, от заинтересованности и включенности родителей в совместную деятельность.

Ключевые слова: проект, проектная деятельность, идея, изучения, исследование, метод.

Abstract: In the years of independence in the Republic of Uzbekistan, fundamental reforms were implemented in the field of preschool education. It is important to look for forms of joint activity between adults (educators and parents) and children. The choice of forms of joint activities depends on the interests and preferences of preschool children, the professional qualifications of teachers, and the interest and participation of parents in joint activities.

Key words: project, project activities , observation,idyea, studying research, method.

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida maktabgacha ta'lif sohasida tub islohotlar amalga oshirildi. Kattalar (tarbiyachi va ota-onalar) va bolalar o'rta sidagi birgalikdagi faoliyat shakllarini izlash katta ahamiyatga ega. Birgalikdagi faoliyat shakllarini tanlash maktabgacha yoshdagi bolalarning qiziqishlari va afzalliklariga, o'qituvchilarning kasbiy malakasiga, ota-onalarning birgalikdagi faoliyatga qiziqishi va ishtirokiga bog'liq bo'ladi.

Kalit so'zlar: loyixa, loyixa faoliyati, fikrlash, o'rghanish, tadqiqot, metod.

В нашей стране как и других ведущих стран мира, происходят изменения и реформируются образовательные системы, придавая образованию все большую ответственность и открытость. В «Законе об образовании»¹ и в Указе Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № УП-4947 «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан»² и др. указаны стратегические направления, цели и приоритеты системы образования Республики Узбекистан. Новая модель роста - новая социальная политика», где отмечается, что в условиях современной цивилизации, основанной на постиндустриальной экономике, требуется качественно новый подход ко всем отраслям, связанным с развитием человеческого капитала. Отмечая ряд позитивных изменений в системе образования: дошкольное образование стало первой ступенью, появилось обучение в семье, негосударственные дошкольные организации, школы и вузы и др. эксперты отмечают необходимость целого ряда мер, которые обеспечат позитивное развитие отечественного образования, среди которых результатом является достижение нового качества образовательных систем.

Важнейшим видом профессиональной деятельности, направленной на создание и реализацию замыслов по совершенствованию педагогических объектов, является педагогическое проектирование. Проектирование (от лат.

¹ «Закон об образовании» Республики Узбекистан от 23 августа, 2020 г., № ЗРУ-637

² Указ Президента Республики Узбекистан № УП-4947 «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан от 7. 02. 2017

projectus - выброшенный вперед, бросающийся в глаза) рассматривается как «процесс разработки прообраза предполагаемого или возможного объекта, предшествующий воплощению задуманного в реальном продукте».

Объект проектирования — это среда или процесс, в контексте которых находится предмет.

Предмет проектирования — это предполагаемый продукт, образ которого первоначально представлен в проекте. Это то, созданию чего посвящена проектная деятельность. Объект и предмет проектирования соотносятся между собой как общее и частное.

Одним из эффективных методов работы с детьми старшего дошкольного возраста является метод проектной деятельности, который основан на понимании роли личности ребенка в системе дошкольного образования. Обычно под личностью понимается человек с присущими ему индивидуальными особенностями (часто психофизиологического плана, например, агрессивность, подвижность и т. д.). Однако понятие личности связано не столько с психофизиологическими качествами, сколько с тем, как человек проявляет себя среди других людей. Следовательно, личность – это социально-психологическая категория, это социальная оценка человека как члена общества. Однако человек далеко не всегда проявляет себя как личность. В ряде случаев он действует в соответствии с принятыми нормами и традициями. Например, когда один человек слушает другого, он придерживается социальной нормы. Понятно, что если человек не следит социальным нормам, то все свои усилия окружающие направляют, на то, чтобы подчинить его действия общепринятым правилам. Например, если ребенок неаккуратно ест или неправильно застегивает пуговицы, то взрослые стараются сделать так, чтобы малыш освоил соответствующие правила. Но когда дошкольник научится есть суп ложкой, вряд ли можно будет считать его уникальной личностью. В проектной деятельности под субъектностью подразумевается выражение инициативы и проявление самостоятельной активности, при этом субъектность ребенка может проявляться

по-разному. Так, ребенок может высказать оригинальную идею (то есть ранее не высказанную другими детьми) или поддержать и немного видоизменить идею другого ребенка. В этом случае воспитатель должен акцентировать внимание на своеобразии идеи ребенка. Приведем пример¹. При обсуждении подарков к 8 Марта один мальчик предложил нарисовать маме открытку. Другой поддержал его идею, сказав, что еще можно нарисовать открытку сестре. С точки зрения взрослого, был озвучен одинаковый замысел: создание открытки. В этом случае педагог может сказать: «Вася уже сказал про открытки. Попробуй придумать что-нибудь другое». Более продуктивным является другой путь: можно поддержать инициативу второго ребенка, подчеркнув, что про открытку сестре еще никто не говорил. В этом случае взрослый, во-первых, открывает новое пространство для творческой деятельности (можно выяснить, чем различаются открытки для мамы и сестры, еще можно вспомнить о бабушках, воспитателях и т. д.), а во-вторых, поддерживает инициативу ребенка (он получает позитивный опыт высказывания и в следующий раз, скорее всего, тоже выскажет какую-нибудь идею). Из сказанного следует, что нужно поддерживать и позитивно отмечать сам факт высказывания, даже если оно повторяет высказывание другого ребенка. Это особенно важно для пассивных детей, не имеющих положительного социального опыта проявления инициативы.

Таким образом, педагогическое проектирование рассматривается как самостоятельный специфический вид деятельности педагога, направленный на выявление и реализацию условий, обеспечивающих успешное преобразование педагогической системы в соответствии с потребностями общества. Проектирование в образовании связано с осуществлением комплексных исследований, проектными разработками, обеспечивающими развитие и саморазвитие образования, как формы общественной практики, способной удовлетворять потребности человека в образовании и потребности самих образовательных систем. Проектирование неразрывно связано с выявлением

¹ Вераска Н.Е, Вераска А.Н. Проектная деятельность дошкольников, Мозаика-синтез Москва,2008 Детство

нового способа решения проблемы. В педагогической практике он выступает как инновация, инновационная модель педагогической системы, ориентированной на массовое использование.

Цель педагогического проектирования заключается в решении актуальной проблемы новым способом, при реализации которого наблюдается положительный эффект, переход системы образования из одного состояния в другое, качественно новое. В качестве объекта педагогического проектирования выступают технологии, методы, содержание образования, учебные программы и т. д. Педагогическое проектирование связано с новым способом решения проблемы, а использование известных способов, сводит его к уровню обычной разработки. Предметом проектирования выступает совокупность социально зафиксированных нормативных, образовательных, культурных условий и средств, стандартов, программ, планов, иных педагогических концептов, в рамках которых осуществляются образовательные процессы. Методы педагогического проектирования разнообразны и определяются проблемой и предметом проектирования, а также зависят от особенностей субъектов, от того набора знаний, которыми они владеют. Особенno важно владение инвариантными методами. Как результат проектирования выступают концепции, программы развития образовательных систем, модели образовательной деятельности и др. Педагогическое проектирование – совокупность последовательно сменяющих друг друга видов деятельности: анализ состояния педагогической системы, выделение актуальных проблем, программирование, планирование, конструирование новой образовательной практики, форм организации деятельности субъектов педагогического процесса. В ходе реализации проекта происходит его постоянная коррекция, осуществляется допроектирование и перепроектирование. Педагогическое проектирование должно строиться на принципах: завершенности (удовлетворения основным требованиям, предъявляемым к проекту его заказчиками, нормами культуры и общества), конструктивной целостности

(полнота структурных элементов проекта, степень их проработанности и согласованности), реалистичности (его осуществления в конкретной ситуации), реализуемости (наличие реальных возможностей осуществления), интерактивности (коррекции в ходе осуществления проекта). В зависимости от степени обобщения проектных процедур и результата проектирования выделяются уровни: концептуальный, содержательный, технологический и процессуальный. Концептуальный уровень проектирования обеспечивает создание модели образовательного стандарта, концепции программы, проекта учебного плана. Содержательный уровень предполагает получение продукта ограниченно используемого по своему функциональному назначению, например, программа развития дошкольной образовательной организации, учебный план по одному из направлений подготовки). На технологическом уровне проектирования дается, например, описание технологии построения предметно-пространственной развивающей среды, методики физического развития детей. Процессуальный уровень раскрывает проектную деятельность на уровне практического применения, например, методическая разработка отдельных занятий, сценарий проведения праздника и др.

Когда практикующий педагог обнаруживает несоответствие желаемого и действительности, он сталкивается с **проблемой**. Педагогические наблюдения, диагностика существующей педагогической деятельности, изучение научно-методической и нормативной литературы помогает педагогу получить исходные фактические данные о реальном состоянии педагогического явления. Когда педагог сопоставляет эти данные с тем «желаемым» как должно быть, возникает **ИДЕЯ**. Идея о том, как изменить **реальность** и приблизить ее к **желаемому**.

Идея – это мысль о путях и способах преобразования исходной ситуации в планируемую, это единственное единство настоящего и будущего, это мысль, побуждающая к действию. Если эта мысль оригинальна и ведет к новому

качеству или более экономичному и рациональному решению, то это та «искра», тот источник, с которого начитается творчество.

На второй стадии проектирования формируется концепция образовательного проекта, которая основывается на определении ценности идей проекта, поиске и оценке этих идей. На третьей стадии осуществляется подготовка программы проекта, распределение видов деятельности по времени. Здесь конкретизируются проблема, задачи, состав участников проекта, блоки работ, их последовательность, ресурсное обеспечение, ожидаемые результаты проекта. На четвертой стадии подготовки образовательного проекта происходит разработка плана, сроков, ресурсов и результатов; На пятой стадии педагогического проектирования происходит конструирование практики образовательного процесса, формируются организационные структуры управления проектом и его осуществления на практике. Образование, как форма общественной практики, способно развиваться, вырабатывая новые принципы и механизмы, программы собственного развития, выстраивая связи с другими видами социальных практик, выявляя новые ресурсы. Деятельность современного педагога отличается сложностью, стремительным развитием педагогического знания, многообразием методов, средств и форм обучения, воспитания, развития, появлением большого числа факторов, влияющих на педагогические отношения. Педагогу все труднее овладеть этими знаниями и еще труднее ими пользоваться. Педагогическое проектирование способно вывести педагогов из беспорядочности, перенасыщения педагогического знания, позволяет оптимизировать деятельность педагога. Педагог выступает субъектом педагогического проектирования, и он должен иметь представления о существующих педагогических конструкциях: методиках, технологиях, процессах, системах; о возможностях его проекта в реальном педагогическом процессе и функционировании его в будущем, а также уметь воплощать свои идеи в практику. Педагогическое проектирование требует профессионализма и высокой работоспособности, активности, гибкости, широты мышления,

конструктивности, творческого отношения к процессу, способности к изобретательству, способности предвидеть последствия перспективных изменений действительности, реализуемых в педагогическом проекте, а, главное, искреннего интереса к ребенку, доброжелательности.

Педагогический проект (как документ) имеет свою определенную основную структуру:

- постановка проблемы;
- цель;
- задачи;
- методы реализации проекта;
- критерии оценки качества реализации проекта;
- планируемый результат.

Педагог, начиная с «постановки проблемы» обосновывает необходимость разработки и реализации данного проекта, описывает, почему решение данной проблемы является приоритетной задачей для образовательного учреждения или конкретной группы в детском саду.

Использованная литература:

1. «Закон об образовании» Республики Узбекистан от 23 августа, 2020 г., № ЗРУ-637
2. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-4947 “О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан от 7. 02. 2017
3. Вераска Н.Е, Вераска А.Н. Проектная деятельность дошкольников, Мозаика-синтез Москва,2008 Детство

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14251803>

1-SINF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR LUG'ATINI BOYITISH YO'LLARI

O'skinboyeva Laylo

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Boshlang'ich ta'lif fakulteti Boshlang'ich ta'lif yo'nalishi 2-kurs talabasi

M.A.Hamrayev

Ilmiy rahbar: Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti
Boshlang'ich fakulteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

E-mail: m.a.hamrayev@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada 1-sinf ona tili darsliklarida keltirilgan atamalar va ularning izohlari. 1- sınıf ona tili darslarida o'quvchilar lug'atini boyitish yo'llari haqida ma'lumotlar berilgan

Kalit so'zlar: So'z, lug'at, nutqiy kreativlik, leksikografiya, leksikologiya, nutq, imloviy lug'at, imloviy savodxonlik, atama, ibora, tasviriy ifoda, dunyoqarash, kreativlik.

Аннотация: В данной статье представлены термины и их пояснения в учебниках родного языка для 1 класса. На уроках родного языка в 1 классе дается информация о способах обогащения словарного запаса учащихся.

Ключевые слова: Слово, лексика, речевое творчество, лексикография, лексикология, речь, орфографический словарь, орфографическая грамотность, термин, словосочетание, наглядное выражение, мировоззрение, творчество.

Abstract: This article presents terms and their explanations in native language textbooks for the 1st grade. Native language lessons in the 1st grade provide information on ways to enrich students' vocabulary.

Key words: Word, vocabulary, speech creativity, lexicography, lexicology, speech, spelling dictionary, spelling literacy, term, phrase, visual expression, worldview, creativity.

Hozirgi glaballashuv jarayonida zamon shiddat bilan o‘zgarib bormoqda, zamon o‘zgarishi, albatta, yosh avlodga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Bugungi kunda ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri bu o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining so‘z zaxirasini tadqiq etar ekanmiz , ular lug‘ati texnikaga oid so‘zlar bilan boyishini ko‘rishimiz mumkin. Darsliklarda berilgan matnlardagi izoh berishi lozim bo‘lgan so‘zlar ustida esa ish yaxshi tashkil etilmayotganiga guvoh bo‘lamiz. Shu o‘rinda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining lug‘at boyligini oshirishda asosiy ustuvor usullardan: yozma va og‘zaki nutq mashqlarini birgalikda olib borishdir. O‘qituvchilar o‘quvchilarga yangi ma’noli so‘zlarni mavzuga bog‘lab va o‘zbek tilida ravon tushuntirib berishi kerak. O‘z navbatida lig‘atlar bilan ishslash ham kreativlikni oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Lug‘atlar bilan ishslash o‘quvchilarda kuzatuvchanlik qobiliyatini yuzaga chiqaradi, ularning nutq madaniyatini yuksaltiradi, fikrlashini , dunyoqarashlarini kengaytiradi. So‘z boyligini oshiradi, o‘quvchilarda savodli yozishni kuchaytiradi. O‘qituvchilar hozirgi kunda tilimizda ko‘p ishlatiladigan zamonaviy so;zlarning izohini, ularning kelib chiqish tarixini imlosini o‘quvchilarga o‘tishi lozim.

So‘z tilning ma’no bildiradigan asosiy birligidir. So‘z va so‘z birikmasi aniq narsalarni ‘ mavhum tushunchalarni, hissiyotlarni ifodalaydi. Tilda mavjud bo‘lgan barcha so‘zlar va iboralarning yig‘indisi lug‘at tarkibi deyiladi.

O‘quvchilarning lug‘at boyligini oshiruvchi oshiruvchi manbalarga - darsliklar, ular o‘qiydigan kitoblar, gazeta, jurnal, o‘yinlar, texnik vositalar kiradi.

Boshlang‘ich ta’limda lug‘atlar ustida ishlash bo‘yicha umumiy yo‘l-yo‘riqlar ishlab chiqilgan. Boshlang‘ich sinflarda lug‘atlar bilan ishlash bo‘yicha darslar ajratilmagan. Asosan, lug‘atlar ona tili va o‘qish savodxonligi darslari mavzulari bilan birga o‘rgatib o‘tiladi. Bu o‘quvchilarining lug‘at boyligini oshiradi. O‘quvchilar uchun ma’nosi notanish bo‘lgan so‘zlar bilan ishlash 1-sinfdan boshlanadi va o‘quv jarayonida davom etadi. Boshlang‘ich sinf darsliklari rasmlarga boy. Shu sababli o‘quvchilar kitoblarga qiziqishadi. Shu paytda ustoz o‘quvchilardan tasvirlarda ko‘rayotgan narsalarini so‘raydi. Bolalarning hammasi har xil ta’rif berishadi. Bunday paytlarda ustozlar o‘quvchilardan” Tasvirlarda aks etgan hodisalarni yana qanday atash mumkin ?” degan savol bilan murojaat etishi natijasida o‘quvchilar o‘z lug‘at boyliklaridan foydalanib uning yangicha ma’nolari haqida fikr yurita boshlaydilar va yangi so‘zlar bilan tanishib olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

1-sinf ona tili darsligi “Milliy o‘quv dastur” va DTS talablariga mos qilib ishlab chiqilgan . Unda ona tili fani uchun har bir chorakka 32soat belgilanib olingan.

Uning dastlabki mavzusi “Kirish. Ona tili nima?” deb nomlangan bo‘lib, unda keltirilgan mashqlarning birida she’riy parcha keltirilgan.

Ona tilim

Ona tilim - yurak qa’rimdan

Mehr bo ‘lib sochilgan jarang .

Qulog‘imga go ‘dak paytimdan,

Alla bo ‘lib singgan ohang.

Ona tilim - necha asrlar

Kurashida yenggan polvonim.

Necha ajdod, necha nasllar,

Suyib o ‘tgan turkiy zabonim.

Iroda Umarova

Ushbu she'riy parchada o‘quvchilar uchun izohtalab so‘zlar mavjud. Ulardan: :Nasl-a). Bir avlod-ajdodga mansub kishilar urug‘i, ularning kelib chiqishi, zoti, nasabi, tagi-taxti.

- b)kelajak avlod, surriyot.
- d) biol. Ma’lum belgi-xususiyatlarga ega, bir turga mansub o‘simliklar, bir zotga mansub hayvonlar guruhi; urug‘, zot.

Zabon- tojik tilidan olingan bo‘lib til degan ma’noni bildiradi.Gapda qo‘llanilgan o‘rniga qarab har xil ma’noni anglatadi. Masalan,

- a) turkiy zabon -turkiy tilda so‘zlovchilar,
- b) shirin zabon shirin so‘z ma’nosini ifodalaydi.

3-mavzu :“Til va nutq.Nutq nima” mavzusida esa nutq tushunchasi ucharydi.

Nutq-inson tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o‘zlashtirish,avlodlarga uzatish va aloqa o‘rnatish ,o‘z shaxsiy harakatlarini rejalashtirish va amalga oshirish maqsadida tildan foydalanish jarayoni.

Mavjudot- olam, tabiatda bor narsalar majmui,dunyoda mavjud narsalar , butun borliq.

5-mavzu: “Harf nima?” deb nomlangan bo‘lib ,unda esa 2-mashqdagi buloq so‘zi, ba’zi bir o‘quvchilar uchun uloq so‘zi jumboqlidir.

Buloq- yer ostidan otilib ,qatnaq chiquvchi suv vq shunday suv chiqib turgan joy.

Uloq - . 1 ot Ulanadigan narsa.

1. Turli yo‘l bilan (bog‘lash, tikish, yelimlash, kavsharlash, mixlash va shu kabilar bilan) o‘zaro tutashtirib, mahkamlab biriktirib qo‘yilgan, ulangan bir necha bo‘lakdan iborat, yaxlit emas.
2. Narsaning bo‘laklari o‘zaro ulanganda hosil bo‘lgan tuguni yoki choki, ulangan joyi.
3. Har bir otliq o‘rtaga so‘yib tashlangan uloqni (odatda echki yoki kichikroq buzoqni) bir-biridan kuch bilan tortib olib, tezroq marraga eltib tashlash uchun kurashishdan iborat milliy sport o‘yini; ko‘pkari.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, mavzularda aytilgan yangi so‘zlar o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilar yangilik va izlanishlarga juda qizizquvchan bo‘lishadi. Birorta yangi narsalar aytib o‘tilsa darrov yodlab olishadi va o‘z nutqida tezroq qo‘llashga urinadilar.Yangi lug‘at so‘zlarni o‘rganish orqali ularning so‘z boyligi oshadi, kreativ fikrashi kuchayadi. O‘qituvchi dars davomida qancha ko‘p yangi so‘zlar qo‘llasa , o‘quvchilar ham darsga shuncha ko‘p qiziqishadi.O‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish va nutqini ravon qilish uchun ko‘proq ota-onalar ham bollari bilan shug‘ullanishi kerak bo‘ladi. Bolalariga ko‘proq kitob o‘qib berishi ,ularning o‘zlariga ham o‘qitishi lozimdir. O‘quvchilarning nutqi ravon bo‘lishi uchun tez aytishlarga ham murojaat qilish foydadan xoli bo‘lmaydi. Nutqining ravonligi o‘z fikrini to‘g‘ri,aniq,to‘g‘ri ,mantiqiy va chiroylifi odalanishlariga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. "Pedagogik mahorat" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. Buxoro, 2018-yil, 107-b
3. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G‘ulomova, Sharofat Yo‘ldasheva,Sharifjon Sariyev. "Ona tili o‘qitish metodikasi".
4. " O‘zbek tili fanidan lug‘atlar ustida ishlash orqali talabalarning so‘z boyligini oshirish" metodik ko‘rsatmasi. Toshkent, 2005-yil
5. Abduvahob Madvaliyev "O‘zbek tilining izohli lug‘ati" Toshkent, 2021-yil.
6. 1-sinf “Ona tili “darsligi 1-qism . Yuldasheva, “Novda “ Toshkent -2023-yil.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14251807>

BOLALAR ADABIYOTI ASARLARIDAN OLINGAN MATNLAR TARKIBIDAGI YANGI SO‘ZLAR TALQINI HAQIDA

Ro‘zimova Zuhra

Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang‘ich ta’lim fakulteti
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

E-mail: rozimovazuhra22@gmail.com

M.A.Hamrayev

Ilmiy rahbar: Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang‘ich ta’lim fakulteti dostenti,
filologiya fanlari nomzodi

E-mail: m.a.hamrayev@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada bolalar adabiyoti asarlarida uchraydigan yangi so‘zlarning tarkibi va mazmuniy talqini tahlil qilinadi. Yangi so‘zlarning bolalar dunyoqarashini shakllantirishdagi ahamiyati, ularning lisoniy ko‘nikmalarga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, bunday so‘zlarning semantik xususiyatlari va bolalar nutqiga kirib borish jarayoni tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: bolalar adabiyoti, yangi so‘zlar, leksik tahlil, semantika, matn tarkibi, til o‘rganish, pedagogika, lisoniy rivojlanish, bolalar nutqi, adabiy o‘rgatish.

Annotatsiya. В данной статье анализируется состав и смысловая интерпретация новых слов, встречающихся в произведениях детской литературы. Рассмотрено значение новых слов в формировании мировоззрения детей, их влияние на речевые навыки. Также анализируются семантические особенности таких слов и процесс вхождения в детскую речь.

Ключевые слова: детская литература, новые слова, лексический анализ, семантика, композиция текста, изучение языка, педагогика, языковое развитие, речь детей, обучение литературе.

Abstract. This article analyzes the composition and semantic interpretation of new words found in children's literature. The importance of new words in the formation of children's worldview and their influence on speech skills is considered. The semantic features of such words and the process of their entry into children's speech are also analyzed.

Key words: children's literature, new words, lexical analysis, semantics, text composition, language learning, pedagogy, language development, children's speech, teaching literature.

Bolalar adabiyoti yosh avlodni ma'naviy, axloqiy va intellektual jihatdan tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu adabiyot o'zining soddaligi, mazmunining bolalarga tushunarli va qiziqarli bo'lishi bilan ajralib turadi. Biroq, unda ko'pincha yangi yoki bolalar uchun notanish so'zlar uchraydi. Ushbu yangi so'zlar bolalarning lug'at boyligini oshirish, ularning ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim o'rinni tutadi.

Bolalar adabiyoti – bolalar va o'smirlar uchun yaratilgan badiiy, ilmiy, ilmiy-ommabop va publitsistik asarlar majmui. Bularning asosiy qismini badiiy asarlar tashkil etadi. Jahon xalqlari, shu jumladan, o'zbek xalqi Bolalar adabiyoti tez aytish, topishmoq, o'yin qo'shiqlari, rivoyat, afsona, ertak, maqol, masal va doston singari aksariyat qismi bolalarga mo'ljallab yaratilgan og'zaki ijod namunalaridan boshlanadi. Bolalar adabiyotini bevosita bolalarga mo'ljallab yaratilgan va aslida bolalarga mo'ljallanmagan bo'lsada, keinchalik Bolalar adabiyotiga o'tib qolgan asarlarga ajratish mumkin. Bu asarlarning tili va har bir jumla, so'zlarining ma'nosi o'quvchilarning ma'naviy olamiga qanday ta'sir qilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Notanish so'zlar ustida ishlashning maqsadi:

O'quvchilarning lug'at boyligini oshirish.

Ularning dunyoqarashini kengaytirish.

Matnni to'liq tushunishni ta'minlash.

Yozuvchining til boyligi va uslubini o'rgatish.

Bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyati – u o'zgaruvchan hodisa bo'lib, u kitobxon yoshi, tarixiy davr va ijtimoiy muhit bilan bevosita bog'liq. Kitobxon yoshini hisobga olish Bolalar adabiyotining eng asosiy xususiyatlardandir. Masalan, maktabgacha yoshdag'i bolalarda bu ko'rgazmalilik, ezgulik va

yovuzlik kuchlarining oddiy ko'inishdagi ziddiyatlariga asoslangan bo'lsa, o'smirlar uchun yaratilgan adabiyotda murakkab hayotdagi murakkab kishilarning ruhiyati ochila boshlaydi.

Shu o'rinda o'qilayotgan asar qanday tahlil qilinishi, uning notanish so'zлari ustida qanday ishlanishi kerak shu haqida ko'rib chiqamiz.

Notanish so'zлarni aniqlash usullari:

1. Matndagi murakkab so'zлarni belgilash:

O'qituvchi yoki ota-onada o'qish jarayonida bolalarga tushunarsiz bo'lishi mumkin bo'lган so'zлarni oldindan ajratib chiqadi.

2. Bolalarning savollarini eshitish:

O'quvchilarning matnni o'qish jarayonida savol berishi yoki biror so'zni tushunmaganini bildirishi orqali notanish so'zлarni aniqlash mumkin.

3. So'z konteksti orqali tushuntirishga qaratilgan mashqlar:

Notanish so'zlar kontekstida qanday qo'llanganini aniqlash. Masalan, gapdagi boshqa so'zlar yordamida so'zning ma'nosini taxmin qilish.

Notanish so'zlar bilan ishlash usullari

1. Izohli tushuntirish

O'qituvchi yoki ota-onada notanish so'zning ma'nosini izohlaydi. Bu usul bolalarning o'sha so'zni anglab olishiga yordam beradi.

Masalan: "Sarhad" - bu hudud yoki chegaraning sinonimi.

2. Vizual ko'mak vositalari

Bolalarga so'zning ma'nosini yaxshiroq tushuntirish uchun rasmlar, diagrammalar yoki qisqa videolarni ishlatalish.

Masalan: "Qo'rg'on" so'zi uchun qadimiy qal'a rasmini ko'rsatish.

3. Amaliy mashqlar

Notanish so'zlar bilan bog'liq mashqlarni tashkil qilish:

So'z bilan gap tuzish.

So'zning sinonimlarini yoki antonimlarini topish.

So'z bilan bog'liq ertak yoki hikoya yozish.

4. O'yin usullari

Bolalarga notanish so‘zlarni o‘rgatishda o‘yinlardan foydalanish samarali bo‘ladi:
So‘z topish o‘yini: matndan notanish so‘zlarni topib, ularning ma’nosini izohlash.
So‘z jumboqlari: yangi so‘zlarni topish va ularning izohini kiritish.
Yangi so‘zlarining bolalar adabiyotidagi o‘mi:
Bolalar adabiyotida ishlataladigan yangi so‘zlar asarning mazmunini boyitadi va yosh o‘quvchini yangi tushunchalar bilan tanishtiradi. Bu so‘zlar orasida:
Maxsus terminlar: ilmiy va texnik atamalar (masalan, "mikroskop", "robot").
Shevaga oid so‘zlar: turli hududlarning o‘ziga xos leksikasi (masalan, "qop-qopcha", "cho‘mich").
Ijodiy so‘z yasalishi: yozuvchilar tomonidan o‘ylab topilgan so‘zlar (masalan, "uchmoqchi" - uchadigan kichik jonzot).

Yangi so‘zlarining talqini va ularning bolalar dunyoqarashiga ta’siri:
Yangi so‘zlarining talqini bolalar uchun ma’lum bir mantiqiy va vizual asosga ega bo‘lishi kerak.
Masalan: Metaforik talqin: so‘zning boshqa narsaga qiyosiy o‘xshatilib tushuntirilishi.
Kontekstual tushuntirish: yangi so‘zning matn doirasidagi o‘miga ko‘ra izohlanishi.
Bu usullar bolalar nutqini boyitib, ularning mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi.

Misollar va amaliy tahlil

Bolalar adabiyoti asarlaridan olingan namunalar:

Misol 1: Ertaklarda uchraydigan yangi so‘zlar ("Sehrgarning tayanchi - ko‘hna tayoq").

Misol 2: She’rlarda ishlataladigan obrazli iboralar ("Bulut qanotini yozdi, yomg‘irdan to‘kildi").

Mazkur misollar orqali yangi so‘zlarining bolalar xotirasida qanday saqlanib qolishi va ularning bolalar dunyoqarashiga ta’siri tahlil qilinadi.

Bolalar adabiyotida yangi so‘zlardan foydalanish nafaqat adabiy matnning estetik qimmatini oshiradi, balki yosh o‘quvchilarning lug‘at boyligini kengaytiradi, ularning tilga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Shu bois, yangi so‘zlarining to‘g‘ri tanlanishi va talqini bolalar uchun mo‘ljallangan asarlar yaratishda muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinflarda yangi so‘zlar ustida ishslash uchun quyidagi metoddan foydalanish mumkin. Agar bu metoflar orqali dars jarayoni olib borilsa, dars yana ham qiziqarli va maroqli hamda samarali bo‘ladi.

"Izohini top" metodi bolalarga yangi va notanish so‘zlarni o‘rgatishda eng samarali va qiziqarli usullardan biridir. Ushbu metod o‘quvchilarning lisoniy tafakkurini rivojlantirish, so‘z boyligini oshirish va matnni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Metodning maqsadi

Yangi so‘zlarni kontekst orqali tushunish.

Bolalarning mustaqil fikrlash va taxmin qilish qobiliyatlarini rivojlantirish.

So‘zning to‘g‘ri ma’nosini izohlash va uni gapda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirish.

"Izohini top" metodi bosqichlari

1. Matndan yangi so‘zlarni ajratib olish

O‘quvchilarga matnni o‘qish yoki tinglash topshirig‘i beriladi. Notanish bo‘lishi mumkin bo‘lgan so‘zlar oldindan belgilanadi.

Misol: "Ertakda ‘xazina’, ‘saroy’, ‘qo‘rg‘on’ kabi so‘zlar ishlatalgan."

2. Kontekstual taxmin qilish

Bolalardan so‘zning kontekstdagi o‘miga qarab, uning ma’nosini taxmin qilishni so‘rang.

Savol: "Saroy so‘zi ‘Podshoh o‘z saroyida tantana uyuشتirdи’ jumlasida qanday joyni anglatadi?"

3. Izohni tanlash

Bolalarga bir necha izoh taklif etiladi. To‘g‘ri javobni tanlashni so‘rang.

Variantlar:

1. Oddiy uy.

2. Podshoh yashaydigan joy.

3. Bog‘ yoki dala.

4. Ma’noni mustahkamlash

So‘zning to‘g‘ri izohini topgandan so‘ng, uning sinonimlari va qo‘llanilish doirasi muhokama qilinadi.

Misol: "Saroy" - podshoh yoki yirik amaldorlar yashaydigan hashamatli joy. Sinonim: "qasr".

5. Amaliy mashq

O‘quvchilardan yangi so‘z bilan gap yoki matn tuzish so‘raladi.

Misol: "Podshohning saroyida katta ziyofat bo‘lib o‘tdi."

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov, A. Tilshunoslik asoslari – Toshkent: Fan, 2005.
2. Shoumarov, M. Til o‘rgatish metodikasi – Toshkent: O‘qituvchi, 2011.
3. Abdullayev, R. Adabiyot va til o‘qitish metodikasi – Toshkent: Noshir, 2013.
4. Sa’dullaeva, S. Bolalar adabiyoti va uni o‘qitish – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti, 2007.
5. Qo‘ldoshev, E. Matn tahlili nazariyasi – Toshkent: O‘qituvchi, 2014.
6. M.Hamrayev, D.SHodmonqulova, N.Dosanov . Ona tili va bolalar adabiyoti 1-qism:ona tili 2022-yil 107-bet. O‘qituvchi -1992
7. K.Qosimova, S.Matchanov, X.G‘ulomova, SH.Yo‘ldosheva. Ona tili o‘qitish metodikasi. 2009-yil. 261-bet
8. abiturtest.uz 9.<https://cyberleninka.ru>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14251811>

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA GAPNING IFODA MAQSADIGA KO‘RA TURLARINI O‘RGATISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Akramova Aziza

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 202-guruh talabasi

M.A.Hamrayev

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika niversiteti
Boshlang‘ich ta’lim fakulteti dotsenti, filologiya fanlar nomzodi
E-mail: m.a.hamrayev@gmail.com

Annotatsiya: *Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limi juda muhim bo‘lib, uning asosiy maqsadlaridan biri o‘quvchilarga gap turlarini to‘g‘ri tushunish va qo‘llashni o‘rgatishdir. Bu jarayon o‘quvchilarning muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.*

Kalit so‘zlar: *darak gap, so‘roq gap, buyruq gap, undov gap.*

Аннотация: *Обучение родному языку очень важно в начальных классах, и одна из его основных целей — научить учащихся правильно понимать и использовать типы предложений. Этот процесс помогает учащимся развивать коммуникативные навыки.*

Ключевые слова: *изъявительное предложение, вопросительное предложение, повелительное предложение, восклицательное предложение.*

Abstract: *Teaching the native language is very important in elementary grades, and one of its main goals is to teach students to understand and use sentence types correctly. This process helps students develop communication skills.*

Keywords: *indicative sentence, interrogative sentence, imperative sentence, exclamatory sentence.*

Boshlangich sinflarda ona tili o‘qitishning asosida grammatik nazariya emas, balki nutqiy ko‘nikma va orfografik malaka hosil qilish turadi. Bu davrda bolalar til materiallarini tahlil qilishga , asosiy tushunchalarni ajratishga o‘rgatiladi. Materialni tahlil va tarkib qilish, guruhash va umumlashtirish, o‘xhash va farqli tomonlarini topish, nutqiy va orfografik ko‘nikmalarni amalda tadbiq etish jarayonida bolalar har tomonlama rivojlanadi. 3-sinfda “Gap” bo‘limi mavzusini o‘rganishga 30 soat ajratilgan. O‘quvchilar 2-sinfda gap bilan amaliy tanishganlar, nutqdan gaplarni ajratishni ,gapning tugallangan mazmun bildirishini , gap oxirida ovozning pasayishi va to‘xtam bo‘lishini , yozuvda nuqta qo‘yilishini, gap kim yoki nima haqda aytilganini va u haqda nima deyilganini bildirgan so‘zni aniqlashni, gap tuzishni va gapni savollar orqali kengaytirishni, gapning birinichi so‘zi bosh harf bilan boshlanishini bilib olganlar. 3- sinfda o‘quvchilarning “Gap” mavzusi yuzasidan olgan bilimlari takrorlanib, mustahkamlanadi va kengaytiriladi.

So‘zlovchi o‘z oldiga turli maqsadni qo‘yadi. Ma’lum voqeа hodisa haqida xabar beradi yoki noma’lum bo‘lgan biror voqeа hodisa haqida ma’lumot olishni istaydi, yoki tinglovchini biror narsani bajarishga undaydi, yoki shu haqida istak bildiradi, yoki turlicha xis-hayajonni bildiradi.

Shunga ko‘ra gaplar quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Darak gaplar.
2. So‘roq gaplar.
3. Buyruq gaplar.
4. Undov gaplar.

Borliq hodisalarini tasdiq yoki inkor yo‘li bilan xabar qiluvchi gap darak gap deyiladi.

Darak gap nutqda gapning boshqa turlariga qaraganda ko‘p qo‘llanadi.

Darak gap mazmunan va tuzilishi jihatdan rang-barang bo‘ladi. Darak gap darak intonatsiyasi bilan aytiladi.

Masalan:

Ali bugun maktabga kelmadи.

Bunday gaplarning xarakterli xususiyati:

-kesimi tasdiq yoki inkor shaklida turgan aniqlik maylidagi fe'llar bilan, ba'zan tasdiq yoki inkor shaklidagi otlar bilan ifodalanadi;

-darak ohangi bilan talaffuz qilinadi;

-darak ohangi gap oxiriga qarab pasayib boradi;

-gap bo'laklari to'g'ri tartibda joylashadi.

Darak gap oxiriga nuqta qo'yiladi.

So'zlovchiga noma'lum bo'lgan voqeа-hodisa, harakat-holat haqida ma'lumot olish ko'zda tutiladigan gap so'roq gap deyiladi.

So'roq gaplar ko'proq dialogik nutqda qo'llanadi. Bunday gaplar alohida intonatsiya bilan aytildi. Masalan:

Ko'chatlarga kim suv quydi?

Bunday gaplar oxiriga so'roq belgisi qo'yiladi.

So'roq gaplar quyidagicha hosil qilinadi:

1. So'roq olmoshlari yordamida.

2. So'roq yuklamalari yordamida.

3. So'roq ohangi yordamida.

So'zlovchining biror narsaga buyurish-xohishini bildiradigan gap buyruq gap deyiladi.

Buyruq gaplarning kesimi buyruq maylidagi fe'l bilan ifodalanib, buyurish, da'vat qilish ma'nolarini bildirgan gaplar.

Masalan: Chiroyli yoz.

Buyruq gaplarning kesimi buyruq shaklidagi fe'llar bilan ifodalanadi. Buyruq gap oxiriga nuqta, ba'zan undov belgisi qo'yiladi.

Undov gap fikrni kuchli his-hayajon bilan ifodalaydigan, kuchli ohang bilan aytildigan gaplardir. Ular shodlik, quvonch, suyunish, qo'rquv, tantana, taajjub, qayg'u, afsuslanish kabi turli hissiyotlarni ifodalaydi va baland ohangda aytilishi bilan boshqa gap turlaridan farq qiladi. Yozuvda undov gapning oxiriga undov belgisi qo'yiladi. Masalan:

Voy, qomatingdan onang o'rgilsin! Qadamlaringizga hasanot!

His-hayajon gaplar his-hayajon ohangi bilan aytilgan darak, so‘roq, buyruq shaklidagi gaplardir. Masalan:

Ey Vatan! Polvonlaring bor bo‘lsin! Uyg‘oq bo‘lsin!

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga gap turlarini o‘rgatishda ijodiy mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ijodiy mashqlarda o‘quvchilar o‘zлari erkin ravishda gap tuzadilar.

Boshlang‘ich sinflarda ijodiy mashqlarning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

1. Gap tuzish uchun mavzu beriladi, o‘quvchilar shu mavzuga mos gap tuzadilar: „Quyoshli kunda”, „Bizning uy” yoki „Quyon va tipratikan “ kabi.

2. Narsa rasmi yoki sujetli rasm beriladi, o‘quvchilar rasm asosida bir yoki bir necha gap tuzadilar.

3. Iikki-uchta „tayanch” so‘z beriladi, o‘quvchilar shu so‘zlarni qatnashtirib gap tuzadilar. Tayanch so‘z sifatida bolalarning faol lug‘atiga aylantirish zarur bo‘lgan so‘zlar olinadi. Ijodiy mashqlarda o‘quvchilar o‘zлari erkin ravishda gap tuzadilar.

Bu mavzuni o‘quvchilarga yanada osonroq qilib o‘zlashtirishlari uchun turli xil metodlardan foydalansak bo‘ladi:

1. Misollar orqali o‘rganish

Har bir gap turiga oid misollar keltirish va ularni tahlil qilish. Masalan, "Bu kitob juda qiziqarli." — darak gap.

2. Rol o‘ynash orqali.

O‘quvchilarni turli vaziyatlarda gaplarni qo‘llashga undash. Masalan, bir o‘quvchi savol beradi, boshqasi javob beradi.

3. Interfaol mashg‘ulotlar orqali.

"Kim gap turini topadi?" kabi o‘yinlar orqali bolalar gap turlarini aniqlashga o‘rganadilar.

4. Guruhiy ishlar orqali.

Guruhiy shakllantirib, har biriga gap turlarini aniqlash bo‘yicha topshiriqlar berish.

Bu usul o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlikni oshiradi.

5. Mashqlar orqali.

Turli gap turlarini qo'llab, matnlar yaratishga undash. Bu ularning yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantiradi.

6.Tahlil orqali.

O'quvchilarga matn berib, undagi gap turlarini aniqlashni topshirish. Bu usul nazariy bilimlarni mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich sinflarda gap turlarini o'rgatish jarayonida nazariy bilimlar bilan birga amaliy mashg'ulotlarga e'tibor qaratish muhim. O'quvchilarni faol ishtirok etishga undash orqali ularning til qobiliyatlarini samarali rivojlantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G'ulomova, Sharofat Yo'ldosheva, Sharoljon Sariyev "Ona tili o'qitish metodikasi". 2009. 321-bet.
2. Hamrayev Madrim, Shodmonqulova Dilorom, Dosanova Nuriddin "Ona tili va bolalar adabiyoti (1-qism ona tili)". 2022. 151-152-bet.
3. Nargiza Erkaboyeva, Nosirjon Uloqov, Mo'minjon Siddiqov, Ilhomjon Madrahimov "O'zbek tilidan maruzalar to'plami". 2021. 466-468-bet.
4. Internet resurslari(azkurs.uz)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14251907>

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA LUG‘AT USTIDA ISHLASH BO‘YICHA AYRIM MULOHAZALAR

Suyunova Munisa

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich ta’lim fakulteti Boshlang‘ich ta’lim fakulteti
2-kurs talabasi

M.A.Hamrayev

Ilmiy Rahbar: Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich ta’lim fakulteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada ona tilining leksikologiya bo‘limini o‘qitish usullari yo‘nalishlari haqida ma’lumotlar keltirib o‘tiladi*

KALIT SO‘ZLAR: *Leksikologiya, so‘z, lug‘at, tushuncha, adabiy til, so‘z ma’nosi.*

АННОТАЦИЯ: В данной статье дана информация о направлениях методики преподавания раздела лексикологии родного языка.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Лексикология, слово, словарь, понятие, литературный язык, значение слова.

ABSTRACT: *In this article, information is given about the directions of teaching methods of the lexicology section of the mother tongue.*

KEY WORDS: *Lexicology, word, dictionary, concept, literary language, word meaning.*

Leksikologiya (yunoncha Lexis – со‘з, logos – фан, та’лим) со‘з haqidagi fan bo‘lib (uni o‘zbek tilida со‘зшунослик deb ham atashadi), muayyan tilde ishlataladigan barcha со‘злар shu tilning lyg‘at boyligini tashkil qiladi. Со‘з tilning ma’no bildiradigan asosiy birligidir. Со‘з va со‘з birikmasi aniq narsalarni, mavhum tushunchalarni, hissiyotni ifodalaydi. Tilda mavjud bo‘lgan barcha со‘з va iboralarning yig‘indisi lug‘at tarkibi yoki leksika deyiladi. Leksikologiya lug‘at tarkibidagi со‘zlarning nutqda ma’no ifodalash xususiyati, qo‘llanish faolligi, boyib borishi, ba’zi со‘zlarning eskirib, iste’moldan chiqib ketishi, ma’no ko‘chish hodisasi kabilarni o‘rganadi. Maktabda lug‘at ustida ishslash metodikasi to‘rt asosiy yo‘nalishni ko‘zda tutadi:

1. O‘quvchilar lug‘atini boyitish, ya’ni yangi со‘zlarni, shuningdek, bolalar lug‘atida boyigan ayrim со‘zlamning yangi ma’nolarini o‘zlashtirish. Ona tilining lug‘at boyligini bilib olish uchun o‘quvchi o‘z lug‘atiga har kuni 8 — 10 ta yangi со‘zn i, shu jumladan, ona tili darslarida 4 — 6 со‘zni qo‘shishi, ya’ni shu со‘zlar m a’nosini o‘zlashtirishi lozim.
2. O‘quvchilar lug‘atiga aniqlik kiritish. Bu o‘z ichiga quyidagi larni oladi:
 - 1) o‘quvchi puxta o‘zlashtirmagan со‘zlam ing m a’nosini to‘liq o‘zlashtirish, ya’ni shu со‘zlarni matnga kiritish, m a’nosi yaqin so‘zlarga qiyoslash, antonim tanlash yo‘llari bilan ulam ing m a’nosiga aniqlik kiritish;
 - 2) со‘zning kinoyali m a’nosini, ko‘p ma’noli со‘zlarni o‘zlashtirish;
 - 3) со‘zlarning sinonimlarini, sinonim со‘zlarning ma’no qirralarini o‘zlashtirish;
 - 4) ayrim frazeologik birlıklarning ma’nosini o‘zlashtirish.
3. Lug‘atni faollashtirish, ya’ni o‘quvchilar ma’nosini tushunadi gan, ammo o‘z nutq faoliyatida ishlatmaydigan nofaol lug‘atidagi со‘zlarni faol lug‘atiga o‘tkazish. Buning uchun shu со‘zlar ishtirokida со‘z birikmasi va gaplar tuziladi, ular o‘qiganlarni qayta hikoyalash, suhbat, bayon va inshoda ishlataladi.
4. Adabiy tilda ishlatilmaydigan со‘zlarni o‘quvchilar faol lug‘atidan nofaol lug‘atiga o‘tkazish. Bunday со‘zlarga bolalarning nutq muhiti ta’sirida o‘zlashib qolgan adabiy til me’yoriga kirmaydigan, ayrim adabiy asar va со‘zlashuv tilida qo‘llanadigan sodda со‘z va iboralar, sheva va ijtimoiy guruhga oid со‘zlar kiradi

Bu yo‘nalishlar leksikologiya bo‘limini o‘qitishning eng asosiy yo‘nalishi hisoblanadi. Endi mana shu 4 yo‘nalish asosida o‘quvchilarga so‘zlarni tushuntirishning ba’zi usullarini ko‘rib chiqsak:

1. So‘zni kontekst asosida tushuntirish. Bunda o‘quvchilar tushun maydigan so‘z ularga tushunarli so‘zlar qo‘llangan gap (yoki matn) yordamida tushuntiriladi.
 2. So‘z ma’nosini lug‘atdan va o‘qish kitoblarida matn ostida berilgan izohdan foydalanib tushuntirish. Bunda o‘quvchilarni izohdan mustaqil foydalanib, so‘z ma’nosini mustaqil tushunib olishga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega.
 3. So‘z ma’nosini shu so‘zning ma’nodoshi yordamida tushuntirish. Masalan, sabo — shabada, mudofaa — himoya, sozanda — musiqachi, diyor — vatan, inshoot — bino, samo — osmon kabi. So‘zni sinonim tanlash bilan tushuntirganda, shu so‘zning stilistik (uslubiy) ahamiyatini ham ko‘rsatish zarur.
 4. Tanish bo‘lmagan so‘z bilan ifodalangan tushunchani tanish bo‘lgan so‘z bilan ifodalangan tushunchaga (uning antonimiga) taqqoslash orqali tushuntirish. Masalan, ishchan tushunchasini dangasa tushunchasiga, rostgo‘y so‘zini yolg‘onchi so‘ziga taqqoslab tushuntirish mumkin. Ko‘chma ma’noda ishlatilgan so‘z va so‘z birikmalar, tasviriy vositalar, maqollar ham taqqoslash usulidan foydalanib tushuntiriladi.
 5. So‘zni o‘ziga yaqin tushuncha — boshqacha ifoda etish bilan tushuntirish. Bunda tushuntiriladigan so‘zning izohi qisqa va aniq bo‘lishi kerak. Masalan, o‘zboshimchalik — o‘z xohishicha ish tutish, ishni o‘zi xohlaganicha bajarish; mutaxassis — biror hunar egasi; shunqor — uzoq uchadigan ko‘zi o‘tkir qush; mesh — mol terisidan tikilgan idish; guldon — gul solib qo‘yiladigan idish va boshqalar.
- 1-topshiriq. 0’n ikkita so‘z berilgan (in, oz, es, iz, ov, il, esh, og‘, ig‘, ek, et). Ularni qanday qilib uch guruhga ajratib yozish mumkin?
- 2-topshiriq. Sinonimlar qatoridagi so‘zlarga zid m a’no anglatadigan juftlarni topib yozing.

K atta —

U lkan —

Buyuk —

Ulug‘ —

XULOSA

Shuni aytib o‘tish muhimki, o‘quvchilarga boshlang‘ich sinflardan boshlab o‘qitilishi muhim bo‘lgan ona tili bo‘limlaridan biri bu - leksikologiya bo‘limi hisoblanadi. O‘quvchi nutqi ta’sirchanligi , mazmunga boyligi va shu o‘rinda go‘zalligi ham albatta ularning so‘z boyligiga bog‘liq. Ammo ushbu bo‘limni o‘qitish jarayonida muammo va qiyinchiliklarga duch kelish mumkin. Yuqorida tahlil etilgan usul va yo‘llar albatta bu boradagi qiyinchiliklarni bartaraf etishda qo‘l keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. K.Qosimova, S.Matchonov, X.G‘ulomova, SH.Yo‘ldosheva, SH. Sariyev “Onatili o‘qitish metodikasi”. Toshkent-2009 “NOSIR” nashriyoti 309-bet.
2. B.To‘xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” . Toshkent-2006 “O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi” nashriyoti 67-bet.
3. O.Roziqov, M.Mahmudov, B.Adizov, A. Hamroyev “Ona tili didaktikasi” . Toshkent-2005 ‘Yangi asr avlodii” nashriyoti 129-bet

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14251915>

MOLIYA-BANK SOHASIDA SUN'iy INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI

Xidirova Noila Boymurotovna

Iqtisodiyot va Pedagogika Universiteti o'qituvchisi
noilaxidirova@gmail.com

Oromova Shodiyona Sodiq qizi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabasi
oromovashodiyona81@gmail.com

Otajonova Kamila Rajabboyevna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabasi
kamilaotazonova147@gmail.com

Uralova Kumush Jahongir qizi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabasi
kumushuralova68@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada moliya-bank sohasida sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining qo'llanilishi, ularning samaradorligi va imkoniyatlari tahlil qilinadi. SI tizimlari moliya va bank xizmatlarining sifatini oshirish, mijozlar bilan aloqalarni yaxshilash va risklarni boshqarish imkoniyatlarini taqdim etadi. Maqola, shuningdek, SI texnologiyalarining moliya sohasidagi amaliyotlari va kelajakdagi istiqbollarini ko'rib chiqadi.

Kalit So'zlar: Sun'iy intellekt, moliya, bank, avtomatlashtirish, ma'lumotlar tahlili, risklarni boshqarish, mijozlar bilan aloqalar.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется использование технологий искусственного интеллекта (ИИ) в финансово-банковском секторе, их эффективность и возможности. Системы СИ предоставляют возможности повышения качества финансовых и банковских услуг, улучшения отношений с клиентами и управления рисками. В статье также рассматривается практика и будущие перспективы использования технологий СИ в финансах.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, финансы, банковское дело, автоматизация, анализ данных, управление рисками, отношения с клиентами.

ANNOTATION

This article analyzes the use of artificial intelligence (AI) technologies in the financial and banking sector, their effectiveness and capabilities. SI systems provide opportunities to improve the quality of financial and banking services, improve customer relationships and manage risk. The article also discusses the practice and future prospects for using SI technologies in finance.

Keywords: Artificial intelligence, finance, banking, automation, data analysis, risk management, customer relations.

Kirish.

Moliya va bank sohasida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari joriy etilishi ushbu sohaning transformatsiyasini ta’minlaydi. SI yordamida moliya institutlari, banklar va moliyaviy xizmatlar samaradorligini oshirish, mijozlarga yaxshiroq xizmat ko‘rsatish va risklarni boshqarish jarayonlarini optimallashtirish mumkin.

Asosiy qism

1. Sun’iy intellekt.

Sun’iy intellekt — bu kompyuterlar va tizimlarga inson intellektiga o‘xshash fikrlash, o‘rganish, tushunish va qaror qabul qilish qobiliyatini beradigan texnologiyalar to‘plamidir. SI texnologiyalari, xususan, mashina o‘rganish, tabiiy tilni qayta ishlash va algoritmlar orqali ma’lumotlar tahlilini o‘z ichiga oladi.[1]

2. Moliya-bank sohasida sun’iy intellektning qo‘llanilishi

—Risklarni Boshqarish: SI yordamida banklar kredit tarixi va moliyaviy holatlarni tahlil qilib, risklarni aniqlash va boshqarish imkoniyatlariga ega bo‘ladi.

—avtomatlashtirilgan mijozlar xizmatlari: Chatbotlar va virtual yordamchilar yordamida mijozlarga tez va samarali xizmat ko‘rsatish mumkin.

—fraud monitoring: SI algoritmlari orqali moliyaviy firibgarliklarni aniqlash va oldini olish jarayonlarini avtomatlashtirish mumkin.

—Shaxsiylashtirilgan takliflar: Mijozlarning xarid qilish odatlarini o‘rganish orqali shaxsiylashtirilgan mahsulot va xizmatlar taklif etiladi.

3. Amaliyotlar va misollar

—Zamonaviy banklar: Ko‘plab banklar SI texnologiyalarini, masalan, JPMorgan Chase, HSBC va boshqa yirik moliya institutlari, risklarni baholash va mijozlar xizmatlarini yaxshilash uchun qo‘llaydi.

—Fintech kompaniyalari: Fintech sohasida sun’iy intellektdan foydalanish, masalan, Onlayn kreditlash va investitsion xizmatlar sohasida juda keng tarqalgan.[2]

Risklarni boshqarish

Risklarni boshqarish — bu tashkilotlar va kompaniyalar uchun potentsial xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va ularni boshqarish jarayonidir. Bu jarayon, moliya, ishlab chiqarish, xizmatlar va boshqa sohalarda muhim ahamiyatga ega, chunki har qanday faoliyatda risklar mavjud bo‘lishi mumkin.

1. Risk turlari

—Moliyaviy risklar: Investitsiyalar, likvidlik va kredit risklari.

—Operativ risklar: Ichki jarayonlar, inson xatolari, tizim nosozliklari.

—Bozor risklari: Narxlar o‘zgarishi, talab va taklifdagi o‘zgarishlar.

2. Risklarni aniqlash

Risklarni aniqlash jarayoni, tashkilotning ichki va tashqi muhitini o‘rganish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda quyidagi metodlardan foydalilanadi:

—Suhbatlar va intervylar: Xodimlar va mutaxassislar bilan suhbat orqali risklar haqida ma’lumot to‘plash.

—Brainstorming: Guruh muhokamalari orqali potentsial xavflarni aniqlash.

—Tarjimai hol: Oldingi muvaffaqiyatsizliklar yoki muammolarni o‘rganish.

3. Risklarni baholash

Aniqlangan risklar, ularning ta’sir kuchi va ehtimolligiga ko‘ra baholanadi.

Baholash jarayonida quyidagi usullar qo‘llaniladi:

—Kvalitatif baholash: Risklarni yuqori, o‘rta yoki past darajada tasniflash.

—Kvantitativ baholash: Riskning moliyaviy oqibatlarini hisoblash.

4. Risklarni boshqarish strategiyalari

—Qochish: Xatarli faoliyatlardan qochish.

—Kamaytirish: Risklarni minimallashtirish uchun strategiyalar ishlab chiqish.

—Qabul qilish: Risklarni qabul qilish va ular bilan shug‘ullanish.

5. Nazorat va monitoring

Risklarni boshqarish jarayonida nazorat va monitoring qilish muhimdir. Bu jarayon:

—Risklarni doimiy ravishda kuzatish.

—Risklar haqidagi ma’lumotlarni yangilash va tahlil qilish.

—Qabul qilingan choralarni baholash va zaruratga qarab o‘zgartirish.[4]

Avtomatlashtirilgan mijozlar xizmatlari

Avtomatlashtirilgan mijozlar xizmatlari — bu mijozlar bilan aloqalarni samarali va tezkor tarzda boshqarish uchun sun’iy intellekt, dasturiy ta’minot va avtomatlashtirish texnologiyalaridan foydalanadigan tizimlar. Ushbu xizmatlar kompaniyalarga resurslarni tejash, mijozlarning ehtiyojlarini tezda qondirish va umumiylashtirish imkonini beradi.

1. Avtomatlashtirilgan mijozlar xizmatlarining turlari

—Chatbotlar: Mijozlar bilan suhbat qilish uchun mo‘ljallangan dasturlar. Ular odatda tez-tez beriladigan savollarga javob berish, buyurtmalarni joylashtirish va muammolarni hal qilishda yordam beradi.

—Virtual yordamchilar: Mijozlar xizmatlari jarayonida ko‘proq murakkab vazifalarni bajaradigan tizimlar. Masalan, mijozlarga takliflar berish yoki xizmatlar haqida ma’lumot taqdim etish.

—Avtomatik javob berish tizimlari: Telefon orqali keladigan chaqiriqlarga avtomatik javob berish imkonini beruvchi tizimlar.

2. Foydalar

—Tezkorlik: Mijozlar savollariga va muammolariga tez javob berish orqali xizmatning samaradorligini oshiradi.

—Ish vaqt: 24/7 xizmat ko‘rsatish imkoniyatlari, bu esa mijozlarga istalgan vaqtida yordam olish imkonini beradi.

Xulosa.

Moliya-bank sohasida sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanilishi banklar va moliyaviy institutlarga samaradorlikni oshirish, xizmatlarni personalizatsiyalash va xavflarni kamaytirishda katta yordam beradi. Kelajakda, SI texnologiyalari yanada rivojlanishi va moliya sohasida innovatsion yechimlarni taqdim etishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Russell, S., & Norvig, P. (2021). *Artificial Intelligence: A Modern Approach*. Pearson.
2. Srinivas, K. (2018). *Artificial Intelligence in Financial Markets: Cutting Edge Applications for Risk Management, Portfolio Optimization, and Economics*. Academic
3. Xidirova, N. B., qizi Oromova, S. S., & Otajonova, K. R. (2024). MULTIMEDIALI TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING PSIXOLOGIYADA QO 'LLANILISHI. GOLDEN BRAIN, 2(20), 157-161.
4. Xidirova, N. B., & qizi Nomozova, F. A. (2024). RAQAMLI MATERIALLAR VA INTERAKTIV PLATFORMALAR YORDAMIDA TABIIY FANLARNI O 'QITISH. GOLDEN BRAIN, 2(20), 162-166.
5. Egamberdiev, K., Khidirova, N., & Islomov, A. (2024). Creation of an automated information system using python and the django framework with a telegram bot. *Big Data and Computing Visions*, 4(3), 219-226.
6. Egamberdiyev, H. S., & Khujakulov, A. K. (2024). VIRTUAL MUSEUMS AS PART OF A DIGITAL CULTURAL ENVIRONMENT. *Экономика и социум*, (3-1 (118)), 121-125.
7. Egamberdiyev, H., Muqimov, S., & Pulatova, D. (2023). DIGITALIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS AND THE SAMR MODEL. *Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения*, 2(5), 4-7.
8. Xidirova, N. B., & qizi Muqimova, G. Z. (2024). EXCELDA DIAGRAMMALAR BILAN ISHLASH. GOLDEN BRAIN, 2(20), 167-171

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14251925>

TARJIMADA LINGVO-MADANIY XUSUSIYATLARI: INGLIZ TILIDAN - O'ZBEK TILIGA

Maxamadova Go‘zaloy Elyorbek qizi

Xorijiy filologiya fakulteti,

Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo‘nalishi, 3-kurs talabasi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti,

Toshkent shahri.

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqola ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida lingvomadaniy xususiyatlarning ahamiyatini tahlil qiladi. Tarjima ikki tilni emas, balki ikki madaniyatni bog‘lovchi jarayon sifatida qaraladi. Tadqiqotda tarjimada uchraydigan madaniy tafovutlar, idiomatik ifodalar, qadriyatlar va urf-odatlarning tarjima sifatiga ta’siri o‘rganiladi. Lingvistik vamadaniy tafovutlarni yengish usullari tahlil qilinib, tarjimonlarning mas’uliyatiga alohida e’tibor qaratiladi. Maqola tarjima jarayonidagi madaniy xatolarning oldini olish yo‘llarini taklif qiladi vatarjimonlar hamda tarjima sohasidagi tadqiqotchilar uchun foydali bilim manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: lingvomadaniy xususiyat, urf-odatlar, qadriyatlar, madaniy tafovutlar, idiomatik ifodalar, metafora.

Kirish:

Tarjima hagida ilk nazariy fikrlar dastlab qadim Rimda yuzaga kelgan edi. Yunon va lotin tillarini mukammal o‘zlashtira olgan Aristotel, Sitseron va Goratsiy

tarjima jarayonida so‘z ketidan quvish yaramaydi, ularing ma’no ifodalarini avval tarozida o‘Ichab, keyin tarjima qilish ma’qui, degan fikrlarni olg‘ a surishgan. Undan song Italiyada Bartolomeo va Manetti, Fransiyada Dyu Belle va Malerb, Angliyada Bekon va Drayden, Germaniyada Gyote va Gumboldt, Rossiyada Lomonosov va Sumarokov tarjima borasida o‘z nazariy tushunchalarini olg‘a surib borganlar. Sumarokov tarjima borasida o‘z nazariy tushunchalarini olg‘a surib borishganlar. To XX asrga qadar "tarjima" so‘zi muayyan ma’no kasb etib, faqat tarixiy, falsafiy va adabiy asarlar o‘girmasiga nisbatan qo‘llanilib kelingan, og‘zaki tarjimonga nisbatan esa turkiyda "tilmoch", slavyanlarda "tolmach", nemis tilida "dolmetschen", ingliz va fransuz tillarida "interpret" atamalari ishlataligancha.

Bugungi globallashuv davrida til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni anglash, ayniqsa tarjima sohasida, muhim ahamiyat kasb etadi. Tarjima jarayonida madaniy xususiyatlarni e’tiborga olmaslik matnning noto‘g‘ri talqin qilinishiga yoki asl ma’noni yo‘qotishiga olib kelishi mumkin. Masalan, Coca-Cola kompaniyasi Xitoy bozoriga kirishda mahsulot nomini “mumiyani ichish” deb tarjima qilib, madaniy tafovutlarni hisobga olmagani tufayli qiyinchiliklarga duch kelgan. Ushbu xato lingvistik va madaniy jihatlarni chuqur tushunish qanchalik muhimligini ko‘rsatadi. Shu bois, tarjima jarayonida madaniy kontekstni to‘g‘ri talqin qilish tarjimonning asosiy vazifasidir. Tarjima gilinayotganda 2 ta man bilan ish ko‘riladi, shundan biri ikkinchisiga bog‘liq bolmagan holda yaratilgan bo‘lib, manba matn vasifasini bajaradi, ikkinchisi esa bir gancha amallar, tillararo transformatsiyalar orgali bir matn asosida yaratiladi. Birinchi matn orginal tekst deb atalsa, ikkinchisi tarjima teksti deb yuritiladi. Orginal matn yozilgan til manba til (source language) deb ataladi. Orginal tekst agdarilayotgan til esa tarjima tili deb yuritiladi (target language).

1. Madaniy farqlar va ularning ta’siri

Ingliz tili va o‘zbek tili o‘rtasidagi madaniy farqlar tarjima jarayonini murakkablashtiradi. Masalan, ingliz tilidagi “small talk” (qisqa, oddiy suhbat) iborasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinsa, o‘zbek o‘quvchisi uchun begona madaniyatni aks ettiradi. O‘zbek tilida bu turdagи ijtimoiy muloqotga xos atama yo‘q, chunki bunday

suhbat shakli ingliz madaniyatiga xos. Tarjimon bunday hollarda madaniy farqlarni e'tiborga olib, tushuntirish yoki muqobil iborani tanlash zaruratiga duch keladi.

Bunga yana bir misol — amerikaliklarning “It’s raining cats and dogs” idiomasi. Agar bu ibora o’zbek tiliga so‘zma-so‘z “Mushuklar va itlar yog‘moqda” deb tarjima qilinsa, ma’no noto‘g‘ri talqin qilinadi va chalkashlik yuzaga keladi. To‘g‘ri tarjima esa kontekstdan kelib chiqib, “Juda kuchli yomg‘ir yog‘moqda” tarzida bo‘lishi kerak.

Bu kabi holatlar tarjimaning nusxa ko‘chirishemasligini ko‘rsatadi. Tarjima jarayonida tarjimonning estetik ehtiyoji va madaniyatlararo tafovutlarga nisbatan sezgirligi, ularning ixtiyoridan tashqari, tarjimada iz qoldiradi. Tarjimon nafaqat tilni, balki madaniyatni ham o‘zlashtirishga mas’uldir. Shu sababli, tarjima nafaqat matnni o‘girish, balki uning mazmun va madaniy kontekstini ham o‘quvchiga yetkazishdir.

2.Idiomatik ifodalar va ularning tarjimadagi o‘rni.

Idiomatik ifodalar — bu tilning o‘ziga xos tuzilmalari bo‘lib, ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri so‘zma-so‘z tarjima qilinganida asl ma’noni yo‘qotadi. Bunday ifodalar odatda biror ijtimoiy, madaniy yoki tarixiy kontekstga ega bo‘lib, ularga to‘liq tushuncha berish uchun faqat matnning o‘zini emas, balki madaniyatni ham inobatga olish zarur.

Idiomatik ifodalar har bir tilning o‘ziga xos boyligi bo‘lib, ularning mazmuni so‘zma-so‘z tarjima qilinsa, noto‘g‘ri tushunilishga olib kelishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi “Break the ice” idiomasi o’zbek tiliga so‘zma-so‘z tarjima qilinganda “Muzni sindirish” degan ma’no beradi. Ammo bu iboraning asl mazmuni birinchi muloqotni boshlash yoki noqulay sukunatni buzishdir. Shuning uchun, tarjimonda mazmunni kontekstdan kelib chiqib, to‘g‘ri ifodalash talab qilinadi. To‘g‘ri tarjima esa “Suhbatni iliq boshlash” yoki “Noqulaylikni yo‘qotish” tarzida bo‘lishi mumkin.

Shuningdek, amerikaliklarga xos bo‘lgan “Hit the sack” (to‘sakka urilmoq) idiomasi ham o’zbek tilida tushunarsiz bo‘lishi mumkin. Aslida bu ibora “uxlashga yotmoq” ma’nosini anglatadi. Tarjimon ushbu iborani so‘zma-so‘z tarjima qilish o‘rniga uning mazmunini o’zbek tilida mantiqan mos ifoda bilan almashtirishi kerak.

Buni misollar bilan ko‘rib chiqsak: Let the cat out of the bag — “Sirni oshkor qilish”

Bu ingliz tilidagi idioma: “Let the cat out of the bag” aslida biror sirni tasodifan ochib qo‘yish yoki oshkor qilish ma’nosini anglatadi. Bu ibora o‘zining dastlabki shaklida bozorga olib chiqilgan jonivorni (asosan mushukni) bozorga sotish paytida xato qilib chiqarib yuborishdan kelib chiqqan. O‘zbek tilida “Sirni oshkor qilish” atamasi to‘g‘ri ekvivalent hisoblanadi, chunki bu ifoda ham xuddi shunday ma’noni anglatadi: biror kishi yoki hodisa yashirilgan narsa oshkor bo‘lishi.O‘zbek tilidagi “sirni oshkor qilish” idiomasi ingliz tilidagi “let the cat out of the bag” bilan ma’no jihatidan bir xil. Tarjimada ma’noni saqlashga e’tibor berilgan.

Keyingisi Under the weather” — “O‘zini yomon his qilish”

“Under the weather” idiomasi aslida kimningdir sog‘lig‘i yomon bo‘lishini bildiradi. Bu ibora dastlab dengizchilarning salomatlik holatini tasvirlashda ishlatilgan: agar odam dengizda kasal bo‘lsa, u “the weather” (ob-havo) ostida bo‘lgan deb qaralardi.O‘zbek tilida bu idiomaga eng mos keladigan tarjima “O‘zini yomon his qilish” bo‘ladi, chunki bu ibora ham ayni shu ma’noni anglatadi, ya’ni odamning sog‘lig‘i yomonlashganini ifodalaydi.Bu idiomani tarjima qilishda, asl ma’no to‘liq saqlanadi, faqat kontekstga qarab, yomon his qilishni aniqroq ifodalash uchun boshqa so‘zlar ishlatilishi mumkin. Biroq, umumiy tushuncha bir xil bo‘ladi.

Idiomatik ifodalarni tarjima qilishda, ba’zan to‘g‘ridan-to‘g‘ri so‘zma-so‘z tarjima qilish mumkin bo‘ladi, chunki ba’zi iboralar o‘xshash madaniy kontekstlarga ega.

- Biroq, ba’zan tarjimon kontekstga mos ravishda mos iborani tanlashga majbur bo‘ladi.

- O‘zbek va ingliz tillari o‘rtasidagi madaniy tafovutlarni hisobga olib, ba’zi inglizcha idiomalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilish ma’nosiz bo‘lishi mumkin. Shu sababli, tarjimonning maqsadi — faqat grammatikani o‘zgartirish emas, balki madaniy va tilni o‘zaro moslashtirish hamdir.

3.Urf-odatlar va qadriyatlar tarjima jarayonida muhim o‘rin tutadi, chunki ular tilning va madaniyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Har bir til o‘zining ijtimoiy, tarixiy, va madaniy xususiyatlariga asoslanib, odamlar o‘rtasidagi muloqotda keng qu‘llaniladigan urf-odatlar va qadriyatlarni o‘z ichiga oladi. Tarjimada bu omillarni

hisobga olmaslik matnning noto‘g‘ritalqiniga yoki tushunilmasligiga olib kelishi mumkin.

Urf-odatlar biror madaniyatdagi o‘ziga xos an’analar, qoidalarga asoslangan ijtimoiy faoliyatlar yoki alohida vaziyatlarga nisbatan o‘rnatilgan ijtimoiy me’yorlardir. Tarjimada urf-odatlarni hisobga olish zarur, chunki bunday an’analar o‘zgartirilgan yoki noto‘g‘ri tarjima qilingan taqdirda, o‘quvchi yoki auditorianing noto‘g‘ri tushunishiga olib kelishi mumkin.

Bunga misol qilib “Wedding toast” — bu ingliz madaniyatida to‘yda yoki boshqa ijtimoiy yig‘inlarda odatiy ravishda ichiladigan va yaxshi tilaklar aytildigan ichimlik. Biroq, o‘zbek madaniyatida bu atama boshqa shaklda ifodalanadi va odatda “to‘yda salom so‘zлari” yoki “to‘y tabrikлari” deb tarjima qilinadi.

Tarjimon bu urf-odatni o‘zbek madaniyatiga moslashtirib, to‘g‘ri tushuncha va ma’noni saqlab qolish uchun atamani o‘zgartirishi zarur.

Qadriyatlar — bu biror madaniyat yoki jamiyatdagi insonlar tomonidan o‘rnatilgan axloqiy va estetik mezonlardir. Ular odamlarning yaxshi yoki yomon, to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri deb hisoblagan narsalari, xulq-atvorni boshqaradigan tamoyillarni o‘z ichiga oladi. Tarjima jarayonida qadriyatlar madaniy farqlarni aniqlashda va mazmunni to‘g‘ri ifodalashda muhim ahamiyatga ega.

Madaniyatlararo farqlar nafaqat urf-odatlar vaqadriyatlar o‘rtasidagi tafovutlarni, balki umuman ma’naviy me’yorlar va tilni qo‘llashdagi farqlarni ham o‘z ichiga oladi. Tarjimon bu farqlarni bilishi zarur, chunki tarjimaning muvaffaqiyatli bo‘lishi faqatgina so‘zлarni to‘g‘ri tarjima qilishda emas, balki madaniy nuqtai nazardan ham to‘g‘ri talqin qilishda yotadi.

Xulosa

Tarjimonlar lingvo-madaniy xususiyatlarni hisobga olishda katta mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi, chunki til va madaniyat o‘rtasidagi farqlar tarjimaning to‘g‘riligini va ma’nosini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. Madaniy tafovutlar, urf-odatlar vaqadriyatlar tarjima jarayonida tarjimonning ijtimoiy, lingvistik va madaniy bilimlarini chuqur talab qiladi. Ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishda madaniy

xususiyatlarni inobatga olish, nafaqat matnni aniq, balki madaniyatlararo muloqotni samarali tashkil etishga imkon beradi. Tarjimada madaniy farqlarni hisobga olgan holda, matnning to‘g‘ri tushunilishi va xatoliklarning oldi olinadi.

Idiomatik ifodalar va madaniy qadriyatlar, tilning o‘ziga xosligini tashkil etadi, shuning uchun ular tarjima jarayonida alohida e’tibor talab qiladi. Tarjima — bu nafaqat so‘zlarning o‘zgarishi, balki ikki madaniyat o‘rtasidagi muloqotning muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun zarur vosita. Tarjimonlar lingvistik vamadaniy tafovutlarni o‘rganib, o‘z ishi orqali madaniyatlararo muloqotning rivojlanishiga hissa qo‘shadilar.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.Baker, Mona. (1992). In Other Words: A Coursebook on Translation. Routledge.
2. Newmark, Peter. (1988). A Textbook of Translation. Prentice Hall.
3. House, Julianne. (2009). Translation: Theory and Practice: A Critical Introduction. Routledge.
4. Larson, M. L. (1984). Meaning-based Translation: A Guide to Cross-language Equivalence. University Press of America.
5. M.Sh Omonova(2023). Tarjima nazariyasi va amaliyoti (o‘quv qo‘llanma).

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14251937>

O'QITUVCHI KASBIY FAOLIYATIDA PEDAGOGIK KOMPETENSIYANING O'RNI

Xaydarova Oliya Kaxxarovna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

“Pedagogika va o'qitish metodikasi” kafedrasи dotsenti p.f.n.

E-mail: oliyaxaydarova63@gmail.com

Abdullayeva Dilnora Mansurovna

Iqtisodiyot va pedagogika universitetining 2-bosqich XTA-I-182-23 guruh talabasi

ANNOTATSIYA

O'qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik kompetensiya o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini samarali shakllantirish, ta'lim jarayonini optimallashtirish va interaktiv darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va sifatlar majmui hisoblanadi. Bu kompetensiya ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'yнaydi, o'qituvchining professional faoliyatining samaradorligini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: *O'qituvchi, pedagogik kompetensiya, kasbiy faoliyat, ta'lim jarayoni, innovatsiyalar, samaradorlik, bilim, ko'nikmalar, yondoshuv, texnologiyalar, metodlar.*

THE ROLE OF PEDAGOGICAL COMPETENCE IN THE PROFESSIONAL ACTIVITY OF A TEACHER

ABSTRACT

In the professional activity of a teacher, pedagogical competence is a set of knowledge, skills and qualities necessary for the effective formation of students' knowledge and skills, optimization of the educational process and conducting interactive lessons. This competence plays an important role in improving the quality of education and ensuring the effectiveness of the teacher's professional activity.

Key words: Teacher, pedagogical competence, professional activity, educational process, innovations, efficiency, knowledge, skills, approach, technologies, methods.

РОЛЬ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПЕДАГОГА

АННОТАЦИЯ

Педагогическая компетентность в профессиональной деятельности учителя – это совокупность знаний, умений и качеств, необходимых для эффективного формирования знаний и умений обучающихся, оптимизации образовательного процесса и проведения интерактивных уроков. Данная компетентность играет важную роль в повышении качества образования, обеспечивает эффективность профессиональной деятельности учителя.

Ключевые слова: Учитель, педагогическая компетентность, профессиональная деятельность, образовательный процесс, инновации, эффективность, знания, умения, подход, технологии, методы.

KIRISH.

O‘qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik kompetensiyaning o‘rni ta’lim jarayonining muvaffaqiyatli va samarali amalga oshirilishida beqiyos ahamiyatga ega. Pedagogik kompetensiya o‘qituvchining o‘z ishiga bo‘lgan professional yondoshuvi, bilim va ko‘nikmalarini doimiy ravishda rivojlantirishga asoslanadi. Bugungi kunda o‘qituvchilar faqat an’anaviy ta’lim metodlariga asoslanmasdan, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondoshuvlarni qo‘llash orqali o‘z faoliyatini samarali tashkil etishlari lozim. Ushbu maqolada pedagogik kompetensiyaning o‘qituvchi kasbiy faoliyatidagi roli, uning ahamiyati va o‘qituvchining sifatli ta’lim berishdagi vazifalari tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘qituvchining kasbiy faoliyatida pedagogik kompetensiyaning o‘rni haqida so‘nggi yillarda turli ilmiy tadqiqotlar, maqolalar va monografiyalar nashr etilgan. Ushbu asarlarda pedagogik kompetensiyaning ta’lim tizimida qanday muhim rol o‘ynashini tushunish uchun uning tuzilishi, asosiy tarkibiy qismlari va amaliy ahamiyatiga oid keng qamrovli tahlillar amalga oshirilgan. Shu o‘rinda M. Sh. Abduqodirovning "Pedagogik kompetensiya: nazariya va amaliyot" nomli asari o‘qituvchining kompetensiyasini rivojlantirishda metodik yondoshuvlarning

ahamiyatini ko'rsatadi. Muallif o'qituvchining professional rivojlanishini ta'minlashda, pedagogik texnologiyalarni qo'llash va zamonaviy pedagogik metodlarni joriy etish zarurligini ta'kidlaydi. U pedagogik kompetensiyani o'qituvchining malakasi, ma'naviy-axloqiy yondoshuvlarini rivojlantirish, bilimlarga chuqurroq yondashish sifatida aniqlaydi. A. A. Qodirov va L. S. Normatovning ilmiy ishlarida pedagogik kompetensiyaning psixologik asoslari tahlil qilingan. Ularning fikricha, o'qituvchining pedagogik kompetensiyasi faqat bilimlar va ko'nikmalarga ega bo'lishdan iborat emas, balki o'qituvchining pedagogik psixologik tajribalari va o'ziga xos shaxsiy fazilatlari bilan bog'liqdir. Bu asarlarda o'qituvchining muloqotda bo'lish, talaba psixologiyasini tushunish va innovatsion yondoshuvlarni qo'llash qobiliyatlari hamda kompetensiyani shakllantirish jarayoniga to'xtalib o'tilgan. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligining pedagogik kompetensiya to'g'risidagi normativ hujjatlari ham bu sohada asosiy yo'naliishlarni belgilab beradi. Xususan, "Pedagogik kompetensiyaning rivojlanishida innovatsion texnologiyalarning o'rni" nomli risolada, o'qituvchilarining pedagogik kompetensiyasini oshirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining, masalan, interaktiv ta'lim, elektron ta'lim resurslari va onlayn platformalarning ahamiyati ko'rsatilgan. Shuningdek, X. A. To'raqulovning "Pedagogik mahorat va uning o'qituvchining kasbiy faoliyatidagi o'rni" asarida o'qituvchining pedagogik mahorati va uning ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga erishishdagi roli tahlil qilinadi. Yozuvchi o'qituvchining pedagogik mahoratining nafaqat bilim berishda, balki talabalarning dunyoqarashini shakllantirishda, axloqiy va estetik qadriyatlarni o'rgatishda ham muhimligini ta'kidlaydi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, pedagogik kompetensiya faqat o'qituvchining kasbiy malakasini oshirish bilan cheklanmaydi. Uning tarkibiga o'qituvchining shaxsiy fazilatlari, pedagogik usullarni to'g'ri tanlash va amaliyotga joriy etish qobiliyatları kiradi. Pedagogik kompetensiya rivojlanishining har tomonlama tahlili, o'qituvchilarining malakali, innovatsion yondoshuvlarni qo'llashdagi muvaffaqiyatlarini ta'minlashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

O‘qituvchining kasbiy faoliyati ta’lim jarayonining asosi bo‘lib, uning samaradorligi, talabalarning bilim olish jarayoni, shuningdek, jamiyatning intellektual va ma’naviy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Pedagogik kompetensiya o‘qituvchining o‘z kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilimlar, ko‘nikmalar, qobiliyatlar, shaxsiy xususiyatlar va tajribalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu maqolada pedagogik kompetensiyaning o‘qituvchining kasbiy faoliyatidagi o‘rni, uning tarkibi va rivojlanishining muhim jihatlari tahlil qilinadi. Pedagogik kompetensiya — bu o‘qituvchining o‘z faoliyatini samarali tashkil etish, ta’lim berish, talabalarning o‘qish motivatsiyasini oshirish, ta’lim jarayonini individual xususiyatlarga qarab moslashtirishga qodir bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan malakalar va sifatlarning yig‘indisi. U nafaqat o‘qituvchining bilim va ko‘nikmalarini, balki uning pedagogik tafakkurini, ijodiy yondoshuvlarini, kommunikativ qobiliyatlarini va etika me’yorlarini ham o‘z ichiga oladi.

Pedagogik kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilar:

1. Kasbiy bilimlar — O‘qituvchi o‘z sohasida chuqur bilimga ega bo‘lishi kerak. Bu, o‘qitilayotgan fan bo‘yicha bilimlarni puxta egallashni anglatadi. Pedagogik bilimlar esa ta’lim metodlari, usullari va texnologiyalarini bilishni talab qiladi.
2. Pedagogik ko‘nikmalar — Bu o‘qituvchining ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan metod va usullarda o‘zini qanday tutishiga, ta’lim materiallarini qanday taqdim etishga qaratilgan amaliy ko‘nikmalardir. Bu ko‘nikmalar o‘qituvchining murakkab vazifalarni bajarish, talabalarning individual ehtiyojlarini inobatga olish qobiliyatini o‘z ichiga oladi.
3. Shaxsiy xususiyatlar — O‘qituvchining professional faoliyatida ko‘rsatiladigan shaxsiy fazilatlar, ya’ni uning kommunikativligi, ijodkorligi, insho qilishi, talaba bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishi kabi qibiliyatlar pedagogik kompetensiyaning ajralmas qismidir.
4. Innovatsion yondoshuvlar — Zamonaviy ta’lim metodlari va texnologiyalariga tayangan holda pedagogik kompetensiya, yangi pedagogik texnologiyalar va

interaktiv metodlarni qo'llashni o'z ichiga oladi. Bu o'qituvchidan kreativlik, yangiliklarga ochiqlik va doimiy o'rganish talab etadi.

Pedagogik kompetensiya o'qituvchining o'z ishini samarali bajarishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi nafaqat ta'lim beruvchi, balki talabalarning shaxsiy rivojlanishiga, ularning dunyoqarashining shakllanishiga va ijtimoiy hayotga tayyorlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun pedagogik kompetensiya o'qituvchining nafaqat o'zini, balki jamiyatni rivojlantirishdagi vazifasini ham belgilaydi.

1. Samarali ta'lim jarayoni — Pedagogik kompetensiyaga ega o'qituvchi talabalarning bilim va ko'nikmalarini samarali tarzda oshiradi, ular o'rtasida motivatsiya yaratadi va o'qish jarayonini qiziqarli va foydali qiladi. Bu o'qituvchining o'z ishini qanday tashkil etishi, talabalarning individual ehtiyojlariga qanday javob berishi bilan bog'liq.
2. Talabalar bilan samarali aloqa — O'qituvchining pedagogik kompetensiyasi talabalar bilan o'zaro munosabatlarda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchining o'ziga xos kommunikativ qobiliyatları, talabalarning psixologik holatini tushunishi va unga mos yondashuvi samarali ta'limning asosini tashkil etadi.
3. Insoniy qadriyatlar va axloqiy me'yorlar — Pedagogik kompetensiya, shuningdek, o'qituvchining axloqiy me'yorlarga rioya qilishini, talabalarga ma'naviy qadriyatlarni o'rgatishda qanday yondoshuvlarni tanlashini ham belgilaydi. O'qituvchi o'z kasbiy faoliyatida to'g'ri axloqiy mezonzarga amal qilishni talab etadi. Zamonaviy ta'lim tizimi o'qituvchilarining pedagogik kompetensiyasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi. Har bir o'qituvchi o'z kasbiy malakasini oshirish uchun doimiy ravishda o'rganish, yangi metodlar va texnologiyalarni qo'llash, ta'lim jarayonini optimallashtirishga intilishi kerak. Pedagogik malaka oshirish — O'qituvchining pedagogik kompetensiyasini oshirishda malaka oshirish kurslari, seminarlar, konferensiylar, onlayn ta'lim platformalari muhim ahamiyatga ega. Ular o'qituvchilarga yangi metod va texnologiyalarni o'rganishga yordam

beradi. Innovatsion yondoshuvlar va texnologiyalar — O‘qituvchining kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy ta’lim texnologiyalarining qo‘llanilishi muhimdir. Interaktiv ta’lim, raqamli resurslar, onlayn ta’lim platformalari, smart ta’lim tizimlari kabi yangiliklar o‘qituvchilarning pedagogik kompetensiyasini oshirishda samarali vosita bo‘lishi mumkin.

XULOSA

O‘qituvchining kasbiy faoliyatida pedagogik kompetensiyaning o‘rni beqiyosdir. Pedagogik kompetensiya o‘qituvchining nafaqat kasbiy bilimlarini, balki uning psixologik, kommunikativ va axloqiy ko‘nikmalarini ham o‘z ichiga oladi. Ushbu kompetensiya o‘qituvchining ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, talabalarining bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, ta’lim jarayoniga innovatsion yondoshuvlarni qo‘llashda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda ta’lim sohasidagi o‘zgarishlar, yangi texnologiyalar va ta’lim metodikalarining joriy etilishi pedagogik kompetensiyaning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuning uchun o‘qituvchilar o‘z kompetensiyalarini doimiy ravishda yangilab borishlari kerak.

TAKLIFLAR

1. Malaka oshirish tizimini yaxshilash — O‘qituvchilarning pedagogik kompetensiyasini oshirish uchun muntazam malaka oshirish kurslari, seminarlar va treninglar tashkil etilishi zarur. Bu jarayon o‘qituvchilarga yangi pedagogik texnologiyalarni o‘rganishga va amaliyotda qo‘llashga yordam beradi.
2. Innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etish — O‘qituvchilarni zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan tanishtirish va ularni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish muhimdir. Elektron ta’lim resurslari, interaktiv ta’lim usullari va masofaviy ta’lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish o‘qituvchilarning pedagogik kompetensiyasini oshirishga yordam beradi.
3. Pedagogik kommunikatsiya va psixologik tayyorgarlik — O‘qituvchilarga kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirish va talabalarining psixologik holatini tushunish bo‘yicha treninglar o‘tkazish kerak. Bu o‘qituvchining

talabalarga yaqin bo‘lishi va ularning ehtiyojlariga mos yondashishini ta’minlaydi.

4. Shaxsiy rivojlanish va kreativlikni rag‘batlantirish — O‘qituvchilarning ijodkorlik va shaxsiy rivojlanishiga e’tibor qaratish zarur. Pedagogik kompetensiyani oshirishda o‘qituvchining shaxsiy rivojlanishi va kreativ yondoshuvlaridan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi.
5. Pedagogik bilimlar va metodlarni yaxshilash — O‘qituvchilarga ta’lim metodlari, pedagogik nazariya va amaliyot bo‘yicha yangi bilimlar berish, o‘qituvchining o‘z malakasini oshirish uchun zaruriy metodlarni tanlashda yordam beradi. Buning uchun ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish va metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish muhimdir.
6. Axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni o‘rgatish — O‘qituvchilarning pedagogik kompetensiyasini oshirishda ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni o‘rgatish zarur. Bu, o‘z navbatida, talabalarning ma’naviy va axloqiy rivojlanishiga ta’sir qiladi.

Umuman olganda, o‘qituvchining pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish nafaqat uning o‘zini, balki butun ta’lim tizimini yanada samarali va sifatli qilishga yordam beradi. Shuning uchun o‘qituvchilarni doimiy ravishda malaka oshirishga undash, yangi pedagogik metodlar va innovatsion texnologiyalarni o‘rgatish, shuningdek, ta’lim jarayonida axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni inobatga olish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Мирзиёев, Ш.М. Мы все вместе построим свободное, демократическое и процветающее государство / Ш.М. Мирзиёев. –Ташкент: Узбекистон, 2018. 3. Мирзиёев, Ш.М. Необходимо поднять качество общего среднего образования на новый этап / Ш.М. Мирзиёев. – Ташкент, Совещание, посвященное вопросам реформирования в развития системы общего среднего образования. – 17.07.2018. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11209216>

2. О.К. Хайдарова. Педагогическое общение как центральное звено в творчестве учителя. ISSN 2308-4804. Scienceandworld. 2019. № 2 (66). Vol. II.

3. О.К. Хайдарова.Пути и средства воспитания у студентов творческого отношения к педагогическому труду. Наука и мир. 2020. Стр 40- 41

4. BOSHLANG‘ICH SINF DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION YONDASHUV “PEDAGOGS” international research journal 11-15 bet <https://journalsnuu.uz/index.php/1/article/view/2035>

5. Juraeva Gulandom Murodullayevna. (2024). Pedagogical foundations of prevention of verbal aggression in the school community based on national moral values. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 5(3), 213–217. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/2706>

6. Aziz SA’DULLAYEV. (2024). ASPECTS OF FORMING VOLUNTARY QUALITIES IN OVERCOMING ANXIETY IN ADOLESCENT WRESTLERS. News of UzMU Journal, 1(1.4), 176-179. Retrieved from <https://journalsnuu.uz/index.php/1/article/view/2035>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14251947>

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY MOTIVATSIYASI VA KASBIY KOMPETENTLIGINI O‘ZARO ALOQADORLIKDA RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Zikirova Nodira Yo‘ldoshevna

Iqtisodiyot va Pedagogika Universiteti katta o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishning nazariy asoslari, o‘qituvchilarida kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishda ustoz-shogird an’analari, kasbiy kompetensiyalarni rivojlanishi va metodik tayyorgarligi takomillashishining o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: kompetensiya, motivatsiya, texnologiya, integrativ, kasbiy motivatsiya, kompetentlik, kasbiy kompetent, metodik tayyorgarlik, akmeologik, ijtimoiy motivlar, o‘zini o‘zi rivojlantirish.

METHODOLOGICAL BASIS OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL MOTIVATION AND PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS IN INTERCONNECTION

ABSTRACT

In this article, the theoretical foundations of the formation of professional competence of future teachers, the development of professional skills in teachersthe specific features of the master-disciple traditions, the development of professional competences and the improvement of methodical preparation are revealed in the formation.

Keywords: competence, motivation, technology, integrative, professional motivation, competence, professional competence, methodical training, acmeological, social motives, self-development.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ МОТИВАЦИИ И ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ВО ВЗАИМОСВЯЗИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассмотрены теоретические основы формирования профессиональной компетентности будущих учителей, развития профессиональных навыков учителей. В формировании раскрываются особенности традиции мастер-ученик, развитие профессиональных компетенций и совершенствование методической подготовки.

Ключевые слова: компетентность, мотивация, технология, интегративный, профессиональная мотивация, компетентность, профессиональная компетентность, методическая подготовка, акмеологические, социальные мотивы, саморазвитие.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev «Yoshlarimizning mustaqil fikrلaydigan, yuksak intelektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz» [1] deya bildirgan fikrlari davlatimizning turli sohalarida olib borilayotgan islohotlar asosida o‘z tasdig‘ini topmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagи «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmonining «Ijtimoiy sohani rivojlantirish» deb nomlangan to‘rtinchi yo‘nalishida, 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2909-sonli qarorida oliy ta’lim tizimi sifatini yaxshilash va yanada rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish, o‘qituvchi kadrlarning ma’naviy qiyoфasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar kabi ustuvor vazifalar nazarda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham «...oliy ta’lim tizimida tahsil olish uchun teng imkoniyat

yaratishga qaratilgan ishlarni yanada kuchaytirish zarur, oliv o‘quv yurtlari nufuzini oshirish, nodavlat ta’lim maskanlarini ko‘paytirib, yuqori malakali kadrlarni jalb etish va raqobatni kuchaytirish lozim» deb ta’kidlangan[2,3].

Yuqoridagilarni e’tiborga olib, O‘zbekiston Respublikasi oliv ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan bo‘lajak o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishga katta e’tibor qaratilishi lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Kasb-hunar tarbiyasiningijtimoiy – tarixiy asoslari sharq mutafakkirlari jumladan, “Ma’mun akademiyasi” deb nomlangan Xorazmdagi ilmiy markazda (IX-XII asrlar) faoliyat ko‘rsatgan Muso Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Zamaxshariy, Burhoniddin Marg‘iloniylar ijodida yoshlarga kasbiy ta’lim-tarbiya berish shaxsning qiziqishlari, jamiyat talablari va irsiy omillar bilan bog‘liqligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Kasbga yo‘naltirish, kasb tanlash, kasbiy tayyorgarlik masalalari pedagog, psixolog olimlar tomonidan keng doirada tadqiq qilingan bo‘lib, ular o‘ziga xos yondashuvlarni ilgari suradilar. Jumladan, V.A. Slastenin, N.N. Azizzodjaeva,

J.G‘.Yo‘doshev innovatsion texnologiyalar orqali kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish; SH.E. Qurbanov, E.A. Seytxalilov, F.Yuzlikaev, N.Muslimov, Sh.Sharipov, N.Egamberdiyevalar kasbiy ta’limni shaxs, jamiyat va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiya asosida yo‘lga qo‘yish muammolarini o‘rganganlar.

S.Nishonova, V.Karimova, U.Mahkamov, O.Musurmonova, M.Ochilov, M.Quronov, A.Choriyev, SH.Majitova, N.Ochilova, O.Xaydarova va boshqalarning ishlarida zamonaviy o‘qituvchini tarbiyalash, uning pedagogik faoliyatini samarali tashkil etish, o‘qituvchi odobi, zamonaviy o‘qituvchida kasbiy-ijodiysifatlarining shakllanishida oila, ta’lim muassasalari hamda jamoatchilik o’rni kabi masalalar o’rganilgan.

Tahlil va natijalar.

O‘qituvchi – ta’lim va tarbiya mazmunining boshqaruvchisi, o‘quvchilarining butun ongli faoliyatining tashkilotchisi hisoblanadi. Uning shaxsida pedagogik qadr-

qimmatning obyektiv va subyektiv xususiyatlari ifodalanadi. U obyektiv bilim, malaka va ko‘nikmalarning miqdorini o‘zlashtiradi va shaxsiy qobiliyatlarini me’yorida ularni shakllantirishni tashkil qiladi. Chunki, bugungi kun yoshlarini har tomonlama mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni chuqur egallaydigan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash masalasi davlatimiz oldida turgan eng dolzarb masaladir. Shu sababli, yoshlar har soniya bilim olishdan, olgan bilimlaridan kelib chiqib tajribasini oshirishdan to‘xtamasligi lozim. Zero, ilg‘or xalqaro amaliyotga suyangan holda mamlakatimizni taraqqiyot sari yetaklash oliv maqsaddir.

Tahlil va natijalar.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallahsga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zları qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, taxlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zları keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Hozirgi zamonda hayot juda o‘zgaruvchan. Ta’limdagи katta o‘zgarishlar o‘qituvchining kasbiy ongidagi o‘zgarishlarsiz bo‘lmaydi. Zamonaviy o‘qituvchida zarur bo‘lgan ko‘plab yangi bilimlar, tushunchalar paydo bo‘ldi. Shunday tushunchalardan biri kompetentlilikdir. Bu nima? Biz bu haqda qanday tasavvurga egamiz, ana shu haqda fikr yuritmoqchimiz. **Kompetentlilik**- bu o‘qituvchining noaniq holatda harakat qilish qobiliyati. Hozirgi zamon o‘qituvchisi doimo ijodiy izlanishda bo‘ladi, shuningdek, o‘quvchini nimaga o‘rgatish kerak kabi dolzarb savolga javob qidirishi lozim. Zamonaviy o‘qituvchi ishiga va o‘quvchilarga bo‘lgan mehrini o‘ziga mujassam etish, nafaqat bolalarni o‘qitishi, o‘zi ham ulardan o‘rgana olishi zarur. Zamonaviy pedagog har bir boladagi eng yaxshi sifatlarni yuzaga chiqarib, ularni

rag‘batlantirishi kerakki, bu bolalar mакtabni tugatganlaridan keyin ham olgan bilimlaridan quvonib, jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishlari, unga sidqidildan xizmat qilishlari zarur.

Bo‘lajak o‘qituvchini har tomonlama kamolga yetkazish, yuksak ma’naviy va axloqiy sifatlarni tarbiyalash, unda kasbiy-ijodiy ko‘nikma va malakalarni tarbiyalashda pedagogik ta’lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish ham muhim ahamiyatga ega.

Muammoni o‘rganish zamonaviy globallashuv, jadallahuv va modernizatsiya davrida bo‘lajak o‘qituvchi qiyofasida aqliy, ma’naviy-axloqiy, jismoniy, badiiy-estetik, huquqiy, iqtisodiy, ekologik madaniyat hamda sog‘lom turmush tarziga ega bo‘lishni ifodalovchi sifatlar bilan bir qatorda zamonaviy pedagog kompetentlik sifatlarini rivojlantirishga doir ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni nazarda tutadi va bugungi kunda qanday sodir bo‘lishi kerak? - degan dolzarb savol tug‘iladi.

Bo‘lajak mutaxassislar uchun jahon sivilizatsiyasi yutuqlari va axborot resurslaridan keng foydalanish, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirish imkoniyatlari kengaytirildi. Davlat tomonidan yoshlar bilan ishlash siyosatini takomillashtirish, intelektual rivojlangan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifati va uni baholash mezonlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, xorijiy tillarni chuqur o‘rganish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi. Zamonaviy o‘qituvchi ishiga va o‘quvchilarga bo‘lgan mehrini o‘ziga mujassam etish, nafaqat bolalarni o‘qitishi, o‘zi ham ulardan o‘rgana olishi zarur. Zamonaviy pedagog har bir boladagi eng yaxshi sifatlarni yuzaga chiqarib, ularni rag‘batlantirishi kerakki, bu bolalar mакtabni tugatganlaridan keyin ham olgan bilimlaridan quvonib, jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishlari, unga sidqidildan xizmat qilishlari zarur. Zamonaviy o‘qituvchi-bu professional. Pedagogning professionalligi kasbiy layoqati, fikrashi va mustaqil rivojlanishi bilan, ya’ni kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan sifatlarni o‘zida shakllantira olganligi bilan belgilanadi, zamonaviy pedagogning asosiy xususiyatlari doimo o‘z ustida ishlash o‘ziga tanqidiy munosabatda bo‘lish, bilimdonlik va yuqori madaniyatlilik. O‘qituvchining kasbiy

o'sishini o'qishga bo'lgan ehtiyojsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Zamonaviy o'qituvchi uchun erishilgan yutuqda to'xtamaslik juda muhim, u doim olg'a borishi shart. Chunki, o'qituvchining mehnati-bu cheksiz ijod uchun ajoyib manba.

Mazkur muammo yuzasidan mulohaza yuritgan atoqli olim Abu Ali ibn Sino (980-1037) ning fikricha. « ...O'qituvchi matonatli, sof vijdonli, rostgo'y va bola tarbiyalash uslublarini axloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo'lmog'i lozim. O'qituvchi o'quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o'rganib, uning aql qatlamlariga kira olmog'i lozim». [4]

Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida, o'qituvchi bolalarga ta'lif berishdek mas'uliyatlari burchni bajarishi zarurligini uqtirar ekan, ularga faoliyatda muvoffaqiyatga erishish garovi bo'lgan quyidagi tavsiyalarni beradi:

- bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish;
- berilayotgan bilimning talabalar tomonidan ozlashtirilishiga e'tiborni qaratish;
- ta'lifda turli shakl va metodlardan foydalanish;
- talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi, fanga qiziqtira olishi;
- berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi;

bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish. Hozirgi sharoitda ta'lif jarayonida ta'lif oluvchi talabalar o'zida kasbiy sifatlarni shakllantirish uchun doimiy o'z ustida mustaqil ish yuritishi, o'z imkoniyatlarini mustaqil tarzda rivojlantirish yo'llarini izlab, shaxsiy faollilik ko'rsatishi lozim. Buning uchun eng oddiy mexanizm - dono xalqimizning «Ustoz-shogird» an'anasi orqali shakllantirish ham maqsadga muvofiq.

Xulosa va takliflar

Talabalarda yuqoridagi kasbiy elementlarni shakllanishiga erishilsaularda mehnat faoliyati quyidagi muvaffaqiyatlarga:

Birinchidan, talaba o'zi uchun kerak bo'lgan, faoliyatni samarali bajarishga yordam beradigan malakalarini rivojlantiradi.

Ikkinchidan, talaba muloqot va jamoaviy harakat malakalariga ega bo'ladi.

Uchinchidan, talaba o‘zi uchun kerak, oldindan ko‘ra bilish, bashoratlashtirish malakasiga ega bo‘ladi.

To‘rtinchidan, talabada faol hayotiy pozitsiya va mehnatga yuqori motivlar shakllanadi.

Beshinchidan, o‘quvchi-talabalar bilan muomala qilganda zarur so‘z, gap ohangi, qarash, imo-ishorani tez va aniq topish, eng o‘tkir va kutilmagan pedagogik vaziyatlarda osoyishtalik va aniq fikr yuritish, tahlil qilish qobiliyatini shakllanadi.

Talabalarda pedagogik-kasbiy sifatlarni shakllantirish zamirida ularda quyidagi psixologik ko‘nikma va malakalar shakllanadi:

- Tafakkur (tafakkur operatsiyalarini bajara olish) shakllanadi;
- Emotsional-irodaviy sifatlar –emotsiyalar, irodaviy aktlar, ularni namoyon etish yo‘llarini o‘rganadi;
- Mehnat jamoasiga, odamlarga, mehnatga, o‘ziga nisbatan bo‘lgan kechinmalarni tartibga oladi;
- Bilimlar, dalillar, qonuniyatlarga tayanadi;
- Tajribalarga tayanib milliy mafkura asosida milliy kadr siymosi gavdalanadi;
- Milliy axloq ko‘nikma va odatlarini tarkib toptirgan kadr siymosi gavdalanadi;
- talabalar va o‘quvchilarning individual xususiyatlarni inobatga olish, ta’lim jarayonida eng optimal metod va vositalarni tanlaydi
 - ijodiy qobiliyatlarni rivoj topishiga erishadi;
 - pedagoglik kasbiga oid talabchanlik hamda tizimlilikni o‘sishiga.

Yuqoridagi bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, shuni ta’kidlash kerakki, bo‘lajak pedagog kadrlarda kasbiy sifatlarni faqat auditoriya mashg‘ulotlari bilan cheklanib qolmasdan, uni butun o‘quv tarbiyaviy va amaliy ishlar jarayonida, professor-o‘qituvchilar shaxsan o‘rnak ko‘rsatgan holda doimiy rivojlantirib borish pedagog-murabbiylarning muhim vazifasi va burchi bo‘lmog‘i lozim.

Foydalaniłgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Халқ сўзи, 2018, 29 декабрь, №271-272.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi «Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-3775-sonli Qarori. //Халқ сўзи, 2018, 6iyun, №115. <https://journalsnuu.uz/index.php/1/article/view/2035>
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.:O‘zbekiston, 2017. -189 b. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11209216>
4. Zunnunov A. «Pedagogika tarixi» Darslik — T. «O‘qituvchi» nashriyoti 2004. - 335b. <https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/2706>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14251953>

HAVOTIRNING SPORT NATIJALARIGA SALBIY TA'SIRINI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI

Sa'dullayev Aziz Akmal o'g'li

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM o'qituvchisi

E-mail: azizbek210895@gmail.com

ANNOTATSIYA

Sportchilarda musobaqa oldidan yuzaga keladigan havotir ularning psixologik va jismoniy ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqola havotirni boshqarish strategiyalarini, jumladan, nafas olish texnikalari, vizualizatsiya, meditatsiya va stressni kognitiv qayta ishlash usullarini batafsil tahlil qiladi. Sport psixologiyasi bo'yicha nazariy va amaliy tadqiqotlar asosida samarali yondashuvlar ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: Havotir boshqaruvi, stressni yengish usullari, nafas olish texnikasi, diqqatni jamlash, meditatsiya, ijobiy fikrlash, vizualizatsiya, ruhiy chidamlilik, sport natijalari tahlili, emotsiyonal boshqaruv, optimal zona nazariyasi.

STRATEGIES TO REDUCE THE NEGATIVE IMPACT OF WEATHER ON SPORTS PERFORMANCE

ABSTRACT

Pre-competition anxiety in athletes has a significant impact on their psychological and physical performance. This article provides a detailed analysis of anxiety management strategies, including breathing techniques, visualization, meditation, and cognitive stress processing. Effective approaches are presented based on theoretical and applied research in sports psychology.

Key words: Anxiety management, stress management techniques, breathing techniques, focus, meditation, positive thinking, visualization, mental toughness, sports performance analysis, emotional management, optimal zone theory.

СТРАТЕГИИ СНИЖЕНИЯ НЕГАТИВНОГО ВЛИЯНИЯ ПОГОДЫ НА СПОРТИВНЫЕ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ

АННОТАЦИЯ

Тревога, возникающая у спортсменов перед соревнованиями, оказывает существенное влияние на их психологическую и физическую работоспособность. В этой статье представлен подробный анализ стратегий управления стрессом, включая техники дыхания, визуализацию, медитацию и когнитивную обработку стресса. Показаны эффективные подходы на основе теоретических и практических исследований в области спортивной психологии.

Ключевые слова: Управление тревогой, методы управления стрессом, техники дыхания, концентрация, медитация, позитивное мышление, визуализация, психологическая устойчивость, анализ спортивных результатов, управление эмоциями, теория оптимальной зоны.

KIRISH.

Sport – insondan yuqori darajadagi jismoniy va psixologik tayyorgarlikni talab qiluvchi sohadir. Ayniqsa, musobaqa oldidan paydo bo‘ladigan havotir sportchilarning natijalariga ta’sir qiluvchi asosiy omillardan biridir. Havotir kognitiv (fikrlashga oid) va fiziologik holatlarning o‘zgarishiga sabab bo‘lib, sportchilarni o‘z kuchini to‘liq namoyon qila olmasligiga olib keladi. Sportchilarda musobaqa oldi havotirning psixologik mexanizmlari va uni boshqarish strategiyalari ko‘rib chiqamiz. Nafas olish texnikalari, ijobiy fikrlash, vizualizatsiya, stressni boshqarish usullari, shuningdek, ruhiy chidamlilikni oshirishning amaliy usullari haqida so‘z yuritiladi. Havotir sportchilarning ko‘plab natijalariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu nafaqat jismoniy ko‘rsatkichlarga, balki ruhiy holat va hissiy boshqaruvgaga ham ta’sir qiladi. Psixologik nuqtai nazardan, havotirni boshqarish, sportchilarning samaradorligini oshirish va musobaqalarda muvaffaqiyatli bo‘lish uchun juda muhimdir. Quyidagi strategiyalar havotirni kamaytirish va sport natijalariga salbiy ta’sirini yengillashtirishga yordam beradi:

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Musobaqa oldi havotirning sport natijalariga ta'sirini o'rganish bo'yicha bir qator tadqiqotlar mavjud. Lazarus va Folkman (1984): Stress va havotirning individual qabul qilinishini tushuntiruvchi kognitiv stress modeli. Martens (1990): Havotirning psixologik va fiziologik ko'rinishlarini tahlil qilgan. Hanin (1997): IZOF nazariyasi orqali stressni boshqarishning individual yondashuvini ishlab chiqqan. Sheard va Golby (2007): Ruhiy chidamlilik va stressni boshqarishning sport natijalariga ijobiy ta'sirini o'rgangan. Craft va |Kol. (2003): Ijobiy fikrlash va motivatsiyaning stressni yengishda ahamiyatini ko'rsatgan. Ushbu tadqiqotlar stressni boshqarish sport muvaffaqiyatidagi asosiy omil ekanligini tasdiqlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Havotirning mexanizmlari Musobaqa oldi havotir quyidagi mexanizmlar orqali salbiy ta'sir ko'rsatadi: Psixologik mexanizmlar: E'tiborning pasayishi va noto'g'ri qarorlar qabul qilish ehtimoli. O'ziga bo'lgan ishonchning kamayishi. Fiziologik mexanizmlar: Qon bosimining oshishi va yurak urishining tezlashishi. Mushaklarning haddan tashqari taranglashishi. Ijtimoiy omillar: Muxlislarning bosimi yoki raqiblarning yuqori darajadagi tayyorgarligi. Havotir organizmda stress-gormonlar (masalan, kortizol) ishlab chiqarilishini oshiradi. Bu gormonlar muskullarni siqib, tana faolligini kamaytirishi mumkin. Natijada sportchi o'zining jismoniy imkoniyatlarini to'liq ishlata olmaydi. Havotir ortganida sportchi mushaklarining bo'shashishi yoki haddan tashqari shiddatli bo'lishi mumkin, bu esa musobaqada samaradorlikni pasaytiradi. Havotir diqqatni tarqatishi va fokusni yo'qotishga olib kelishi mumkin. Sportchilarda tez-tez "boshqa fikrlar" bo'lishi, musobaqaning zarur jihatiga e'tibor qaratish qiyinlashadi. Misol uchun, muhim zarba, to'pni olish yoki raqibning harakatlariga e'tibor bermay, sportchi o'zining rejasidan chetga chiqishi mumkin. Bu esa xatolarga olib keladi va natijani yomonlashtiradi. Havotir sportchilarni nervoz, xavotirli va ishonchsiz qilish mumkin. Musobaqaga tayyorlanayotganda yoki

musobaqa davomida o‘zini shubha ostiga olish, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish yoki o‘z qobiliyatlariga ishonmaslik, sportchining ishlashga bo‘lgan ishtiyoyini pasaytirishi mumkin. Bu holat, sportchining o‘zini eng yaxshi ko‘rsatishiga to‘sqinlik qiladi. Havotir ko‘pincha o‘ta kuchli emotsiyalarni, masalan, qo‘rquv, qayg‘u yoki g‘azabni keltirib chiqaradi. Bu esa sportchining emotsiyonal holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Tanaffuslar, o‘zgarishlar yoki g‘alaba yoki mag‘lubiyatdan keyingi his-tuyg‘ularni boshqarish qiyinlashadi. Emotsional barqarorlikni yo‘qotish esa o‘zini yaxshi ko‘rsatish imkoniyatini kamaytiradi. Havotirning kuchayishi sportchining musobaqadagi muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqishiga olib keladi. Bu qo‘rquv, shubhalar va haddan tashqari xavotirga olib keladi, bu esa sportchining konsentratsiyasini va natijalarni pasaytiradi. Sportchi o‘zini harakatlari bilan xato qilishi mumkin, chunki u har bir qadamni juda ehtiyyotkorlik bilan bajarishga harakat qiladi, bu esa uning tabiiy va samimiyligi o‘ynashiga xalaqit beradi. Sportchilarning havotiri ko‘pincha jamoa a’zolari, trenerlar, va hatto muxlislar tomonidan kutishlar yoki baholar tufayli oshadi. Jamoa a’zolaridan yoki trenerdan kutilgan natijalarni bajarish bosimi sportchining o‘ziga bo‘lgan ishonchini pasaytirishi mumkin. Bu ham o‘z navbatida sportchining natijalariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Havotir sportchining faoliyatini to‘liq kuzatib borishga imkon bermaydi. Musobaqalar davomida diqqatni jamlash, harakatlarni aniqlik bilan bajarish va o‘z vazifalarini bajarish uchun kerakli yondashuvlarni topish qiyinlashadi. Shu bilan birga, havotir ortganida sportchilar tez-tez shaxsiy xatolarni qiladilar, chunki ular haddan tashqari xavotir va stressga bog‘lanib qoladilar. Davomiy havotir sportchining umumiy charchoqligini oshiradi. Stress va xavotirning doimiy ta’siri tananing tiklanishiga va sportchining umumiy energiyasiga salbiy ta’sir qiladi. Bu holat musobaqa davomida o‘zini namoyon qiladi va sportchining chidamliligini kamaytiradi. Sportchi havotir sababli psixologik to‘siqlarga duch kelishi mumkin. Bu, musobaqada o‘z maqsadlarini amalga oshirish uchun kerakli bo‘lgan o‘z-o‘zini nazorat qilish va motivatsiyani pasaytiradi. Bu holatda sportchi o‘z salohiyatini to‘liq ishga sololmaydi, va bu natjalarga salbiy ta’sir qiladi. Havotirni boshqarishning strategiyalari Psixologik tayyorgarlik: Ijobiy fikrlash: Stressni ijobjiy qabul qilish orqali

sportchilar o‘z imkoniyatlarini kuchaytiradi. Diqqatni jamlash: Havotirni maqsadga erishish uchun qo‘llanadigan manba sifatida qabul qilishga o‘rgatish. Nafas olish texnikalari: Chuqur nafas olish: Yurak urishini normallashtiradi va mushaklarni bo‘sashtiradi. Ritmli nafas olish: Sportchining diqqatni jamlash qobiliyatini oshiradi. Vizualizatsiya texnikasi: Muvaffaqiyatli harakatlarni oldindan tasavvur qilish stressni kamaytiradi va ishonchni oshiradi. Musobaqa jarayonlarini ongda qayta tiklash sportchiga haqiqiy sharoitda tayyor bo‘lishga yordam beradi. Meditatsiya: Ongni tinchlantirish va hozirgi lahzaga e’tibor qaratish. Har kuni 10-15 daqiqa meditatsiya qilish orqali stressni kamaytirish va ruhiy barqarorlikni oshirish. Murabbiy va jamoadoshlarning roli: Murabbiylarning ijobiy motivatsiya berishi va qo‘llab-quvvatlashi havotirni kamaytiradi. Jamoadoshlarning bir-biriga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi stressni yengishda muhim. Jismoniy tayyorgarlik va dam olish: Mashqlar orqali mushaklar tarangligini kamaytirish. To‘yimli ovqatlanish va yetarli dam olish stressni yengishning asosiy omillaridan biridir. Havotirning sport natijalariga ijobiy ta’siri: Stress va havotir to‘g‘ri boshqarilganda sportchilar uchun motivatsiya manbaiga aylanishi mumkin. Havotirni boshqarishga qodir sportchilar: Ruhiy chidamlilik: Eng qiyin vaziyatlarda ham o‘z kuchini to‘liq namoyon qila oladi. Diqqatni jamlash: Havotirni ijobiy energiyaga aylantirgan sportchilar musobaqada yuqori natjalarni qo‘lga kiritadi. Motivatsiya: Stressni rivojlanish imkoniyati sifatida qabul qilish kuchliroq motivatsiyaga olib keladi.

XULOSA

Musobaqa oldi havotirni boshqarish sport natijalarini yaxshilashning muhim qismidir. Nafas olish texnikasi, meditatsiya, vizualizatsiya va ijobiy fikrlash orqali havotirni boshqarish sportchilarning ruhiy va jismoniy tayyorgarligini kuchaytiradi. Murabbiylar va sport psixologlari ushbu texnikalarni sportchilarga o‘rgatishi lozim.

TAKLIFLAR

Havotirni boshqarish bo‘yicha treninglar tashkil qilish. Mashg‘ulotlarga meditatsiya va nafas olish texnikalarini kiritish. Murabbiy va sportchilar orasida ijobiy

muloqotni ta'minlash. Stress va havotirning individual ko'rinishlarini o'rganish va ularga mos yondashuvni ishlab chiqish. Sport psixologiyasini rivojlantirish uchun ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash. Maqola ijobiy ruhda, havotirni boshqarish usullarining sport natijalariga ijobiy ta'sirini ko'rsatishga qaratilgan holda tuzildi. Agar qo'shimcha o'zgartirish yoki kengaytirish kerak bo'lsa, aytishingiz mumkin!

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

1. Басов М.Я. Воля как предмет функциональной Психологии. Методика психологических наблюдений за детьми. - М., 2008. – С.89.
2. Sa'dullayev, A. (2024). Aspects of forming voluntary qualities in overcoming anxiety in adolescent wrestlers. *News of UzMU Journal*, 1(1.4), 176-179.
3. SA'DULLAYEV, A. (2024). О 'SMIR KURASHCHILARDA XAVOTIRLANISH HISSINI YENGISHDA IRODAVIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISH ASPEKTLARI. *News of UzMU journal*, 1(1.4), 176-179.
4. Akmal o'g, A. S. D. (2024). О 'SMIRLARNI HISSIY-IRODAVIY RIVOJLANTIRISHDA PSIXOLOGIK USULLARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI. "Science Shine" International scientific journal, 13(1).
5. ўғли Саъдулаев, А. А. (2023). ЎСМИР СПОРТЧИЛАРДА ИРОДАВИЙ СИФАТЛАРНИ ШАКЛАНТИРИШ АСПЕКTLARI. *SCHOLAR*, 1(8), 112-117.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14251957>

TALABALARNING PEDAGOGIK FAOLIYATGA PSIXOLOGIK MOSLASHUVI: IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR

Ag‘ayeva Diyora Zikrilloyevna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM o‘qituvchisi

E-mail: diyora.agayeva.89@gmail.ru

ANNOTATSIYA

Maqolada talabalarning pedagogik faoliyatga psixologik moslashuv jarayoni va uning asosiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Ijtimoiy-psixologik omillarning moslashuvdagi o‘rni, ahamiyati, ta’sir mexanizmlari va natijalari yoritiladi. Mazkur jarayonni samarali boshqarish usullari hamda pedagogik faoliyatga tayyoragarlikni oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: Pedagogik faoliyat, psixologik moslashuv, ijtimoiy omillar, psixologik tayyorlik, motivatsiya shaxsiy rivojlanish, ta’lim jarayoni, madaniy qadriyatlar, stress boshqaruvi, ijtimoiy moslashuv, pedagogik qobiliyatlar, amaliy tavsiyalar.

PSYCHOLOGICAL ADAPTATION OF STUDENTS TO PEDAGOGICAL ACTIVITY: SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FACTORS

ABSTRACT

The article analyzes the process of psychological adaptation of students to pedagogical activity and its main features. The role, significance, mechanisms of influence and results of socio-psychological factors in adaptation are highlighted. Methods of effective management of this process and practical recommendations for increasing preparation for pedagogical activity are presented.

Key words: Pedagogical activity, psychological adaptation, social factors, psychological readiness, motivation, personal development, educational process, cultural values, stress management, social adaptation, pedagogical skills, practical recommendations.

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ АДАПТАЦИЯ СТУДЕНТОВ К ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ: СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется процесс психологической адаптации студентов к педагогической деятельности и его основные особенности. Выделены роль, значение, механизмы влияния и результаты социально-психологических факторов в адаптации. Представлены методы эффективного управления этим процессом и практические рекомендации по совершенствованию подготовки к педагогической деятельности.

Ключевые слова: Педагогическая деятельность, психологическая адаптация, социальные факторы, психологическая готовность, мотивация, развитие личности, образовательный процесс, культурные ценности, стрессоустойчивость, социальная адаптация, педагогическое мастерство, практические рекомендации.

KIRISH.

Bugungi kunda pedagogik faoliyatga bo‘lgan talab ortib, kelajak avlodni tarbiyalash va o‘qitishda muhim rol o‘ynaydigan malakali mutaxassislarini tayyorlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayoni nafaqat nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishni, balki ularning psixologik moslashuvini ta’minlashni ham talab qiladi. Psixologik moslashuv — bu talabaning o‘ziga xos shaxsiy xususiyatlari, ijtimoiy muhit va professional faoliyat talablariga moslashish jarayonidir. Mazkur jarayonning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ijtimoiy-psixologik omillarga bog‘liq bo‘lib, ularga shaxslararo munosabatlar, motivatsiya, etnik va madaniy qadriyatlar hamda kommunikativ qobiliyatlar kiradi. Ushbu omillar talabaning pedagogik faoliyatga tezroq moslashishini ta’minlab, uning samarali ishlashiga yordam beradi. Biroq, ushbu jarayonni chuqurroq o‘rganish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish talab etiladi. Mazkur maqolada talabalarning pedagogik faoliyatga psixologik moslashuvi jarayoni chuqr tahlil qilinadi. Ijtimoiy-psixologik omillarning ta’sir mexanizmlari va ularning ahamiyati yoritilib, pedagogik

faoliyatga moslashishni samarali ta'minlash usullari bo'yicha amaliy tavsiyalar taqdim etiladi. Bu tadqiqot ushbu sohadagi nazariy va amaliy bilimlarni boyitishda muhim hissa qo'shadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Talabalarning pedagogik faoliyatga psixologik moslashuvi mavzusida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ta'lim jarayonida psixologik moslashuv muhimligini ta'kidlaydi. Ushbu yo'nalishda mashhur psixologlar va pedagoglar tomonidan keltirilgan nazariyalar, tushunchalar va tajribalar ko'plab tadqiqotlarda keng qo'llanilgan. Birinchidan, L.S. Vygotskiyning madaniy-tarixiy yondashuvi psixologik rivojlanishda ijtimoiy omillarning ahamiyatini tushunishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Unga ko'ra, shaxsning o'ziga xos xususiyatlari ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu pedagogik faoliyatga moslashuvni shakllantirishda hal qiluvchi omildir. Kkinchidan, A.N. Leontev va S.L. Rubinshteynning faoliyat nazariyasi pedagogik faoliyatning psixologik jarayonlarini o'rganishda muhim asosni tashkil etadi. Ularning izlanishlari shaxsning faoliyatga kirishish jarayonida motivatsiya va ichki ehtiyojlarni muhim omil sifatida ta'kidlaydi. Zamonaviy tadqiqotlar, jumladan, G.K. Selevko va I.P. Podlasiy tomonidan olib borilgan ishlarda talabalarning moslashuvi jarayonida o'quv muhitining roliga urg'u berilgan. Pedagogik jarayonda kommunikativ ko'nikmalar va empatiyaning ahamiyati ham ko'plab ishlarida yoritilgan. Mahalliy olimlar, masalan, O'zbekiston ta'lim tizimida tadqiqot olib borgan A. Qurbonov va M. Eshmamatovlar, ijtimoiy-psixologik omillarning talabalarning o'qishdagi muvaffaqiyatiga ta'sirini o'rgangan. Ular milliy qadriyatlar va madaniyatning pedagogik moslashuvga ta'sirini yoritib, bu jarayonni yanada samarali tashkil etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqqan. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalarning pedagogik faoliyatga moslashuv jarayoni ko'p qirrali bo'lib, uning muvaffaqiyati ijtimoiy, psixologik va madaniy omillarning o'zaro uyg'unlashuviga bog'liq. Shu sababli, ushbu yo'nalishda tadqiqotlarni davom ettirish muhim ahamiyatga ega.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Talabalarning pedagogik faoliyatga psixologik moslashuv jarayonini chuqur o‘rganish bir qancha muhim jihatlarni ochib berdi. Ushbu jarayon ko‘plab omillarning o‘zaro ta’sirini talab qiladi va bu omillar talabaning shaxsiy xususiyatlari, ijtimoiy muhit, madaniy qadriyatlar va faoliyat talablariga moslashuvi bilan bog‘liqdir. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, moslashuv jarayonida ijtimoiy-psixologik omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, motivatsiya psixologik moslashuvning eng muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Talabaning ichki va tashqi motivlari uning faoliyatga bo‘lgan qiziqishi va maqsadlariga asoslanadi. Ichki motivatsiya pedagogik faoliyatni shaxsiy ehtiyoj va qiziqish sifatida qabul qilishni ta’minlasa, tashqi motivatsiya moddiy manfaat, ijtimoiy maqom yoki tashqi rag‘batlarga asoslanadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, motivatsiya kuchli bo‘lgan talabalarning moslashuv jarayoni nisbatan tez va samarali kechadi. Ikkinchidan, shaxslararo munosabatlar talabaning psixologik moslashuvi uchun muhim ahamiyatga ega. Ijobiy va qo‘llab-quvvatlovchi o‘quv muhiti moslashuv jarayonini yengillashtiradi. Guruh ichidagi sog‘lom muloqot, pedagoglar bilan ochiq va samimiy aloqa talabaning o‘zini erkin his qilishi va faoliyat talablariga moslashishiga yordam beradi. Bu borada treninglar va guruh mashg‘ulotlari shaxslararo munosabatlarni mustahkamlash vositasi sifatida tavsiya etiladi. Uchinchidan, kommunikativ ko‘nikmalar pedagogik faoliyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Talabaning o‘z fikrini aniq va samarali ifodalash, o‘quvchilar va pedagoglar bilan muloqot qilish qobiliyati uning professional muvaffaqiyatida muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashg‘ulotlar talabalar uchun moslashuv jarayonini osonlashtiradi. To‘rtinchidan, madaniy va etnik omillar moslashuv jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Talabaning o‘z madaniyati va qadriyatlarini hurmat qilish bilan birga, boshqa madaniyatlarni qabul qilish qobiliyati ham ijtimoiy moslashuvni ta’minlaydi. Etnik xilma-xillikni qabul qilish va uni qadrlash talabaning pedagogik faoliyatdagi samaradorligini oshiradi. Tahlil natjalari shuni ko‘rsatdiki, talabalarning pedagogik faoliyatga psixologik moslashuvi nafaqat

individual xususiyatlarga, balki ijtimoiy va madaniy omillarning uyg'unligiga ham bog'liq. Ushbu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi choralar tavsiya etiladi:

- Motivatsiyani rag'batlantirish uchun maxsus dasturlar va treninglar tashkil qilish;
- Shaxslararo munosabatlarni rivojlantirish maqsadida guruh mashg'ulotlari va psixologik treninglar o'tkazish;
- Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish uchun o'quv dasturlarini ishlab chiqish va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish;
- Milliy va madaniy qadriyatlarni hurmat qilishni targ'ib qilish orqali madaniy moslashuvni yengillashtirish.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, talabalarning pedagogik faoliyatga samarali moslashuvi uchun integratsiyalangan yondashuv zarur. Bu esa nafaqat ularning shaxsiy muvaffaqiyati, balki umuman ta'lim tizimi sifatini oshirishga xizmat qiladi. Psixologik moslashuvga yo'naltirilgan strategiyalar va dasturlarni joriy etish kelajakda pedagogik kadrlarni tayyorlashni yanada samarali qilish imkonini beradi.

XULOSA

Talabalarning pedagogik faoliyatga psixologik moslashuvi, ularning shaxsiy rivojlanishi va professional muvaffaqiyatida hal qiluvchi omil bo'lib, ijtimoiy-psixologik omillar bilan chambarchas bog'liqdir. Tadqiqotlar natijasida aniqlanganki, motivatsiya, shaxslararo munosabatlar, kommunikativ ko'nikmalar va madaniy etnik omillar talabaning pedagogik faoliyatga kirishishda muhim rol o'ynaydi. Bu omillar talabaning o'zini pedagogik muhitda erkin va ishonchli his qilishini ta'minlaydi, uning ta'lim jarayonida samarali faoliyat yuritishiga yordam beradi. Motivatsiyaning kuchli bo'lishi talabaning pedagogik faoliyatga bo'lgan qiziqishini oshiradi, shaxslararo aloqalarning ijobiy rivojlanishi esa o'quv muhitini yanada qulaylashtiradi. Kommunikativ ko'nikmalar va madaniy moslashuv talabalar uchun ijtimoiy moslashuvni ta'minlaydi va ularning pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatli bo'lishiga

yordam beradi. Shu bilan birga, talabalarning pedagogik faoliyatga psixologik moslashuvi nafaqat individual jihatlarga, balki o‘quv muhitidagi ijtimoiy va madaniy omillarga ham bog‘liq. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun tizimli va kompleks yondashuv zarur. Motivatsiyani rag‘batlantirish, shaxslararo munosabatlarni mustahkamlash, kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish va madaniy qadriyatlarni hurmat qilishni o‘rgatish talabalar uchun muvaffaqiyatli pedagogik moslashuvni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Kelajakda pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida psixologik moslashuvga e’tibor qaratish, ta’lim tizimining sifatini oshirishga, samarali pedagoglarni tayyorlashga xizmat qiladi. Shuning uchun, talabalarning psixologik tayyorgarligini shakllantirish uchun maxsus dasturlar va treninglar tashkil etilishi zarur. Bu, o‘z navbatida, ta’lim sohasining rivojlanishiga muhim hissa qo‘shadi.

TAKLIFLAR

Psixologiktayyorgarlik dasturlarini joriy etish Talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda psixologik moslashuvni ta’minlash maqsadida maxsus psixologik tayyorgarlik dasturlari ishlab chiqilishi zarur. Bu dasturlar talabalarning ichki motivatsiyasini oshirish, shaxsiy va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Psixologik treninglar va guruh mashg‘ulotlari o‘quv jarayonining bir qismi sifatida tashkil etilishi talab etiladi.

Kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish. Pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatli moslashuv uchun kommunikativ ko‘nikmalarning rivojlanishi zarur. Shuning uchun, kommunikativ ko‘nikmalarni o‘rgatish uchun alohida kurslar, seminarlar va amaliy mashg‘ulotlar tashkil etilishi kerak. Bu talabalarning ta’lim jarayonida o‘z fikrlarini aniq va samarali ifodalash imkoniyatini yaratadi.

Shaxslararo munosabatlarni mustahkamlash Talabalar o‘rtasida ijobiy va qo‘llab-quvvatlovchi muhitni yaratish, shaxslararo munosabatlarni rivojlantirish uchun guruh ishlari, psixologik treninglar va muloqot ko‘nikmalarini o‘rgatish kerak. Bunday yondashuv talabalarning o‘zaro aloqalarini kuchaytiradi va pedagogik faoliyatga moslashuvni yengillashtiradi.

Milliy va madaniy qadriyatlarni o‘rgatish Talabalarga o‘z madaniyati va qadriyatlarini hurmat qilishni o‘rgatish va boshqa madaniyatlarga ochiq bo‘lishini rag‘batlantirish zarur. Milliy va umuminsoniy qadriyatlар asosida tarbiya berish, pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatli va ijtimoiy moslashgan mutaxassislar tayyorlashga yordam beradi.

Psixologik konsultatsiyalar va qo‘llab-quvvatlash Talabalar uchun psixologik maslahat va qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini joriy qilish, ularning ta’lim va shaxsiy hayotdagi stress va muammolarni bartaraf etishda yordam beradi. Pedagogik faoliyatga tayyorlanish jarayonida psixologik yordamni ko‘rsatish talabalar moslashuvini tezlashtiradi va ularning salomatligini yaxshilaydi.

Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati

1. Агаева, Д. (2023). ПРОБЛЕМА ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОТНОШЕНИЙ МОЛОДОГО ЖЕНИХА И НЕВЕСТЫ В УЗБЕКСКОЙ СЕМЬЕ. *Интерпретация и исследование*, 1 (19). извлечено от <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/1562>
2. Ag‘ayeva, D. (2023). O‘ZBEK OILASIDA YOSH KELIN-KUYOV MUNOSABATLARINI PSIXOLOGIK TA’MINLASH MUAMMOSI. *Interpretation and Researches*, 1(19). извлечено от <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/1562>
3. G‘. Abdullayeva “Ijtimoiy psixologiya” Guruh ichidagi munosabatlar, talabalar jamoasidagi ijtimoiy moslashuv va liderlik qobiliyatlari haqida. 2019.
4. Sa’dullayev, A. (2024). Aspects of forming voluntary qualities in overcoming anxiety in adolescent wrestlers. *News of UzMU Journal*, 1(1.4), 176-179.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14251960>

“JINOYAT VA JAZO” ASARIDA QAHRAMON RUHIYATI

Karamatova Parvina

Ismoilova Shahlo

ANNOTATSIYA: ushbu maqolada buyuk yozuvchi Fyodor Mixaylovich Dostoyevskiy asarlarida qahramonlarning ichki kechinmalari, obrazlarning ruhiy holatlari siyratini aks ettirishdagi o‘ziga xosliklar, qahramonlarning ijtimoiy hamda ruhiy holat talqinlari, o‘zaro qarama-qarshi xarakterlar tasviri keltirilgan.

KALIT SO‘ZLAR: jinoyat, jazo, vijdon azobi, Albert Kamyu, kambag‘allik, sudxo ‘r, “Yevgeniy Onegin”.

Nafaqat rus xalqining, balki butun dunyo tan olgan o‘tkir nafasi, jonkuyar, mahoratli yozuvchisi Fyodor Mixaylovich Dostoyevskiy Moskvada 1821-yilda tavallud topgan. Ijodiy faoliyati 1844-yilda boshlangan. Birinchi romani - “Bechora odamlar” asarida xo‘rlangan, ijtimoiy adolatsizlikka duchor bo‘lgan “kichkina odamlar” ning qismati hikoya qilingan. “Qiyofadosh”, “Oq tunlar” qissalari ham ijtimoiy mavzuda yozilgan. “Jinoyat va jazo”, “Telba” romanlari esa rus xalqining ma’naviy muammolari badiiy bo‘yoqlarda yaqqol aks ettirilgan. “Jinoyat va jazo” — 1865—1866-yillarda Fyodor Dostoyevskiy tomonidan yozilgan ijtimoiy-psixologik roman hisoblanadi. Dastlab, asar 1866-yilda “Russkiy vestnik” jurnalida nashr etilgan. Bir yil o‘tgach, alohida nashrda chop etilib, jurnal tarkibi bilan taqqoslaganda uning tuzilishi biroz o‘zgartirildi. Romanda sobiq talaba Rodion Romanovich Raskolnikov tomonidan sodir etilgan jinoyat va uning oqibatlari haqida hikoya qilinadi. Albert Kamyu o‘zini Fyodor Dostoyevskiyning shogirdi deb

hisoblagan va uning kitoblari “biz bilgan, lekin tan olishdan bosh tortadigan narsalarni o‘rgatadi” degan edi.

Asarning bosh qahramoni Raskolnikov – sobiq talabalardan biri. Uning moliyaviy ahvoli yaxshi emas, ijara pulini to‘lamay qo‘yaniga necha zamonlar bo‘lib ketgan, uydan haydalish arafasida edi. Kambag‘alligi tufayli o‘qishini davom ettirolmaydi. Uning qishloqda onasi, bir singlisi kambag‘allikda hayot kechiradi. Kunlardan bir kun u onasidan bir xat oladi. Xatda singlisi Lujin ismli o‘ziga to‘q aslzodaga turmushga chiqayotgani hamda singlisi va onasi Sankt-Peterburgga ko‘chib kelishayotgani yozilgandi. Qolaversa, bo‘lajak kuyovi Lujinning singlisiga azbaroyi sevgi yuzasidanmas, balki Dunyaning kambag‘alligidan foydalanib, o‘ziga qaram qilish maqsadida uylanayotgani uning yuragini battar ezar, g‘ururini toptardi. Ushbu jarayonni “Yevgeniy Onegin” asariga qiyoslashimiz mumkin.

Muallif ushbu asarda: “Kambag‘allik ayb emas, biroq yo‘qchilik bu – illat. Siz kambag‘alchilikda hali o‘zingizning tug‘ma olajanob fazilatlaringizni saqlab qolgan bo‘lasiz, yo‘qchilikda esa ulami hech qachon va hech kim saqlab qola bilmaydi.”,- deya shoh satrlarni keltirib o‘tadi. Chorasizlik azobidan qiyngangan qahramon buyumlarini garovga qo‘yib yuradigan sudxo‘r kampirni o‘ldirishni reja qiladi. Maqsadi kampirni o‘ldirib, pullarini o‘g‘irlagach, barcha muammolarini hal qilishni o‘ylaydi. Raskolnikov rejasini amalga oshirish mobaynida kampirning singlisi Lizovetta uyg‘a kelib qoladi. Sarosimada qolgan qotil uning singlisini ham bolta bilan urib o‘ldirishga majbur bo‘ladi. Inson qilgan jinoyati uchun jazo olmay qolmaydi. Har qanday jinoyatning esa ,albatta, javobi bor. Jazoning qay shaklda berilishi jinoyatning katta-kichikligiga qarab beriladi. Ko‘pchilik insonlar eng og‘ir jazo bu – vijdon azobi deya keltirishadi. Qamoq jazosidan, jarimalardan qutulib ketish mumkin, ammo inson o‘z qalbi bilan, vijdoni bilan kurashib qutulib ketolmaydi. Dostoyevskiyning ushbu romanida xuddi shu masalalar yoritib berilgan. Raskolnikov haqida gapiradigan bo‘lsak, uning qilgan jinoyatiga hech kim guvoh bo‘lmagan bo‘lsa-da, u jamiyatdan, yaqinlaridan ajralib qoladi. Vijdon azobi uni hecham tinch qo‘ymaydi. Uzoq yo‘ldan kelgan onasini ham, jigari bo‘lgan singlisini ham ko‘rishni xohlamaydi. Bir necha bor

o‘zini militsiyaga topshirmoqchi ham bo‘ladi, lekin Raskolnikov kampirni o‘ldirganiga zarracha achinmasdi, bir xasharotni o‘ldirdim deb hisoblardi. Qurbanini shundoq ham azoblanib, yo‘qchilikdan tinkasi qurib borayotgan kambag‘allarning qonini so‘rib yurgan zararkunanda sanardi. Asarda Raskolnikovdan tashqari Marmeladov, Sonya singari qahramonlar hayoti ham achchiq bo‘yoqlarda berilgan. Raskolnikov arzon qovoqxonada ishdan haydalgan Marmeladov bilan tanishib qoladi. Marmeladov kasalligi, qashshoqligi hamda piyonistaligi bois pul topish maqsadida qizi Sonyani ishratxonaga yuborishga majbur bo‘ladi. Raskolnikov Marmeladov vafot etgandan so‘ng, Sonya bilan yaqindan tanishadi. U hamma sirlarini, gaplarini faqatgina Sonyaga ishonib aytardi. Sonya yigitga politsiyaga borib, aybiga iqror bo‘lishini, jazo o‘tab, yengil tortishini maslahat beradi. Raskolnikov o‘zi bilan vijdoni bilan olishib yura-yura baribir aybiga iqror bo‘lib, mahkamaga boradi. Sud nihoyasiga ko‘ra u katorgaga surgun qilinadi. Muddati tugagach qanday hayot kechirishi mumkinligi to‘g‘risida shirin xayollar suradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, “Jinoyat va jazo” asari o‘qilishi og‘ir, ammo hushyorlik va ziyraklik talab qiladigan asar. Roman mohir tarjimon Ibrohim G‘ofurov tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Dostoyevskiy ushbu romani orqali qahramonlar psixologiyasini kitobxonlarga ko‘rsatib berolgan. O‘quvchi mutolaa davomida har bir qahramon bilan tengma-teng fikrlaydi. Jinoyat va jazoning asl mohiyati axloq bilan bog‘liq. qon to‘kish, kimningdir hayotiga zomin bo‘lish baribir yaxshilikka olib bormaydi. Har qanday jinoyatning jazosi beriladi. Undan qochishning iloji yo‘q. Eng muhimi, qalbda hamisha mehr-muhabbat, atrofdagilargaadolat kabi iliq tuyg‘ularni saqlab qolishimiz lozim. "Jinoyat va jazo" asari orqali Dostoevsky insoniyatni o‘z xatti-harakatlari uchun javobgarlikka chaqiradi va har birimizning ichki jangimizni ko‘rsatadi. U shuni ta’kidlaydi: haqiqiyadolat va tinchlik faqat o‘zligimizni anglaganimizda, gunohlarimizni tushunganimizda va ularni qabul qilganimizda keladi. Bu asar, nafaqat o‘z davrida, balki hozirgi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Insonning axloqiy jihatlari va ichki kurashi har doim zamon bilan birga keladi, shuning uchun "Jinoyat va jazo" asari har bir avlod uchun muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Dostoevsky, F. (1866). Jinoyat va jazo (Crime and Punishment). [Original publication].
2. Frank, J. (1995). Dostoevsky: The Miraculous Years, 1865-1871. Princeton University Press.
3. Mirsobit Abdullayev "Adabiyot nazariyasi va rus klassikasi"
4. G‘. Xolmirzayev "Adabiyot va til madaniyati "

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14251966>

“KECHA VA KUNDUZ” ROMANIDA IJTIMOIY HAYOT TASVIRI

Daminova Sevinch Akmalovna

Jizzax DPU o‘zbek tili va adabiyoti
fakulteti talabasi

Ilmiy Rahbar: **Tulishova Gulzin Ravshanovna**

Jizzax DPU o‘zbek tili va adabiyoti
kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: “Kecha va kunduz” romanida o‘sha davr muhitdagi insonlarning ijtimoy hayoti aks etgan bo‘lib, Ushbu maqolada ham asardagi qahromonlarning obrazidagi ijtimoiylik haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Roman, obraz, ijtimoiy, Zebi, Razzaq so‘fi, Cho ‘lpon, muhit, davr.

Annotation: The novel "Night and Day" reflects the social life of people in the environment of that time. This article also talks about the sociality of the characters in the work.

Key words: Novel, image, social, Zebi, Razzaq Sufi, Cholpan, environment, era.

Аннотация: В романе «Ночь и день» отражена социальная жизнь людей в среде того времени. В данной статье говорится также о социальности героев произведения.

Ключевые слова: Роман, образ, социальный, Зеби, Раззак Суфий, Чолпан, окружающая среда, эпоха.

O‘zbek xalqining zabardast vakillaridan biri bo‘lgan sevimli adibimiz Cho‘lpon hayotiga nazar tashlaydigan bo‘lsak , uning hayoti turli yusunlarda o‘tdi. Cho‘lpon asarlari kirib bormgan qalb qolmadi desak menimcha mubolag‘a bolmaydi. U nafaqat nasrda balki nazm yo‘nalishda salmoqli iz qoldirdi. Adibning ko‘plab asarlarida o‘sha davrdagi ijtimoiy hayat to‘laqonli ochib berilgani, uning hayotini bur qancha tahlikaga soldi. Ushbu “Kecha va Kunduz” asari ham shunchalik mahorat bilan yozilgan bo‘lib, ijtimoiy hayatdagi insonlarning yashashdagi jayot tarzi, go‘zal va jonli tasvirlar orqali ochib berilganligi barchamizga ma’lum. Bunda adib hayatni ham ko‘p qiyinchiliklar ko‘radi va Cho‘lpon qayg‘urib shunday yozadi: “Har qanday doim tirnoq ostidan kir toppish mumkin, qancha ko‘p qidirsang shuncha ko‘p chiqadi. Ammo odamga hayat faqat shuning uchun ato etilmagan. Ayniqsa pedagoglar Turkistonning oqni qoradan ajrata olmaydigan mahalliy aholisiga nimanidir isbotlashga uringan holda bir birining aybini qidirib umrini behuda o‘tkazishmoqda – bu jinoyatdir”. Bundan ham ko‘rinib turubdiki xalq uchun uchun kuyib, yonib yashagan, o‘zi qiynalsa-da xalqini o‘yg‘onishga, qaram bo‘lib qolmaslikka chorlagani ushbu “Kecha va Kunduz” asari orqali ham uqtirishga harakat qilgan. Taniqli adabiyotshunos tanqidchi ustozimizning quyidagi fikrlariga e’tibor qarataylik: “Asrlar bo‘yi o‘z erki va mustaqilligi uchun kurashib kelgan matonatli xalqimiz hayatni va shonli tarixini badiiy in’ikosi bo‘lgan adabiyoti ham boy va rang-barangligi bilan dunyo sivilizatsiyasida alohida o‘ringa ega. Insoniyat tammaddunida xalqimiz tarixi kabi uning adabiyoti ham g‘oyaviy yuksakligi bilan ajralib turadi”[1-10] Darhaqiqat, millat ravnaqi uchun kurashib keloyatgan xalqni o‘z fikrlaridan qaytarishga uringan, xalqning ichki dushmanlari borligini ushbu asar orqali ham ko‘rishimiz mumkin. Adibimizning romanchiligidan taroqqiyotiga qo‘shtan hissalaridan bir shuki, asarda voqealar silsilasi emas, inson xarakteri, uning qalb ruhiyatida kechayotgan, o‘tayotgan jarayonlar markaziy o‘rin egallaydi. Biz ijtimoy hayat tomonidan olib qarasak, Miryoqib obraziga to‘xtalsak, uning ruhiyatidagi o‘zgarishlar, pisixolik nuqtayi nazardan ham keng qamrovli jihatdir. Bu obraz ishonarli va jonli chiqishi uchun katta e’tibor beradi. Professor Ozod Sharafiddinov bu obraz haqida to‘xtalib:

“Miryoqib obrazining ziddiyatli qirralarini belgilagan narsa shundaki, u bir tomondan yangicha burjua odamga xos sifatlarga ega ammo ikkinchi jihatdan, o‘z muhitidan butunlay uzilib ham qolib ketgan emas” deb yozadi. Miryoqib obraziga berilgan ta’rifga e’tibor bersak, o‘sha davrdadagi shunday insonlarni Miryoqib obrazi orqali ochib berishga harakat qilganligini ko‘ramiz. Chunki o‘sha davr muhitda birovlaning fikri uning butun ruhiyatini qamrab olganligini aks ettirgan. Asardagi yana bir obrazga to‘xtalsak, bu Zebi obrazidir. “Zebi (Zebiniso)ning qish ichi siqilib, zanglab chiqqan ko‘ngli bahorning iliq hovuri bilan ochila tushgan erdi, ustiga paxol to‘shalgan aravada bo‘lsa ham, allqayerlarga dala-qirlarga chiqib yarashni tusay boshlagan edi”[2-4] “Ko‘k terish bahonasi bilan bir-ikki marta keng havlilarga, shahar ichida bo‘lsa hamki, dala-tuzlarga chiqib kelganidan beri ko‘ngil qirlarni, dalalarni, ishqilib olis-olis joylarni yana tusay boshlagan edi”.[2-5] Zebi timsoli shunday go‘zal tasvirlanganki, undagi husn , maftunkorlik, soddalik haqiqiy o‘zbek qizlariga xos bo‘lgan holatlardan biridir.Otasining qattiqqo‘lligi sababli, ko‘cha ko‘rmagan quvnoqlik nima bilmagan, oqila, hamisha otasidan haymiqib turadigan qiz sifatida tasvirlangan. Uning hayotini xuddiki qafasdagi qush misoli kabi tasvirlash, o‘sha vaqtida insonlar hayoti va zamon qanchalar og‘ir bo‘lganligini, ayol qizlarimiz qancha zulm ko‘rganliklari, o‘zi uchun yashamaganliklarini, o‘z haq-huquqlarini talab qilaolmaganliklarini yozuvchi juda go‘zal tasvirlar orqali kitobxon ongiga singdirishga harakat qilgan. Bu asarda badiiyat ham o‘z o‘rnida keng yoritilganiga misol qilib salbiy va ijobjiy qahramonlar orqali asarni jonli tasvirlashga harakat qilgandir. Adabiyotshunoslik sohasiga katta hissa qo‘shgan adabiyotshunos olimlarimizdan Hotam Umurov quyidagi fikrlariga e’tibor beraylik “Badiiy haqiqatning asosi hayotdir. Chunki yozuvchining ko‘rgan bilganlari va shaxsiy tajribasi, kechinma va taassurotlari badiiy asarni yuzaga kelishida eng asosiy omil sanaladi. Yozuvchi hamma vaqt hayotiy fakt va hodisalardangina turtki olib, badiiy haqiqat kashfi tomon yo‘l oladi”.[3-73] Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon ham, o‘zining yashagan davrida ko‘rgan kechirganlarini, xalqning o‘sha paytdagi ahvolini ochiqcha so‘zlashga harakat qilgandir. Shuning uchun ham bu asar, ko‘p qiyinchiliklarga uchrab-uchrab, qancha yo‘llardan o‘tib bizning qo‘limizgacha

yetib keldi. Balki o'sha davr muhitini, mansabdor shaxslarni hayotini ochiq va oydin yozgan bo'lsa, bu asarning ikkinchi qismi "kunduz" asari yo'qotilgandir. Xulosa o'mnida shini aytishimiz mumkinki, har qanday asar, asar bo'lgunga qadar, kitobxonlarni yuragini zabit etib ulgurgan bo'lishi kerakdir, u shundagina haqiqiy asar bo'laoladi. "Kecha va kunduz" asari shunday asarlar sirasidandir. Bunda butun jamiyatning yashash tarzi, oddiy xalqning ma'naviyati bo'lsa ham, o'z fikrlarini ochiq oydin aytolmagan insonlar hayoti tasvirlangandir. Adib o'zining ichki kechmishtalarini, dard va alamalrini shu asar orqali ifodalab bergen deya olamiz. Bu asarni o'qigan har bir kitobxon o'zining dunyo qarashi, o'zining ma'anviyatidan kelib chiqqan holda tahlil qiladi. Ozmi-ko'pmi o'qiguvchi mustabid sovet tizmidagi xalq ahvoldidan xabordor bo'ladi. Badiiy adabiyot insonning ruhiyati bilan bog'liqdir. Cho'lpon ham ushbu asarini bizga, o'z xalqiga yetkazish uchun butun vujudi bilan ruhiyati bilan harakay qilgani barchaga ayondir. Siz bu izdan faqatgina o'qiganda butun tafakkurimiz bilan o'qib, tushunib bugungi kunimizga shukrona aytishimizga dalildir. Bunday salohiyat barchaga ham birdik nasb qilib berilavermaydi. Badiiy adabiyotda ijtimoiy hayot insonning butun umri davomizda qanday inson bo'lishligiga tas'ir o'tkazishi haqida ham ko'rsatadi. Jumladan Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon asarlarida ham bunday holatlarni ko'rishmiz mumkin, "Kecha va kunduz" asari singari.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulhamid Cho'lpon .“ Kecha va kunduz”. “ Yangi nashr” Toshkent-2019
2. Ozod Sharafiddinov. “Ijodni anglash baxti”.Toshkent: “Sharq”,2004
3. Usmon Qosimov. “Adabiy estetik tafakkur”. “Book trade 2022” Nashriyoti- 2023
4. Hotom Umurov. “Adabiyot nazariyasi”. Toshkent “ Sharq”, 2002

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14251972>

XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA XIVA XONLIGIDA TA'LIM TIZIMI

Boltayeva Poshshajon Rashid qizi

“Ichan-Qal’ a” davlat muzey-qo‘riqxonasi bo‘lim mudiri

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlari da Xiva xonligida ta'limgardagi tarbiya tizimi haqida va o'qitish uslublar haqida qisqacha ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Madrasa, Ogahiy, Munis, Arabmuhammadxon madrasasi, Xudoyberdi Qo'shmuhammad, Muhammad Yusuf Bayoniy, Komil Xorazmiy, Ahmadjon Tabibiy.

THE EDUCATION SYSTEM IN THE KHIV KHANATE AT THE END OF THE 19TH AND EARLY 20TH CENTURIES

ABSTRACT

This article provides brief information about the education system and teaching methods in the Khiva Khanate in the late 19th and early 20th centuries.

Keywords: Madrasa, Ogahiy, Munis, Arabmuhammadxon madrasasi, Xudoyberdi Qo'shmuhammad, Muhammad Yusuf Bayoniy, Komil Xorazmiy, Ahmadjon Tabibiy.

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Xiva xonligining ijtimoiy-siyosiy hayotida ichki va tashqi kuchlar ta'sirida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi.

Bu davrda mamlakatda 1,5 ming ga yaqin maktablar faoliyat yuritardi. Bu maktabni bitirgan talabalarning ayrimlari oliy (madrasa) o‘quv yurtida o‘qishni davom ettirib, 10 yilgacha ta’lim olishardi.

Bunda asosiy fanlar sifatida arab grammatikasi, islom huquqi va falsafasi, shuningdek, qo‘sishimcha ravishda elementar arifmetika va geometriya o‘qitilardi. Madrasa talabalari imtihon sinovlari topshirganlaridan so‘ng bo‘shab qolgan qozilik, imomlik yoki boshqa biror nufuzli lavozimlarni egallashlari mumkin edi. Yodda tuting! Xiva xoni mamlakatni o‘zi mansub bo‘lgan qo‘ng‘iroq urug‘i zodagonlari, saroy a’yonlari va oliy ruhoniylar guruhi madadiga tayanib boshqargan.

XIX asrning ikkinchi yarmida, Muhammad Rahimxon II Feruz davrida, Xiva xonligining madaniy hayotida o‘ziga xos yuksalish jarayonlari yuz berib, bunyodkorlik, obodonlashtirish hamda madaniy rivojlantirishga e’tibor qaratilgan. Bunyodkorlik namunasi sifatida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yigirmadan ortiq madrasa, masjid, minora va yo‘llar barpo etilganligini aytib o‘tish mumkin. To‘ra Murod minorasi (1888 yil), Bikajon bika minorasi (1894 yil), Polvon qori madrasasi (1905 yil), Qozi kalon madrasasi (1905 yil), Polvon darvoza (1906 yil), Islom Xo‘ja madrasasi va minorasi (1910-1911 yillar) va boshqa ko‘plab me’morchilik obidalari bevosita Muhammad Rahimxon rahbarligi va homiyligida qurildi .

Akademik Yahyo G‘ulomov «Xiva shahri obidalari» monografiyasida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva shahrining o‘zida 36 madrasa bino qilinganligini ko‘rsatib o‘tadi . XX asr boshlarida xonlikda jami 130 madrasa, 1636 masjid bo‘lganligi haqida ma’lumotlar bor. Yuqorida aytilganidek, bunday qurilish ishlari Muhammad Rahimxon II Feruz davrida keng quloch yoydi va o‘ziga xos me’morchilik maktabi vujudga keldi. Bu esa qisqa davr ichida xonlikda katta me’moriy obidalar bo‘lganligidan va XX asr boshlarida Xivada me’morchilik qurilishlari yaxshigina rivoj topganligidan dalolat beradi.

Madrasalar to‘g‘risida Ye. Jelyabujskiy shunday yozadi: «Xiva va turkmanlar yurtida madrasa va o‘quv yurtlari juda ko‘p. Ularning qurilishi va faoliyati uchun hukmdorlar ham, xalq ham kuchli jonbozlik ko‘rsatishadi. Masalan, Xivada bir necha

madrasalar mavjud, ayniqsa, Madaminxon madrasasi mashhurdir. Xalqni o‘qitish va ma’lumotli qilish bilan dindorlar shug‘ullanishadi» .

Xiva madrasalarida 15 yoshga to‘lgan har bir musulmon farzandi, savodi va iqtidori inobatga olingan holda qabul qilinardi. Ularni «mulla» yoki «tolibul ilm» deb ataganlar.

Xiva O‘rta Osiyoda madrasalari ko‘pligi jihatidan faqat Buxorodan so‘ng ikkinchi o‘rinni egallagan. Hozirda Xiva shahrida 65 ta madrasa saqlangan, shulardan 54 tasi shaharda, 11 tasi shahar atrofida joylashgan. Mazkur madrasalarning 10 tasi Xiva xonlari, 20 dan ziyodi xon avlodlari, boylari va diniy mahkama ulamolari tomonidan qurilgan.

XIX asr va XX asr boshlarida Xiva xonligining madaniy hayotida alohida davr canaladi. Bu davr xonlikda ilm-fan, tarixnavislik, tarjimonlik, adabiyot, she’riyat, musiqa va bastakorlik, me’morchilik va boshqa sohalarda ulkan yutuqlarga erishilganligi bilan ajralib turadi. Bu yuksalishda Olloqulixon, Sayid Muhammadxon, ayniqsa, ma’rifatparvar xon Muhammad Rahimxon II ning alohida xizmatlari bor. U o‘z saroyini o‘ziga xos ilmiy-madaniy markazga aylantirgan. Xon saroyiga 40 dan ortiq mashhur ijodkorlarni, olimlarni, fozillarni, mashhur tarixchilar, adabiyotchilar, musiqa san’atining yetuk namoyandalarini to‘pladi. Xon saroyida ijod qilgan buyuk allomalar qatorida Shermuhammad Munis, Ogahiy, Xudoyberdi Qo‘shmuhammad, Muhammad Yusuf Bayoniy, Komil Xorazmiy, Ahmadjon Tabibiy kabi o‘nlab ijodkorlarning nomlarini ko‘rsatish mumkin.

Xiva madrasalarida yoshlarga xattotlik va husnixatlik san’atidan ta’lim berilgan. Munis, Komil Xorazmiy, Muhammad Rasul Mirzo, Bayoniy, Yusuf Rojiy, Bobojon Sanoiy, Muhammad Panoh Xorazmiy, Hudoybergan Muhrkan, Abdulla Bolta o‘g‘li va boshqalar Xiva xattotlik maktabining peshqadam vakillaridan sanalgan.

Manbalarning guvohlik berishicha XIX asrda Xiva xonligida 90 ga yaqin iste’dodli xattotlar faoliyat ko‘rsatganlar. Yozuv san’atining mohir ustasi bo‘lgan Munis 1804-yilda xattotlik san’atiga bag‘ishlab o‘zining «Savodi ta’lim»

qo'llanmasini tayyorlagan. Bu risola Xiva madrasalarida talabalarga darslik sifatida o'rgatilgan.

Xiva tarixchilari Ogahiy va Bayoniyning bergan ma'lumotiga ko'ra, XIX asr o'rtalarida Xivadagi madrasalar soni 22 taga yetgan. XX asr boshlariga kelib esa ularning soni 130 dan oshgan va 9300 talaba tahsil olgan. Masjid va xonaqohlar qoshida 1500 dan ortiq boshlang'ich maktablar ishlab turgan. Ularda 45 ming o'quvchi yoshlar ta'lim va tarbiya olgan. Maktab va madrasalarda ta'lim tizimi avvalgi tartib asosida davom etgan. Bu davrga kelib ta'lim tizimida asosiy e'tibor islomiy ilmlarga: Qur'oni Karim, hadis, islom huquqshunosligi kabi ilmlarni o'rgatishga qaratiladi. Shuningdek, madrasalarda tarix, adabiyot, mantiq, falsafa, musiqa va xattotlik ilmi ham o'rgatilgan. Riyoziyot, astronomiya, tabobat va boshqa aniq fanlardan umumiy tushunchalar berilgan.

Madrasalarda diniy va dunyoviy ilm berilgan, ayni paytda ko'ngilochar o'yinlar, shuningdek ashula aytish man qilingan. Madrasalarda o'qish muddati chegaralanmagan bo'lib, ayrim talabalar bir kursda 3-4 yil, ayrimlari esa 8-10 yillab o'qishgan. O'qish esa uch kursda olib borilgan: «adno» – boshlang'ich, «avsat» – o'rta va «a'lo» – oxirgi kurs.

Madrasaga 15 yoshga to'lgan har bir musulmon farzandi, savodi va iqtidori inobatga olingan holda qabul qilinardi. Ularni «mulla» yoki «tolibul ilm» deb ataganlar.

Xivada madrasalarini tugatgan talabalar imtihondan o'tishgan. Buning uchun xon tomonidan maxsus hay'at tuzilar, uning tarkibiga ba'zida xonning o'zi, ko'pincha valiahd, qozikalon (bosh qozi), qozio'rda (shahar qozisi) va bir qancha ulamolar kirishardi. Imtihondan muvaffaqiyatli o'tgan talabalarga mufti, a'lam, oxun, mukarrir unvoni berilardi. Bitkazuvchilar ilohiyot ilmini mukammal o'zlashtirishar, ayni kezda dunyoviy ilmlardan xabardor bo'lishardi. Xiva madrasalarini tugatgan talabalar orasida shoirlar, muarrixlar, xattotlar, olim va fozil kishilar yetishib chiqqani fikrimizning dalilidir.

Madrasalarga davlat xazinasidan va xayriya hisobidan ham mablag‘ ajratilgan. Xiva tarixchisi, naqqosh Abdulla Boltaevning bergan ma'lumotiga qaraganda, XIX asr o‘rtalarida Xiva madrasalari va muqaddas joylarga vaqf qilingan ekin maydonlarining umumiyligi hajmi 170-175 ming tanobni tashkil etgan.

Foydalaniman adabiyotlar.

1. Гулямов Я. Памятники города Хивы. – Тошкент: Фан, 1941.
2. Зохидов П. Ш, Аванесов Р. Х. Хива. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994.
3. Лаффасий. Тазкираи шуаро. – Урганч.: Хоразм, 1992.
4. Мухаммад Юсуф Баёний. Шажараи Хоразмшохий. – Тошкент: Мерос, 1992.
5. Matniyozov M. Xorazm tarixi. II-jild. Urganch. 1997. 274-b.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14251985>

«ОММАВИЙ МАДАНИЯТ»НИНГ САЛБИЙ ТАЪСИРИДАН ТАЛАБА-ЁШЛАРНИ ҲИМОЯЛАШ

Дилрабо Шодмоновна Худойқулова

Ренессанс таълим университети катта ўқитувчиси

Annotation. Ushbu maqolada talabalarni ommaviy madaniyatning salbiy ta'siridan himoyalash, talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda samarali metodlar, rivojlantiruvchi texnologiyalar asoslanadi, talabalarni “ommaviy madaniyat”ning salbiy ta'siridan himoyalashda mustaqil ta'limni tashkil etish metodikasi takomillashtiriladi hamda amaliy –metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: ommaviy madaniyat, oila va oliygoh hamkorligi, fidoyilik.

Маданият жамият ижтимоий ҳаётининг муҳим таркибий қисми, мустақил соҳаси ҳисобланади. Одатда жамият тараққиётини белгилашда ижтимоий маданиятнинг мавжуд даражаси ҳисобга олинади. Қолаверса, жамият ижтимоий маданиятини мавжуд даражаси эртанги ижтимоий ҳамда иқтисодий ривожланиш учун муҳим асос бўлиб хизмат қиласи. Шу сабабли инсоният ўзи эришган маданиятни моддий ва маънавий тарзida гурӯхланган ҳолда қадрият сифатида эъзозлайди

Инсоният тараққиёти тажрибасининг кўрсатишича, миллий маданиятни у мансуб бўлган халқ, миллат ёки элат томонидан қадрият сифатида эъзозлансада, бироқ, уни ўзига тобеъ қилмоқчи бўлган миллат учун «ўткир қурол» саналади. Шу сабабли гегемонликка интилаётган халқ, энг аввало, ўзи тажовуз қилаётган миллатни ана шу ўткир қуролдан маҳрум этишни режалаштиради. Глобаллашув шароитида гегемонликни қўлга киритиш истагида бўлган миллат ахборот

«сунъий» маданий ғояларни ҳар қандай миллий маданиятни барбод этиш воситаси сифатида қабул қилиб, унга нисбатан маънавий таҳдидни уюштиради. Маънавий таҳдиднинг ижтимоий моҳиятини очиб берар экан биринчи президентимиз И.А.Каримов қуидагиларни баён этган. «Маънавий таҳдид деганда, аввало, тили, дини, эътиқодидан қатъий назар, ҳар қайси одамнинг том маънодаги эркин инсон бўлиб яшашига қарши қаратилган, унинг айнан руҳий дунёсини издан чиқариш мақсадини кўзда тутадиган мафкуравий, ғоявий ва информацион хуружларни назарда тутиш лозим»¹.

Айни ўринда, шунингдек, маънавий таҳдиднинг ижтимоий салбий оқибатлари ҳам кўрсатиб ўтилади «Маънавиятга қарши қаратилган ҳар қандай таҳдид ўз-ўзидан мамлакат хавфсизлигини, унинг миллий манфаатларини, соғлом авлод келажагини таъминлаш йўлидаги жиддий хатарлардан бирига айланади ва охир-оқибатда жамиятни инқирозга олиб келиши мумкин»² Дарҳақиқат, «оммавий маданият»нинг дастлабки кўринишлари Ғарб мамлакатлари XVIII да намоён бўла бошлаган, бугунги кунда эса «оммавий маданият», «поп маданият» («популярная культура») иборасининг қисқартирилган кўриниши «субмаданият» лотинча («sub»-остида», «cultura» - маданият, рус тилида эса у «подкультура» тарзида ифодаланади, маъноси «маданият остидаги янада аниқроғи ичидаги маданият») демакдир) номлари билан юритилаётган ижтимоий ҳатти-ҳаракатлар таъсирида миллий маданият ва қадриятлар орқали улуғланиб келинган юксак инсоний ғоялар, маънавий-ахлоқий ҳамда эстетик меъёрларга нисбатан «янгича» салбий ёндашув кузатилмоқда.

Оммавий маданият-бу муайян жамиятда аҳолининг кенг қатлами ўртасида оммалашиб, маълум мавқеъга эга бўлиб бораётган маданият саналади. У майший турмуш, кўнгилочар томошалар (спорт, мусиқа), оммавий ахборот воситалари ва бошқаларда яққол намоён бўлади. Оммавий маданият мазмунида аҳолининг

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият енгилмас куч-Т. Маънавият 2008 йил 13,14 бетлар

² Каримов И.А. Юксак маънавият енгилмас куч-Т. Маънавият 2008 12 бет

катта қисми ҳаётини ташкил этувчи кундалик воқеа-ҳодисалар, ҳаётий интилиш ва эҳтиёжлар акс этади. «Оммавий маданият» тушунчаси Франкфурт социология мактабининг вакиллари томонидан олиб бориладиган тадқиқотлар туфайли кенг оммалашди

«Оммавий маданият» саноатнинг ривожланиши билан боғлиқ равища шаклланган ғайриоддий «маданият» қўриниши саналади. Табиий равища омма маданияти юксак маънавий-ахлоқий ҳамда эстетик талаблардан ҳоли бўлиб, асосан, оғир турмуш ва меҳнат шароити, доимийлик касб этган моддий етишмовчилик, қашшоқлик ҳамда руҳий зўриқишлирдан маълум вақтга бўлса-да ҳоли бўлиш, яъни кўнгил очишга ёрдам берарди. Қолаверса, «оммавий маданият» ҳақиқатдан ҳам ҳеч қандай маънавий-ахлоқий, эстетик қарашлар ва миллий-маданий қалриятларни тан олмайди, аксинча, у бир гурух ижтимоий қатламнинг ғайриоддий «истак, эҳтиёжлари»ни намойиш қилиш, тарғиб этишга йўналтиради. Омма учун мўлжалланган маданиятда устувор ўрин эгаллаётган ғоялар-бу кўнгилхушлик, эркин муҳаббат, бир жинсли никоҳ, фахш, ижтимоий ва жисмоний зўравонлик, гиёҳвандлик, ташқи қиёфада вульгарликка эришиш, эркак ҳамда аёлларда қарама-қарши жинс вакиллари хусусиятлари, хусусан, биологик хусусиятларнинг акс эттиришга интилиш, «трансфер», қотиллик, суицидни тарғиб қилиш кабилардан иборат бўлиб, у ўз-ўзидан шахсни тубанликка олиб боради

«Оммавий маданият» таъсирида улғайган шахс қиёфасида қуйидаги салбий иллатлар шаклланади. Ўзи мансуб бўлган миллат маданиятини тан олмаслик, уни инкор қилиш ва очиқдан очиқ ҳурматсизлик билдириш, миллий ғуур, орномусдан моддий манфаатларни устун қўйиш, миллий ўзликни англай олмаслик, ахлоқсизлик қилиб бўлса-да, моддий фаровонликка, тўкин ҳаётга интилиш, ижтимоий муносабатлар жараёнида қашшоқ дунёқараш ва ахлоқсиз хулқатворга эгаликни намойиш қишиш, тартибсиз ҳаёт кечириш, миллий маданиятни менсимаслик ва ҳакозолар.

Ёшларни «оммавий маданият»нинг салбий таъсиридан ҳимоялашда тизимли, мажмуавий педагогик чора-тадбирларни ташкил этиш муҳим аҳамият касб этади. Бу борадаги тизимли тадбирларнинг ташкил этилишида олий таълим муассасаларнинг фаолияти ҳам алоҳида ўрин тутади. Олий таълим муассасаларида талабаларни «оммавий маданият»нинг салбий таъсиридан ҳимоялашнинг пухта асосланган дастур ҳамда меҳназимнинг ишлаб чиқилиши ана шу мақсадга йўналтирилган педагогик фаолиятинг самарали, изчил ва узлуксиз ташкил этилишини таъминлайди.

Талабаларни «оммавий маданият» нинг салбий таъсиридан ҳимоялашнинг педагогик шарт шароитларини ўрганиш орқали илмий-методик тавсияларни ишлаб чиқиш лозим

1. Талабаларни «оммавий маданият» салбий таъсиридан ҳимоялашнинг педагогик омиллари ва уларнинг имкониятларини аниқлаш.

2. Талабаларни «оммавий маданият»нинг салбий таъсиридан ҳимоялашнинг ижтимоий-фалсафий ва психологик жиҳатларини ёритиш.

3. Талабаларни «оммавий маданият» нинг салбий таъсиридан ҳимоялаш тизими, андозаси ва механизмини ишлаб чиқиш.

4. Талабаларни «оммавий маданият»нинг салбий таъсиридан ҳимоялашнинг амалий-технологик асосларини ёритиш

5. Талабаларни «оммавий маданият»нинг салбий таъсиридан ҳимояланганлик даражасини баҳоловчи мезонларни ишлаб чиқиш

6. Талабаларни «оммавий маданият»нинг салбий таъсиридан ҳимоялашда юқори самарадорликка эришишни таъминловчи илмий-методик тавсияларни ишлаб чиқиш.

7. Талабалар онгода «оммавий маданият»нинг миллий-этник маданият инқирозини таъминлашдаги роли, ижтимоий-салбий оқибатлари тўғрисидаги тушунчаларни шакллантириш.

8. Талабаларда «оммавий маданият»га нисбатан муросасиз муносабатни қарор топтириш технологиясини яратиш.

9. Талабаларни «оммавий маданият»нинг салбий таъсиридан ҳимоялашда ижтимоий фанлар, оила ҳамда ёшлар тарбиясига нисбатан миллий ёндошувни ўрнини очиб бериш

10. Талабаларни «оммавий маданият» салбий таъсиридан ҳимояланганлик даражасини баҳоловчи мезонлар ишлаб чиқиш

11. Талабаларни «оммавий маданият»нинг салбий таъсиридан ҳимоялашнинг амалий асослари ёритилиб, бу борада юқори самарадорликка эришишни қафолотловчи илмий-методик тавсиялар ишлаб чиқиш

Хулоса қилиб айтганда Талабалар онгода «оммавий маданият»нинг миллий-этник маданият инқизозини таъминлашдаги роли тўғрисидаги тушунчалар ҳосил қилиниб, унга нисбатан муросасиз муносабатнинг шакллантирилишига эришилса, талабаларни «оммавий маданият»нинг салбий таъсиридан ҳимоялаш тизими яратилиб, пухта механизми асосланса талабалар онгода «оммавий маданият»нинг салбий таъсиридан ҳимоялашга эришилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Каримов И.А. Юксак маънавият енгилмас куч-Т. Маънавият 2008 12 бет
2. Абу Наср Фаробий Фозил одамлар шархи Тошкент 1993 йил
3. “Оммавий маданият маънавий таҳдид сифатида” Ўзбекистон республикаси қишлоқ ва сув хўжалиги вазирлиги Тошкент Ирригация ва мелироция ва ирригацияинститути. Тошкент 2017. Конференция тўплами

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14251997>

СУВ ХҮЖАЛИГИ ЙЎНАЛИШИ ТАЛАБАЛАРИГА ФИЗИКАНИ ЎҚИТИШДА MathCAD ДАСТУРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Санақулов Фурқат Рахим ўғли

"ТИҚХММИ" МТУ Қарши ирригация ва агротехнологиялар институти
“Математика, Жисмоний тарбия ва спорт” кафедраси асистенти

Аннотация: Уибу мақолада талабларга асосан физикадан амалий машғулот жараёнида MathCAD математик дастурий пакетлар ёрдамида физик масалаларни математик моделлаштиришини талабаларга ўргатиш методикасини кўрсатиб ўтилган.

Калит сўзлар: дастурий восита, электрон ресурс, анимация, дастурий пакет, дастурий маҳсулот, касбий фаолият, технологиялар, лойиҳалаш, конструкторлик.

Аннотация: В данной статье описана методика обучения студентов математическому моделированию физических задач с использованием пакетов математических программ MathCAD в процессе практических занятий по физике в соответствии с предъявляемыми требованиями.

Ключевые слова: программных средств, электронный ресурс, анимация, программный пакет, программный продукт, профессиональная деятельность, технология, проектирования, конструкторский.

Abstract: This article describes a methodology for teaching students mathematical modeling of physical problems using MathCAD mathematical software packages in the process of practical classes in physics in accordance with the requirements.

Key words: software tools, electronic resource, animation, software package, software product, professional activity, technology, project, construction.

Долзарбилиги. Техника олий таълим муассасалари бакалавриат таълим йўналиши ўқув режа фанлари блоклари мазмунига қўйилган умумий талабларга кўра умумкасбий фанлар блокида моделли тасаввурларни амалда қўллаш, ихтинослик фанлари блокида эса объектлар ва жараёнларни, жумладан амалий дастурлар пакетларини ва математик моделлаштиришнинг элементларини қўллашни билиши кераклиги келтириб ўтилган.

Ўқитишнинг 4 поғонали методи – касбий ҳаракатларни бажариш кўникмаларини ўргатиш методи бўлиб, “тушунтириш”, “нима қилиш келаклигини кўрсатиб бериш”, “кўрсатилган тарзда қайтариш”, “машқ қилиш” [Ошибкa! Источник ссылки не найден.].

1-поғона. Амалиёт ўқитувчиси оғзаки равишида талабаларга нима қилиш кераклигини тушунтиради.

2-поғона. Амалиёт ўқитувчиси муаммоли масалани дастурий пакет ёрдамида математик моделлаштириш, графиклар ҳосил қилишни бажариб кўрсатади.

MathCAD амалий математик дастурий пакети ҳам юқори сифатли график имкониятига эга бўлиб мураккаб математик амалларни бажариш, физик жараёнларни математик моделлаштириш, дастурлашни амалга ошириш, шу билан бирга электрон ўқув услубий қўлланмалар ҳам яратиш мумкин.

Физикадан амалий машғулотларда сўнувчи электромагнит тебранишлар контурида кучланишнинг вақтга боғланиш тенгламасини ва боғланиш графикларини ҳосил қилишда MathCAD математик дастурий пакетидан фойдаланишни кўрсатиб ўтамиз.

Кондесатор, ғалтак ва қаршиликдан иборат бўлган ҳар қандай электр занжирда электромагнит тебранишлар ҳосил бўлади. Агар конденсаторни зарядлаб электр занжири ўз ҳолича қолдирилса, у ҳолда занжирда сўнувчи электромагнит тебранишлар содир бўлади, чунки занжир бўйича ток қаршилик кисмидан ўтаётганда электр энергияси иссиқлик энергияси ажralиб чиқишига сарф бўлади. Шу сабабли, контурдаги энергия захираси ва тебранишлар

амплитудаси аста-секин камая боради, натижада тебранишлар сўна бошлайди [10-190-б], [11].

Сўнувчи электромагнит тебраниш тенгламалари келтирилган.


Масала: Кетма-кет уланган индуктивлиги $L = 2.3\text{Гн}$ бўлган индуктив ғалтак, $C = 7\text{мФ}$ сифимли конденсатор ва $R = 2\text{Ом}$ қаршиликдан иборат қаршиликли электромагнит занжири берилган бўлсин. Конденсаторнинг максимал заряд миқдори $q_0 = 0.56\text{Кл}$. MathCAD математик дастурий пакети ёрдамида берилган катталиклардан фойдаланган ҳолда электромагнит тебраниш контури учун кучланишнинг вақтга боғланишини аниқланг.

1-услуб: MathCAD дастурини ишга туширамиз, сўнгра берилган катталикларни киритамиз. Аввало заряднинг вақтга боғланиш формуласини ҳосил қиласиз. Заряднинг вақтга боғланиш тенгламасидан заряднинг қийматини конденсатор сифимига бўлсак, кучланиш тебраниш тенгламаси ҳосил бўлади.

2-услуб: Максимал бўлаклар сони - M белгилаб олингандан сўнг Insert->Function->Insert Function->Function Name->rkf45 функцияси танланади.

Ҳосил бўлган биринчи устун вақт моментларини, иккинчи устун эса кучланиш катталикларини билдиради. n — берилган интервалдаги нуқталар сони, M — бўлакларнинг максимал қиймати.

Ҳар иккала услубдан фойдаланиб аниқланган кучланишнинг вақтга боғланиш функциясининг графигини 2.6-расмда кўрсатилгандек ҳосил қилиш мумкин [11], [Ошибка! Источник ссылки не найден., 34-40-б].



2-расм. MathCAD дастурида ҳосил қилинган функция графиги

Хулоса: MathCAD математик дастурий пакетидан таълим жараёнида фойдаланиш услубларини кўрсатиб ўтдик. Ушбу дастурларнинг устунлик томони уларда дастурлаш имкониятининг ҳам мавжудлигидир. Амалий жиҳатдан Matlab дастури MathCAD дастурига нисбатан мукаммал ва юқори имкониятга эга. Бунга сабаб Matlab дастурий воситасининг маҳсус мураккаб математик моделлаштиришларни амалга ошрувчи Simulink муҳитининг мавжудлигидир. Лекин малака талабларига асосан бўлажак дастурчилар ҳар иккала дастурий воситалардан мукаммал фойдалана олишлари лозим. Дастурий инжиниринг таълим йўналишида таҳсил олаётган талабаларга таълим жараёнида энг замонавий ахборот-коммуникация технологияларини қўллаган ҳолда математик ва табиий-илмий фанларни ўқитишида амалий математик дастурий пакетлардан фойдаланиш таълим сифатини оширишда ҳамда бўлажак дастурчилар касбий фаолиятга тайёрлашда муҳим аҳамиятга эга.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони:// Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2017. Б.39.
2. Покасов В.Ф. Управление качеством образования современной школы (методические материалы) // автор-состав. – Ставрополь. 2012. – 145 с
3. Хамидов В.С. Таълим тизимида кескин бурилишга сабаб бўлган 4 дастур ҳақида. «Infocom.uz», - Тошкент. 2010, №1, -54-57 б.
4. Шоштаева Е.Б. Интегральная технология обучения как основа повышения качества образовательного процесса: автореф. дис. канд. пед. наук. //Е.Б. Шоштаева. – Карачаевск: 2003. – С. 23.
5. Хамидов В.С. Таълим тизимида кескин бурилишга сабаб бўлган 4 дастур ҳақида. «Infocom.uz», - Тошкент. 2010.

6. Turaev S.J. Methods of the using of software program Microsoft Excel in practical and laboratory occupation on physics, *Scientific Bulletin of Namangan State University*: 2019.
7. Психология и педагогика /Под ред. Абульхамовой К.А., Васиной Н.В., Лаптева Л.Г., Сластенина В.А. – М.: «Совершенство», 1998.
8. Махмадиев Б.С. MathCAD тизимида ишлаш асослари. Ўқув қўлланма. – Қарши. 2012. – 144 б.
9. Тураев С.Ж., Хўжаев Л.Х., Пардаев Б.А. Matlab/Simulink муҳитида динамик системаларни моделлаштириш ва Borland Delphi7 дастурлаш тилида графигини ўрганиш.
10. Аладьев В.З., Харитонов В.Н. Программирование: Maple или Mathematica. – Таллинн , 2011. -415 с.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14252005>

"GULLIVERNING SAYOHATLARI" ASARI INSONIYAT HAQIDAGI SATIRA

Ravshanova Tursuntosh

Abdullayeva Shaxnoza

TerDU talabalari

Annotatsiya: Mazkur maqolada Jo‘natgan Swiftning "Gulliverning sayohatlari" asari muhokama qilinadi. Asaridagi voqealar, qahramonlar tahlilga tortilib, asarga oid ma’lumotlar keltirilib o‘tiladi. Asaridagi satiraga oid bo‘lgan voqealar, jamiyatning ustidan kulish holatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Gulliver, sayohat, satira, fantastika, liliputlar, davlat odamlar, Blefusku, Angliya, Brobdingneg, Laputa va boshqalar.

"Gulliverning sayohatlari" asari Jo‘natgan Swift tomonidan yozilgan asar hisoblanadi. Bu asar satiro-fantastik ruhda yozilgan bo‘lib, asar qahramonlari unchalik ko‘p kishini tashkil etmaydi. Mazkur asarda sayohat motivi asosiy o‘rinni egallaydi. Har bir sayohatning xayoliy holati tasvirning ravshanligini yaratadi va har bir holatda jamiyat hayotining ba’zi jihatlarini aniq tushuntiradi. Har qaysi sayohat olamida inson dunyosi turlicha yo‘llar bilan ochilgan va har bir sayohatning fantaziysi uni kashf qilishning vizual usuli bo‘lgan. "Gulliverning sayohatlari" asari nasriy satiradir. Muallif matnni urf-odatlar, siyosiy uslublar, shuningdek, inson tabiatiga qarshi kuchli tanqidlarni qo‘sib, sayohat hikoyalariga masxara qilish sifatida yozadi. Qahramon shifokor. Safarlari davomida u ajoyib sarguzashtlarni boshidan kechiradi va siz o‘zingiznikidan mutlaqo farq qiladigan to‘rtta o‘ziga xos svilizatsiya bilan uchrashdi. Safar talqiniga bag‘ishlangan mazkur maqolada dengiz sayohati janrida qurilgan

"Gulliverning sayohatlari" asarida mavjud voqealar tasviriga alohida e'tibor qaratiladi. O'z davrida Angliyada mavjud bo'lgan ijtimoiy muammolar, davrning o'ziga xos xususiyatlari asarda alohida chizgilar bilan namoyon bo'ladi hamda asarda ekzotik mamlakatlar aholisi haqida gapirilib, muallif odamlarning salbiy fazilatlarini masxara qilish bilan ochib beradi. Jonatan Swift qalamiga mansub eski Angliya burjuaziyasiga va zodagonlariga qarshi qaratilgan "Gulliverning sayohatlari" asari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Jonatan Swift o'z vatandoshlariga noma'lum olamlarni ochgan qahramonning hayoliy sarguzashtlari haqida yozar ekan, asarda Utopiya, Buyuk Britaniyani keskin tarzda tasvirlagan. Gulliver haqiqatdan mavjud bo'lgan shaharlar qirg'og'idan ham o'tib ketadi va an'analari va urf-odatlari aql bovar qilmaydigan mamlakatlarga keladi. Ekzotik mamlakatlar aholisi haqida gapirib, muallif odamlarning kamchiliklarini ko'rsatadi va odamlarning salbiy fazilatlarini masxara qiladi. Asar Swiftning o'ziga xos manifestiga aylandi. Swift hikoyani to'rt qismga bo'lib, o'quvuriga Gulliver qiyofasidagi to'rtta tasvirni ko'rishta imkon beradi.

Asarning birinchi qismida yozuvchi liliputlarning o'zlarini hammadan yuqori qo'yishlari ustidan kuladi. Ikkinci qismda devqomat odamlar yurtida nuqtayi nazar o'zgaradi. Kema shifokori Lemuel Gulliver "Liliputiya" davlatiga tushib qoladi. U yerda odamlardan o'n ikki marta kichik bo'lgan odamchalar yashaydi. Ular Gulliverni asirga oladilar. Liliputlar Gulliverni xushmuomalalik bilan qabul qiladilar. Unga yashashga joy beradilar va ovqat bilan ta'minlab turadilar. Uning kattaligi uchun unga "Tog' Odam" deb nom beradilar. Asta-sekin Gulliver mamlakat hayoti bilan tanishdi. Ularning hayoti Yevropa hayotidan umuman boshqacha tuzilgan bo'ladi. U Liliputiyada ikkita partiya mavjudligi va ularning bir-biridan farqi biridan ikkinchisining poshnasining baland-pastligida ekanligini kulgu ostida tasvirlaydi. Ular orasida doimo shafqatsiz bahslar kelib chiqar edi. Oradan biroz vaqt o'tib Liliputiya va Blefusku davlatlari o'rtaida katta jang ketadi. Urushga sabab pishgan tuxumni qaysi tarafidan (uchi tarafidanmi yoki tekis tarafidan) sindirgan ma'qulrog'i haqida bahs ketadi. Gulliver Liliputiya davlatining g'alaba qozonishiga yordam beradi.

Asarning ikkinchi qismida esa Gulliver devqomat odamlar mamlakatiga tushib qoladi. Uni bo‘yi 22 metr bo‘lgan fermer topib oladi. Dev Gulliverni vatandoshlariga ko‘rsatadi va shu orqali pul ishlaydi. Gulliver esa buni haqoratomuzlik deb biladi. Keyinchalik Brobdingnegning qirolichasi Gulliverni sotib oladi. Qirolicha unga o‘yinchoqdek munosabatda bo‘ladi. Gulliver uchun maxsus quti yasaladi va sayohatlatda uni shu qutichada olib yurishadi. Kichik, lekin xavfli sarguzashtlar orasida u qirol bilan Yevropa siyosatini mulohaza qiladi. Bu yerda xuddi birinchi qismdagidek, jamiyat xulq-atvorlari satirik ravishda tanqidlanadi. Faqat liliputlar niqobi ostida emas, qurolning nutqida. Safarlarning birida Gulliverning qutisini ulkan burgut olib ketadi va dengizga tashlab yuboradi. Gulliverni dengizchilar qutqaradi va uyiga qaytaradi.

Uchinchi qismda Gulliver Laputa nomli uchar orolga tushib qoladi. Bu orol Balnibarbi davlatining poytaxti. U davlatning qit'a qismiga tushadi. Qit'ada "projektorlar akademiyasi" mavjud. U yerda har xil ilmiy bo‘lmagan, kulguli tashabbuslar hayotga tatbiq qilinadi. Davlat hokimiyati esa buni qo‘llab-quvvatlaydi. Shu sababli davlatning rivoji past darajada bo‘ladi. Kitobning bu qismida muallif yashagan vaqtida mavjud bo‘lgan, chayqivchilikka asoslangan nazariyalarga o‘xshash satira mavjud. Gulliver kemasi kelguncha, Glabbdobdribga sayohat qiladi. U yerda olganlarning soyalarini chiqara oladigan afsungarlar bilan tanishadi.

Asarning to‘rtinchi qismi Gulliver aqilli va xushkor otlar - guigngnmlar davlatiga tushib qoladi. Bu davlatda jirkanch yexular - odamlar ham yashaydi. Yexularning xulq-atvorlari misolida odamlarning nuqsonlari ko‘rsatilgan. Guigngnmlar Gulliverni yexularga o‘xshatadilar, lekin ularga qaraganda aqliy va ma’daniy rivoji balandroqligini ta’n oladilar. Hikoyaning oxida Gulliver bu utopiyadan haydaladi va u Angliyaga, o‘z oilasiga qaytadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Jonatan Swift mazkur asarni shunchaki yozib qo‘ymagan. Balki ushbu asar orqali o‘sha vaqtdagi Angliya hayotini romantizmda tasvirlab bergan. Mazkur asarni o‘qish orqali kitobxon nafaqat satiraga guvoh bo‘lishi mumkin, balki bir vaqtning o‘ziga ijodkorning ham mahoratiga tan beradi.

Foydalanimgan adabiyotlar:

1. Bondareva A. Sarguzashtlar adabiyoti. 2012
2. Alekseev P. V. Rus Sharq sayohatnomasi 18-asr oxiri va 19-asrning birinchi uchdan bir qismi sayohat nasri sifatida. 2014
3. Universitet N. I. Lobachevskiy. 2008.
4. "Gulliverning sayohatlari " Waynback Machine saytida 2015

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14252045>

TRIZ PEDAGOGIKASI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Nabiyeva Nigora Nodirjon qizi

FarDU tadqiqotchisi

Sherzod Latipov

FarDU o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada TRIZ (Ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi) yangi pedagogikaning asosiga aylanishi mumkinligi, chunki uning asosiy tamoyillari zamonaviy ta'larning asosiy talablariga javob berishi, bu nazariya bolalar va yoshlarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun juda qimmatli ekanligi ta'kidlagan.

Tayanch atamalar: *TRIZ (Ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi), ixtiro, tanqidiy yondashuv.*

XX asr oxirlariga kelib, jahon didaktikasida ixtirochilikka asoslangan dunyoqarashni rivojlantirish global tafakkur yuritishning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Zero ixtiro qilish uchun voqelikka tanqidiy yondashuv zarurati mavjud.O'tgan asrning 80-yillardan boshlab AQSHda va o'tgan asrning 90-yillaridan boshlab Yevropa mamlakatlarida ixtirochilikka asoslagan tanqidiy fikrlashni rivojlantirish ta'larning asosiy maqsadlaridan biriga aylanganligi M.V.Klarinnning tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan¹. Tanqidiy fikrlash tushunchasini D.Xalpern tomonidan chuqr tahlil etilgan bo'lib, uning fikricha, tanqidiy fikrlash sog'lom refleksiv jarayondir, shuningdek, tanqidiy fikrlash – yo'naltirilgan xarakterga ega bo'lib, o'z xatolaridan

¹ Кларин М.В. Развитие критического и творческого мышления. // Школьные технологии.- 2004.

xolis bo‘lish va sog‘lom mazmun izlashdir. Tanqidiy fikrlaydigan insonlar yangi g‘oyalar va yangi imkoniyatlarni taqdim etishga qodirdirlar¹

TRIZ (Ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi) yangi pedagogikaning asosiga aylanishi mumkin, chunki uning asosiy tamoyillari zamonaviy ta’limning asosiy talablariga javob beradi. Bu nazariya bolalar va yoshlarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun juda qimmatlidir. TRIZ texnologiyasining afzallikkleri quyidagicha:

1. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish.

TRIZ doimiy ravishda standart yondoshuvlardan tashqariga chiqishni va muammolarga innovatsion yechim topishni talab qiladi. Bu jarayon bolalarni quyidagi yo’nalishlarda rivojlantiradi: muammolarga kreativ yechim topish; notanish vaziyatlarda ijodiy tafakkurlash. TRIZ bolalarda standart bo’lmagan fikrlashni shakllantiradi, chunki, bu XXI asrning eng muhim ko’nikmalaridan biri hisoblanadi.

2. Tizimli fikrlash ko’nikmalarini. TRIZ yordamida bolalar masalalarni faqatgina yakka tartibda emas, balki kengroq tizimi yechishni o’rganadilar. Bu ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Masalan, tabiatdagi yoki texnik obyektlardagi qayd etilgan qarama-qarshiliklarni hal qilishda jarayonlarni umumiy tizimning bir qismi sifatida tushunish.

3. Muammolarni amalda yechishga yo’naltirish. TRIZ nazariyasi shunchaki nazariy bilimlarga emas, balki amalda foydalilanligi yechimlarga yo’naltirilgan. Bu bolalarning amaliyotga yaqinroq yondashuvini ta’minlaydi va ularni hayotiy masalalarni hal qilishga o’rgatadi.

4. Qarama-qarshiliklar vositasida ta’lim. TRIZ asosiy metodologiyasidan biri — qarama-qarshiliklarni aniqlash va ularni yechishdir. Bu bolalarni quyidagicha rivojlantiradi: qiyinchiliklarni ijobjiy vaziyatga aylantirish; qarama-qarshiliklarda yangi imkoniyatlarni ko’rish. Murakkab mavzularni tushuntirishda yoki murakkab qarorlarni izlashda foydalinish mumkin. TRIZ va STEM ta’limi o’zaro bir-biri bilan integratsiyaga kirishadi. TRIZ STEM (fan, texnologiya, muhandislik, matematika)

¹ Халперн Д. Психология критического мышления . – 240 с. Питер: Д. Халперн. – СПб.- 2000

ta'limi bilan ajoyib uyg'unlikda ishlaydi. Bolalar texnik muammolarni hal qilishda kreativlikni ishlatishni o'rganadi, bu ularning kasbiy salohiyatini oshiradi. TRIZ nafaqat texnika yoki fan sohasida, balki har qanday sohada foydalaniishi mumkin. Uning tamoyillari universal bo'lib, ta'lim jarayonida quyidagicha ishlaydi:

- fanlar o'rtasida bog'lanishni tushunish (integrativ ta'lim).
- turli sohalardagi bilimlarni qo'llay olish.

Innovatsion o'qitish modellari

TRIZ pedagogikani qiziqarli va interaktiv qiladi. Masalan:

- "Qiziqarli savollar" qo'yish: "Nima uchun bu shunday ishlaydi?"
- "Nima bo'lish mumkin?" kabi savollar orqali bolalarni chuqur fikrlashga majbur qilish.

TRIZ pedagogikasida inson ruhiyatining o'rni katta. Ayniqsa qiziqishning ichki olovini yoqish va uni saqlab qolish uchun quyidagi maslahatlar foyda beradi:

1. Maqsadni aniqlash. Qiziqish va ilhomni qo'zg'atish uchun o'zingizga savol bering: "**Men buni nega qilayapman?**". Maqsadingizni tushunganingizda, uning ortidagi ichki motivatsiya kuchayadi.

2. Kichkina qadamlar bilan boshlashmoq. Yangi narsani o'rganish yoki ish boshlashda katta qadamlardan qo'rmaslik. Masalan, 5-10 daqiqalik vaqt ajrating, sinov qiling. Bu sizga qo'shimcha ilhom berishi mumkin.

3. Qiziqishingizni o'yg'otadigan bilim manbalarini topish. Kitoblar, videolar yoki professional muloqot orqali yangi g'oyalar bilan tanishing. Qiziqish juda ko'p holatlarda kerakli ma'lumot va ijobjiy tajribalar orqali paydo bo'ladi.

4. Qiziqtiruvchi savollar berish. "Bu qanday ishlaydi?" yoki "Bu narsa nimalarga olib kelishi mumkin?" kabi savollar sizda yangi savodxonlikka intilish hissini uyg'otadi.

5. Qat'iylik va intizom orqali qiziqishni rivojlantirish. Har doim ilhom bilan ish boshlanmaydi. Ba'zan qiziqish rivojlanishi uchun intizomli harakat qilish zarur. Ohista-ohista qiziqish o'z-o'zidan paydo bo'ladi.

6. Ilhomlantiruvchi odamlar bilan aloqa qilish. Qiziqish yuqumli bo'lishi mumkin.

Sizga qiziqarli bo'lgan sohada faol shaxslar bilan muloqot qiling, ulardan o'rganing.

7. Muvofaqqiyatlarni nishonlash. Har qanday kichik yutuqni qayd eting va o'zingizni taqdirlang. Bu ichki ilhommingizni kuchaytirishga yordam beradi.

8. Yangi narsalarni sinashdan qo'rmaslik. Faoliyatdagi yangilik va o'zgarishlar qiziqishning qayta tirilishini ta'minlaydi. Ichki olovni yoqish uchun barqaror harakat va ijobjiy muhit muhimdir. Sizni nima ilhomlantirishini bilib oling va unga ko'proq vaqt ajratish.

6. Ilhomlantiruvchi odamlar bilan aloqa qilish. Qiziqish yuqumli bo'lishi mumkin.

Sizga qiziqarli bo'lgan sohada faol shaxslar bilan muloqot qiling, ulardan o'rganing.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Кларин М.В. Развитие критического и творческого мышления. // Школьные технологии.- 2004.
2. Халперн Д. Психология критического мышления. – 240 с. Питер: Д. Халперн. – СПб.- 2000

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14252057>

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SIFATNI O‘RGANISH METODIKASI

Qambaraliyeva Zarina

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Boshlang‘ich ta’lim fakulteti Boshlang‘ich ta’lim fakulteti 2-kurs talabasi

M.A.Hamrayev

Ilmiy rahbar: Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti

Boshlang‘ich ta’lim fakulteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda sifat sòz turkumini òrganish metodikasi haqida hamda sifat sòz turkumini

Kalit so`zlar: mavzu belgisi, ko`rgazmali qurollar, mustaqil fikr.

Annotation: This article is about the methodology of learning adjective clauses in elementary grades and about explaining adjective clauses to students.

Key words: subject symbol, visual aids, independent opinion.

Sifatni òrganish metodikasi uning lingvistik xususiyatlariga asoslanadi. Sifat predmetning belgisi (rangi, hajmi, shakli va ko‘rinishi, mazata’mi,xarakterxususiyati, hidi, vazni, o‘rin va paytga munosabati)ni bildiradi. Sifatning leksik ma’nosi uni ot bilan bog‘liq holda o‘rganishni talab qiladi. Sifatni tushunish uchun 1-sinf danoq o‘quvchilar e’tibori sifatning otga bog‘lanishini aniqlashga qaratiladi. O‘quvchilar predmetning belgisini aytadilar, ularda so‘roq yordamida gapda so‘zlamining bog‘lanishini aniqlash ko‘nikmasi o‘stiriladi, ya’ni ular gapdagisi sifat va otdan tuzilgan so‘z birikmasini ajratadilar (atama aytilmaydi). Keyingi sinflarda bu bog‘liqlik aniqlashtiriladi. Shunday qilib, sifatning semantik-

grammatik xususiyatlari sifat ustida ishlashni leksik va grammaatik (morfologik va sintaktik) yo‘nalishda olib borishni talab etadi.

Boshlang‘ich sinflarda „Sifat“ mavzusi quyidagi izchillikda o‘rganiladi: I) sifat bilan dastlabki tanishtirish (1-, 2-sinf); 2) sifat haqida tushuncha berish (3-sinf); 3) shu grammaatik mavzu bilan bog‘liq holda ayrim sifatlarning yozilishini o‘zlashtirish (4-sinf)

Predmetning belgilari xilma-xil bo‘lib, uni rangi, mazasi, shakli, xil-xususiyatlari tomonidan tavsiflaydi. Shunday ekan, sifat tushunchasini shakllantirish uchun uning ma’nolarini aniqlash talab etiladi. O‘qituvchi predmetni yoki uning rasmini ko‘rsatadi, o‘quvchilar uning belgilarini aytadilar va yozadilar. Masalan, (qanday?) olma – qizil, shirin, yumaloq olma; (qanday?) ip – uzun, ko‘k ip. Albatta, suhbat asosida o‘quvchilar olma, ip so‘zlar ni ma? so‘rog‘iga javob bo‘lib, predmet nomini bildirishi, qizil, shirin, yumaloq kabi so‘zlar qanday? so‘rog‘iga javob bo‘lib, predmetning belgisi (rangi, mazasi, shakli)ni bildirishini aniqlaydilar. O‘qituvchi atrofimizni o‘rab olgan predmetlarning o‘z belgilari borligini, ular bir-biridan shu belgilarni farqlanishini yana bir-ikki misol bilan tushuntiradi (Qanday daraxt? – Katta, chiroyli, sershox, ko‘m-ko‘k daraxt. Qanaqa shkaf? – Oynali, baland shkaf). Xulosa chiqariladi: qanday?, qanaqa? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlar predmet belgisini bildiradi. O‘quvchilar belgi bildirgan bunday so‘zlarining nutqimizdagи ahamiyatini anglashlari uchun sifat ko‘p uchraydigan matn tanlanib, avval sifatlarini tushirib qoldirib, so‘ngra sifatlari bilan o‘qib beriladi va mazmuni taqqoslab ko‘rsatiladi. Predmetni aniq tasvirlash uchun uning belgisini bildiradigan so‘zlardan foydalanilgani tushuntiriladi.

Bu darslarda ko‘rgazma vositalar (predmetlar, predmet rasmlari, syujetli rasmlar)dan keng foydalaniladi. O‘quvchilar qanday?, qanaqa? so‘roqlariga javob bo‘lgan (predmet belgisini bildirgan) so‘zлами o‘zlashtirishlari uchun mashqning quyidagi turlari samarali hisoblanadi:

- 1) so‘roq yordamida predmetning belgisini bildirgan so‘zлами tanlash;
- 2) aralash berilgan so‘zlardan gap tuzish;
- 3) matndan kim? yoki nima? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zni va unga bog‘langan qanday? va qanaqa? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zni tanlab (so‘z birikmasini topib) aytish va yozish;
- 4) tayanch so‘zlar va rasm asosida gap yoki kichik hikoya tuzish. Ikkinch bosqichda asosan ikki vazifa: “sifat” tushunchasini shakllantirish hamda o‘quvchilar nutqini yangi sifatlar bilan boyitib borish,

fikmi aniq ifodalash uchun mazmunga mos sifatlardan nutqda o‘rinli foydalanish ko‘nikmasini o‘stirish hal qilinadi.

“Sifat” tushunchasini shakllantirish o‘quvchilarning “predmet belgisi” degan umumlashtirilgan kategoriyanı o‘zlashtirish darajasiga bevosita bog‘liq. Shu maqsadda rang, maza, shakl-hajm, xilxususiyat bildiradigan so‘zlar guruhlanadi va shu so‘zlerning xususiyatlari umumlashtiriladi. Sifatning leksik ma’nosi bilan birga uning xarakterli grammatik xususiyatlari ham qayd etiladi. Sifatlarning xususiyatlarini umumlashtirish asosida o‘quvchilar uning so‘z turkumi sifatidagi o‘ziga xos ko‘rsatkichlarini ajratadilar: a) predmet belgisini bildiradi,

b) qanday? yoki qanaqa? so‘rog‘iga javob bo‘ladi,

v) gapda otga bog‘lanib, shu ot bilan so‘z birikmasi hosil qiladi, ikkinchi darajali bo‘lak vazifasida keladi. Bu sinfda og‘zaki va yozma ijodiy ishlar (maktab bog‘i yoki parkka ekskursiya vaqtida kuzatilgan daraxt, qushlar, hayvonlarni tasvirlab kichik hikoya tuzish kabilalar)ga katta o‘rin beriladi.

O‘quvchilarning sifatning leksik ma’nosi haqidagi tushunchalarini chuqurlashtirish va predmetni har tomonlama tasvirlash malakasini o‘stirish uchun:

- 1) berilgan predmetlarning rangi, mazasi, shakli, xususiyatini ifodalaydigan sifatlar tanlash va yozish:
Qanday shaftoli? Shirin, suvli, tuksiz shaftoli. Qanday kitob? Qalin, qizil kitob;
- 2) berilgan belgilariiga qarab qaysi hayvon ekanini aniqlash: Tikanli, kichkina, foydali ... (tipratikan).
Ehtiyyotkor, ayyor, yovvoyi ... (tulki)
- 3) predmetlarning belgisiga qarab topishmoqlarning javobini aytin kabi mashqlardan foydalanish mumkin. Sifatning nutqimizdagi, fikrni aniq va tushunarli ifolashdagi o‘mini puxta o‘zlashtirishga erishish uchun ma’nodosh va zid ma’noli sifatlar ustida ishslash, o‘qish darslarida sifatning o‘z va ko‘chma ma’noda

ishlatilishini kuzatish maqsadga muvofiq. Sifatni o‘rganish jarayonida so‘z yasashga oid mashqlarni muntazam o‘tkazib borish o‘quvchilarda u yoki bu so‘z turkumini yasash uchun so‘z yasovchi qo‘sishchalardan ongli foydalanish malakasini shakllantiradi. Uchinchi bosqichda sifat haqidagi bilimlarni takomillashtirish, og‘zaki va yozma nutqda sifatlardan aniq, o‘rinli foydalanish ko‘nikmasini o‘stirish bilan bog‘liq holda -roq qo‘sishchasi bilan qo‘llangan sifatlarni va ko‘m-ko‘k, yam-yashil kabi sifatlarni to‘g‘ri yozish malakasi shakllantiriladi. Ish mazmuni shu vazifalarni bajarishga qarab belgilanadi va o‘quvchilar nutqini o‘stirishga qaratiladi. Nazariy ma’lumotlarga asoslanib: matnda berilgan otlarning

belgilarini ifodalaydigan sifatlarni tanlab qo'yish, gapda sifat bog'langan otni (so'z birikmasini) aniqlab yozish; otga mos sifatlar tanlab predmetni tasvirlash, berilgan sifatlar yoki so'z birikmasi bilan gap tuzish kabi mashqlardan foydalananiladi. Mashq materialini tanlashda -roq qo'shimchasi bilan qo'llangan yaxshiroq, aqlliroy kabi, shuningdek, tip-tiniq, sap-sariq kabi sifatlar ko'proq bo'lishiga e'tibor beriladi. O'quvchilarning mustaqilligi osha borgan sayin, mashq topshiriqlari ham asta-sekin murakkablashtira boriladi. Shunday qilib, sifatni o'zlashtirishda uni ot bilan o'zaro bog'liq holda o'rganishga asoslaniladi. Sifat belgini bevosita yoki bavosita ifodalaydi. Predmetning doimiy belgisini

bildiradigan belgini bevosita ifodalaydigan sifatlar asliy sifat deyiladi. Sifatning yuqorida ma'no turlari sifatni bevosita ifodalaydi.

Asliy sifatlar belgini darajalab korsata oladi: katta, kattaroq, eng katta kabi.

Juft sifatlar asosan asliy sifatlardan tarkib topadi: yosh-qari, yaxshi-yomon kabi. Belgini bavosita, ya'ni biror narsa va hodisaga nisbat berish, oxshatish orqali ifodalaydigan sifatlar nisbiy sifat deyiladi.

Nisbiy sifatlar boshqa soz turkumlaridan yasaladi va xoslik, oxshashlik, orin yoki paytga munosabat, moljal ma'nolarini bildiradi:

- a) xoslik ma'nosini ifodalaydigan sifat ot turkumidagi sozga -iy, -viy qoshimchasini qo'shish bilan yasaladi: zamonaviy, oilaviy, ma'naviy, siyosiy;
- b) oxshashlik ma'nosini ifodalaydigan sifatlar ot turkumidagi sozga -simon, -sifat birliklarini qoshish bilan yasaladi: odamsimon, hayvonsifat, devsifat;
- v) orin va payt ma'nolarini ifodalaydigan sifatlar ot turkumidagi sozlarga -gi, -qi, -ki, dagi affikslarini qoshish bilan yasaladi: qishki, yozgi, bahorgi, bulturgi, tushki, kechki;
- g) moljallanganlik, xoslik, olchov ma'nolarini ifodalovchi sifatlar ot turkumidagi sozlarga -lik affiksini qoshish bilan yasaladi: korpalik, korpachalik, toshkentlik, koylaklik.

Sifat ba'zan ravish ornida qollanib, harakatning belgisini bildirishi mumkin: ma'noli gapirmoq, chiroyi yozmoq, yaxshi oqimoq kabi.

Sifatning belgisini darajalab korsatishi (qizil, qizilroq, eng qizil, qip-qizil), yasalish sistemasiga egaligi otlashishi uning morfologik belgilaridan hisoblanadi.

3. Sifatning sintaktik belgisi. Sifat gapda otga, ba'zan fe'lga bitishuv usuli orqali boglanadi va ozi boglanib kelayotgan sozga tobelanadi.

Sifat otga boglanib kelganda, sifatlovchi aniqlovchi vazifasini bajaradi. Misol: Biz

dostlarning eng yaxshi dosti, dushmanlarning eng kuchli dushmani ekanligimizni ham oqil odamlar tushunsin. (Y.Shukurov).

Sifat fe'lga boglanib kelganda vaziyat holi vazifasini bajaradi. Misol: Yulduzlar odatdagidan kora toza, kattaroq, yorqinroq ko'rinardi. (P.Qodirov)

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda sifatni òrganishda òquvchilar belgini ifodalovchi sòzlarni va ularni qanday hollarda ishlatalishini òrganishadi. 1-sinf boshlang'ich òquvchilari mustaqil söz turkumlariga kiruvchi bu söz turkumini òrganib tushuncha hosil qilishadi. Keyinchalik yuqori sinflarda murakkab holatlarini ham òrganib borishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. K.Qosimova, S.Matchonov, X.G'ulomova, SH.Yo'ldosheva, SH. Sariyev "Onatili o'qitish metodikasi". Toshkent-2009 "NOSIR" nashriyoti 309-bet.
2. B.To'xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova "O'zbek tili o'qitish metodikasi" . Toshkent-2006 "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi" nashriyoti 67-bet.
3. Internet resurslari: <http://azkusr.org>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14252069>

FUQAROLIK JAMIYATIDA YOSHLARNING TA'LIM-TABIYASINI SHAKLLANTIRISH

Ozoda Abdusattarovna Abdugaffarova

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Boshqaruv Akademiyasi ilmiy izlanuvchisi

ozodaabdugaffarova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ma'rifat, ta'lism-tarbiya, ularga inson kamoloti va millat ravnaqining asosiy sharti va garovi sifatida qaralgan. Yoshlarning ta'lism-tarbiyasini birlamchi masalalaridan biri etib ilgari surilgan holda, ushbu siyosatning yaqin yillarda o'zining kutilgan natijalarining xulosalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, ta'lism-tarbiya, sharq Renessansi, uchinchi Renessans, milliy g'oya, "komil inson", "barkamol avlod", buyuk ajdodlar.

ANNOTATION

In this article, enlightenment, education, they are considered as the main condition and guarantee of human perfection and development of the nation. Education of young people one of the primary issues is the proximity of this policy conclusions of its expected results are presented over the years.

Key words: Spirituality, education, Eastern Renaissance, third Renaissance, national idea, "perfect human", "perfect generation", great ancestors.

KIRSH

Butun dunyoda jamiyatni axborotlashtirish jarayonlari tez sur'atlar bilan kechayotgan bir paytda moddiy ne'matlar va energiya bilan bir qatorda axborot inson diqqat-e'tiborining markaziy faoliyatining asosiy mahsuliga aylanmoqda. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda vatanparvarlik tarbiyasi, xalqimizning ezgu ideallari va oliyjanob maqsadlariga sadoqat g'oyalari shior darajasidagina qolib, milliy

g‘oyaning jahon tajri-basidan o‘tgan umuminsoniy qonuniyatlari va O’zbekistonga xos zamonaviy tamoyillarini amaliyotga tadbiq etishning samarali mexanizmlari joriy etilmagan. Yurtimizdagi yangilanish jarayonlari va islohotlarga dahldorligini chuqur his qiladigan, mamlakatimizning eng rivojlangan davlatlar qatoriga kirishidagi o‘z o‘rni va ishtirokini teran anglaydigan, bu yo‘lda faol fuqarolik pozitsiyasiga, kreativ va innovatsion tafakkurga ega bo‘lgan zamonaviy shaxslarni tarbiyalashning kontseptual asoslari va amaliy faoliyat mezonlari ishlab chiqilmagan. Bu esa sohada jiddiy bo‘shliq mavjudligini yana bir marotaba isbotlamoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ma’naviyat - moddiy hayot bilan doimo yonma-yon yuradigan, inson, xalq va jamiyat hayotining ajralmas qismi bo‘lgan ijtimoiy hodisa. Ma’naviyat tushunchasi ning mazmuni bugungi kunda faqat “ma’ni”, “ma’no” degan so‘zlar doirasidan chegaralanib qolmaydi. Sababi, insonni inson qiladigan, uning ongi va ruhiyati bilan chambarchas bog‘langan bu tushuncha, har qaysi odam, jamiyat, millat va xalq hayotida hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydigan darajada alohida ahamiyat kasb etadi.

Ma’naviyat tushunchasi jamiyat hayotidagi g‘oyaviy, mafkuraviy, ma’rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o‘zida to‘la mujassam etadi. Inson kamoloti, yangi O’zbekistonning ma’naviy qiyofasining takomillashuv darjasini, shaxsiy-axloqiy xususiyatlar va ma’rifiy fazilatlar majmui. Jamiyatning barcha sohalari bilan o‘zaro aloqador ma’naviy talablar va tamoyillar hamda inson hayoti va faoliyatini belgilovchi mezonlar tizimi.

Ma’naviyatni shakllantirish mezonlaridan biri ilmu ma’rifat, ta’lim-tarbiya bo‘lib, ularga inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi sifatida qaralgan. Kelajak poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq.

Buning uchun har qaysi ota-onas, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida, avvalo shaxsni ko‘rishi lozim. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, komil insonlar etib

voyaga yetkazish ishi ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lib qoladi. Bu esa ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi. Ta'limni tarbiya-dan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi. Shuning uchun ham hozirgi sharoitda butun mamlakat miqyosida ta'lim va tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o'rgatish tizimlarini tubdan yangicha isloh qilishga nihoyatda katta e'tibor qaratilayotganligining boisi ham shunda. Ko'plab mamlakatlar barqaror rivojlanishining yangi darajaga ko'tarilishi va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlaydigan asos, bu - ta'lim, fan hamda innovatsiyadir.

NATIJALAR

Keyingi yillarda taraqqiyottning mutlaqo yangi xalqimizning ulug'ver qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish - Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda. Chunki bugungi O'zbekiston - kechagi O'zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas. Biz, ayni chog'da hayot-mamot masalasi - farzandlarimizning ta'lim-tarbiyasini eng birlamchi masalalaridan biri hisoblaymiz. Bunday siyosat yaqin yillarda o'zining kutilgan natijasini beradi.

Bizning tabarruk zaminimizdan butun dunyo uyg'onishga turtki bergen Ibn Sino, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi olim va ijodkorlar yana ko'plab yetishib chiqishiga ishonamiz. Nihoyatda jozibali mazkur strategik g'oya o'zining ulug'-vorligi, milliy yuksalish barcha sohalarda qanday umumiylar maqsadni ko'zlamog'i zarurligini ko'rsatadi. Amalda davlat rahbari taraqqiётning hozirgi bosqichida O'zbekiston milliy g'oyasining yangi va aniqlashtirilgan mazmunini ifoda etadi.

Renessans (uyg'onish) atama sifatida uning mazmuni ancha keng:

madaniyatda, ilm-fanda, san'atda, ta'lim-tarbiyada, umuman, jamiyat hayotida uzoq muddatli turg'unlikdan keyin qayta jonlanib, tez rivojlanishni, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi yangi sifat bosqichiga chiqishni bildiradi. Sharq renessansi - Sharq ma'naviy-ma'rifiy, madaniy hayotidagi Uyg'onish, ya'ni Sharq xalqlari yuksalish davri. Haqiqatan tarixan olganda biz ikki Renessansni boshdan kechirdik:

1. IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda Mo‘g‘ullar istilosigacha bo‘lgan davr, u al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi qomusiy olimlar, astronom al-Farg‘oniy, Buxoro tarixchisi Narshaxiy, Ibn Sino kabi qomusiy olimlar, astronom al-Farg‘oniy, Yusuf Xos Hojib kabi buyuk daholar, buyuk muhaddislar - Buxoriy, Termiziyy, Mutakallimlar - Moturidiy va Abul Muin Nasafiy hamda boshqa atoqli dunyoviy va diniy allomalar shuuri olamni yoritishi bilan bog‘liq.

2. Ikkinci Renessansi XIV asr oxirgi choragi - XVI asr birinchi choragi Sohibqiron Amir Temur va temuriylar sulolasi 1,5 mln.kv. kilometr hududlarda hukmronlik qilgan (XIV-XVI asrlar) davriga to‘g‘ri keladi.

Mirzo Ulug‘bek, G‘iyosiddin Jamshid al-Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, Abdurahmon Jomiy, Lutfiy, Nizomiddin Mir Alisher Navoiy, Husayin Voiz Koshifiy, Kamoliddin Begzod kabi buyuk me’morlar, bastakorlar, musavvirlar, tarixchilar chiqib, bugun ham dunyoni lol qoldirayotgan asarlar yaratdilar.

Har ikki Renessans davrida biz dunyoning ilg‘or, mutaraqqiy xalqlari qatorida edik. Agar yana shunday darajaga erishmoqchi bo‘lsak, Uchinchi Renessansni amalga oshirishimiz zarur bo‘ladi.

MUHOKAMA

Istiqlol yillarida bosib o‘tgan shonli yo‘limizga nazar tashlab, ertangi kuni-mizga, o‘z kuch va imkoniyatlarimizga bo‘lgan ishonchimiz yanada ortmoqda.

Birinchi va ikkinchi renessanslarning tarixiy sharoiti va davri talablari, imkoniyatlarini haqqoniy baholab, yangi Renessansning tarixiy sharoitlari va talablari mutlaqo o‘zgacha ekanini asoslash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Oldingi ikkala Renessans mustahkam ma’naviy-mafkuraviy negizda, birinchi galda adolat, ilmga tashnalik va bag‘rikenglik asosida yuz bergen. Islom halollik va to‘g‘rilikni, insof va adolatni, ilm va amaliy faollikni hamma narsadan ustun qo‘ygan. “Ilm izlab Chinga bo‘lsa-da, bor”, “Sendan harakat-menden barokat”, “Bir soatlik adolat barcha insu jinslarning qirq kunlik ibodatidan ustun” kabi ko‘plab shu kabi Hadislar, maqol-lar ajdodlarimizning ijtimoiy mo‘ljaliga aylangan edi.

Buyuk ajdodlarimiz til o‘rganib, ilm ortidan dunyoni kezgan. Mahdudlik qobig‘iga o‘ranib qolmagan, turg‘unlik, mahalliychilik ularga yot bo‘lgan.

“Baytul hikma”, Xorazm Ma’mun Akademiyasi, umuman, islom olami olim-lari faoliyati o‘sha davrdagi xalqaro ilmiy integratsiyaning eng yorqin namunalaridan biri hisoblanadi. Birinchi va ikkinchi renessanslarning ma’naviy asoslarini va sabablarini hamda keyingi inqirozini chuqur o‘rganmasdan, biz Uchinchi Renes-sansni muvaffaqiyatli amalga oshira olmaymiz.

Uchinchi Renessans bizdan xalqaro hamjamiyatga ilm-fan, texnologiyalar, axborot, madaniyat va iqtisodiyot sohalarida yanada chuqurroq integratsiya zarurligini taqozo etadi. Jamiyat taraqqiyotining natijaviy maqsadi ham inson, uning farovon, erkin va xavfsiz turmush kechirishi hisoblanadi.

